

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

QISHLOQ XO‘JALIGI MAXSULOTLARINI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI



“YO‘NALISHGA KIRISH” fanidan
O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:

100000 – Xizmatlar

Ta’lim sohasi:

1020000 – Gigiena va ishlab chiqarishda
mehnat muhofazasi

Ta’lim yo‘nalishi:

61020200 – Mehnat muhofazasi va
texnika xavfsizligi

Guliston – 2023

“Yo‘nalaishga kirish ” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Guliston, 2023 – 165 b.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua 61020200– Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bakalavriyat ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. O‘quv-metodik majmua Guliston davlat universiteti tomonidan 2023-yil 30-avgustda tasdiqlangan Yo‘nalaishga kirish fan dasturi talablari asosida tayyorlanib, Mamlakatimizda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini rivojlanishi, Inson faoliyatiga uchraydigan texnosfera omillari, O‘zbekistonda texnosfera xavfsizligi haqida, qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarga qo‘yiladigan asosiy talablar, qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi baxtsiz hodisalarining sabablarini bilish va talofat ko‘rgan odamlarga yordam ko‘rsatishni o‘rgatishdir.

Tuzuvchi:

U.J. Bababekov GulDU, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari” kafedrasи o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

M.R.Djiyanov Tosh DAU, “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish” kafedrasи mudiri PhD dotsent

K.K.Nuriyev GulDU, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari” kafedrasи prof., t.f.d.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua OO‘MTVning 2017-yil 1-mart 107-soni buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim o‘quv rejalarini fanlarining yangi o‘quv majmualariini tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma” asosida yaratilgan.

O‘quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Ishlab chiqarish texnologiyalari fakulteti “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari” kafedrasining 2023-yil 26-avgustdagи 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan.

O‘quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O‘quv-metodik Kengashi tomonidan ko‘rib chiqilgan va o‘quv jarayonida qo‘llashga tavsiya etilgan. (2023-yil 30-avgust, №1 bayonnomasi).

MUNDARIJA

Kirish.....	4
O‘quv materiallari (ma’ruza mavzulari va mazmuni, semenar mashg‘ulotlari ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar).....	7
Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....	125
Glossariy.....	126
Ilovalar:	
Fan dasturi.....	137
Syllabus.....	143
Tarqatma materiallar.....	150
Test savollari.....	152

KIRISH

Insonlarning xayot faoliyat xavfsizligi davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining eng muxim yo‘nalishlaridan biridir. Korxonalarda, jamoa, fermerlik xo‘jaliklarida va mashina traktor parklarida xavfsiz va zararsiz texnologik jarayonlar, asbob - uskunalar va texnikalar joriy etilmoqda. Ular xavfsizlik talablari inobatga olingan xolda yaratilgan. Ishlab chiqarishdagi texnikalarning xavfsizlik xolati ustidan davlat, idora va jamoa nazorati o‘rnatilgan.

Mustaqil O‘zbekistonning fuqarolarini turli ko‘rinishdagi falokatlardan, xalokatlardan va dushman tomonidan bo‘ladigan xam ichki, xam tashqi ta’sirlardan saqlash, xozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri xisoblansa, ikkinchi tomondan bizning o‘lkamiz tabiiy ofatlar, bo‘lishiga moyil o‘lka bo‘lganidan xamda texnogen avariylar, katastrofalar oqibatlaridan fuqarolarni, xalq xo‘jalik tarmoqlarini moddiy resurslarni, texnologiyani va tabiatni asrash, zarar ko‘rgan xududlarda qutqaruv va tiklash ishlarini olib borish xam juda muxim masalalardan xisoblanadi.

Fanni maqsadi: ishlab chiqarishda shikastlanish va kasallanishlarni kamaytirish, sog‘lom va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish xamda favqulodda xolatlarda insonlarni xayotini muxofaza qilish.

Xayot faoliyati xavfsizligining maqsad va tarkibi odamning xayot faoliyati davrida eng qulay sharoitlarini yaratib berish va noqulay ta’sir etuvchi omillarni me’yoriy ruxsat etilgan darajada ushlab turishni ta’minlashdir.

Mexnat muxofazasi- Mexnat jarayonida odamning xavfsizligi, salomatligi va ishslash qobiliyatini saqlashini ta’minlovchi qonunlar tizimi xamda ularga muvofiq keladigan iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyenik va davolash oldini olish choratadbirlar xamda vositalardir.

Xavfsizlik texnikasi- bu ishlab chiqarishdagi xavfli omillarning ishlovchilarga ta’sirining oldini oladigan tashkiliy chora – tadbirlar va texnika vositalari tizimidir.

Ishlab chiqarish sanitariyasi- bu ishlab chiqarishdagi zararli omillarning ishlovchilarga ta'sirining oldini oladigan yoki kamaytiradigan tashkiliy chora-tadbirlar va texnika vositalari tizimidir.

Ergonomika- ilm, odam- mashina- muxit tizimini o'rganuvchidir. Bunga quyidagi savollar kiradi. Traktor kombaynlaridagi o'rindiq (sideniya) va boshqaruva organlarni joylashganligi va tuzilishi, qaysilar kasb kasalligidan, xolsizlanishdan va avariya xolatlarini xosil bo'lishidan asraydi.

Ishlab chiqarish estetikasi- ishlab chiqarish muxitini tashkil qilish, qaysini gigiyenistchilar- psixologlar va fiziologlar talablariga javob bersin. Bu uyerga ishchilarni chiroqli va ma'qul ishlab chiqarish kiyimlari bilan ta'minlash, ish joyda tartib va tozalik, ishlab chiqarish va maishiy xonalarni ratsional tuzilishi va yoqimli bo'yaganligi, xovli va ishlab chiqarish xonalarini ko'kalamlashtirilganligi.

Shikastlanish- ishlab chiqarishdagi zararli yoki xavfli omillar ta'sirida odam organlari yoki teri qatlaming fiziologik bir butunligining buzilishi.

Mexnat sharoiti- bu ishlab chiqarish muxitining mexnat jarayonida odamning salomatligi va ish qobiliyatiga ta'sir etadigan omillari majmuidir.

Shaxsiy muxofaza vositalari- bular bitta ishlovchi xodimini muxofaza qilish uchun xizmat qiladigan vositalar.

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak mutaxassislarga mehnatni muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishi haqida soha va oliy ta'lim xususiyatlari, mutaxassis faoliyatining mazmunini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarning mehnat muhofazasi va tehnika xavfsizligi sohasidagi zarur nazariy bilimlarini shakllantirish, mexnatni muhofazi qilish faoliyatni amalga oshirishni o'rgatish.

- - bilimlarning bir butun tizimida ushbu fanning asosiy muammolari; o'zining bo'lajak kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;(bilim)***

O'zbekiston respublikasida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishida fan va ta'limni rivojlanishi, Inson faoliyatiga ko'rsatilgan texnosferani omillari, O'zbekistonda texnosfera xavfsizligi haqida, qishloq va suv xo'jaligi

sohasidagi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarga qo‘yiladigan asosiy talablar, qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi baxtsiz hodisalarning sabablari haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)***

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi me’yoriy xujjatlar, texnika xavfsizligi yuriqnomasi, texnosferani zararli omillari, shaxsiy ximoya vositalarini ishlatish bo‘yicha ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)***

O‘quv materiallari

(ma’ruza mavzulari va mazmuni, amaliy mashg‘ulotlari ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar)

1-MAVZU: Yo‘nalishga kirish fanining maqsad va vazifalari.

Reja:

1. Yo‘nalishga kirish faniga oid qonun va qarorlari bilan tanish
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida ma’lumot
3. Kredit-modul tizimi haqida tushuncha

Tayanch iboralar: Faoliyat, xayot faoliyat xavfsizligi mexnat, xavf, taksonomiya, kvantifikatsiya, identifikasiya, nomenklatura, muxandis, xavflilik, tavakkalchilik, sabab, oqibat, aksioma, voqealar daraxti.

Darsning o‘quv maqsadi: bo‘lajak mutaxassislarga mehnatni muhofazasi va texnika xavfsizligi yo‘nalishi haqida soha va oliv ta’lim xususiyatlari, mutaxassis faoliyatining mazmunini o‘rgatishdan iborat.

.1. Yo‘nalishga kirish faniga oid qonun va qarorlari bilan tanish

Yoshlarni o‘qitish Mamlakatimizda yoshlarni o‘qitishning asl maqsadi belgilangan vazifalarni bajara oladigan, vatanparvar, davlat siyosatini tushinadigan, fan-texnikaning ilg‘or yutuqlari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lgan.

Ijtimoiy-siyosiy ijtimoiy-siyosiy hayotda mo‘ljalni to‘g‘ri belgilay olish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir hamda o‘zi bilan boshqalarni etaklay oladigan ziyrak va tadbirkor kadrlarning yangi va zamonaviy avlodini tayyorlashdir.

Hukumatimiz tomonidan ko‘plab qonunlar, qonun osti hujjatlari, Prezident farmonlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, Vazirliklar buyruqlari qabul qilinga **O‘zbekiston Respublikasi qonunlari** Bularga O‘zbekiston Respublikasining «Mudofa to‘g‘risidagi», «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida», «Mehnatni muxofaza qilish to‘g‘risida», «Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida», «Fuqaro muxofazasi to‘g‘risida», Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari Favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to‘g‘risida», «Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida», «Gidrotexnik inshootlar xavfsizligi to‘g‘risida», «Yo‘l harakati

xavfsizligi to‘g‘risida», «Odamning immunitet tanqisligi kasalligining oldini olish to‘g‘risida»gi qonunlarini ko‘rsatish mumkin.

Yo‘nalishga kirish fani Yo‘nalishga kirish fani inson va hayot bog‘liqligida odamlarning yashovchanligini ta‘minlash omillari to‘g‘risida tushuncha xosil qiladi, odamlarga ta‘sir etuvchi faktorlarni o‘rganadi. Shu bilan birgalikda fan yoshlarda oliy ta’lim faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad qilib qo‘yadi. Mamlakatimizda ta’lim sohasini isloh qilishning muhim xujjatlarida ko‘rsatib o‘tilganidek, oliy o‘quv yurtlarining asosiy vazifalari o‘rgatilayotgan fanlarni mukammal egallagan, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha xar tomonlama chuqr va mustaxkam bilimga ega bo‘lgan, mustaqil tafakkur qila oladigan davlat siyosatini halq ommasi o‘rtasiga targ‘ibot qilishga layoqatli, g‘oyaviy e’tiqodli, ijodkor va intizomda namuna bo‘la oladigan etuk kishilarni tarbiyalashdan iboratdir.

Ma’lumki mehnat muhofazasi ta’lim yo‘nalishida bir necha yillardan beri “Yo‘nalishga kirish” fani o‘qitib kelinmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad talabalarni oliy o‘quv yurti hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o‘zlashtirib olishda ko‘maklashish bo‘lib, oqibat-natijada fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlarida yordam berish, o‘zlashtirmaslikning oldini olishdan iboratdir. Xavfsizlik to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa vazifalar ijrosini ta‘minlovchi vosita bu soha bo‘yicha chuqr bilimli va raqobatbardosh kadrlar hisoblanadi.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida ma’lumot

Respublikamizda chuqr bilimli va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta’lim to‘g‘risida» qonun qabul qilingan. Har qanday davrlarda ham oziq –ovqat xavfsizligi insonlar uchun eng birinchi muammo bo‘lib kelgan, shuningdek O‘zbekistonda ham. O‘zbekistonda bu masalaga alohida e’tibor berib kelinadi. Respublika mustaqilligi e’lon qilingan yillardan boshlab don mustaqilligiga e’tibor berilgan va davom etmoqda. Respublikamizda hozirgi paytda 50 foizga yaqin sug‘oriladigan erlarning meliorativ holati yaxshilanishga muhtojligini, bunga e’tibor qaratilmasa, kelajakda bu erlarning unumdorligi keskin pasayishii mumkin. Demak, yuqoridagilardan

ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish erlarning meliorativ holatini yaxshilamasdan amalga oshirish mumkin emas. Bunday ishlarni amalga oshirish melioratsiya va qurilishida qo‘llanilayotgan mashina va mexanizmlar tizimini boshqarishni avtomatlashtirish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish, hamda ishlatish oliv toifali etuk mutaxasis kadrlarni talab etadi. Bunga esa melioratsiya tizimida va qurilishda qo‘llanilayotgan mashina va mexanizmlarni puxta bilish, ulardan maqsadli va samarali foydalanish, kadrlar malakasini oshirish, mashina texnik darajasini yaxshilash orqali erishish mumkin. Odamlarning sihat-salomadligi mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadigan faktor hisoblanadi. Uning asosida ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza masalalari turadi. Ular xaqidagi umumiy tushunchalarni mazkur fan o‘rgatadi. Shular bilan birgalikda o‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, mustaqil ishlashga o‘rganish, kitob o‘qish usullaridan samarali foydalanish, aqliy mehnat gigienasi va madaniyati, ilmiy tadqiqot ishlarining bajarishni bilib olish, o‘qitish jarayonining asosi shakllarini nimalar tashkil etishi, o‘quv mehnati va turmush nafosati, materiallarni o‘zlashtirish mezonlari, talabalar bilimini baholashda reyting tizimi va test usullarining mazmuni kabi muhim masalalar “Yo‘nalishga kirish” fani orqali o‘rganiladi.

3. Kredit-modul tizimi haqida tushuncha

Mamlakatimizda yashaydigan har bir fuqaro yoshi, jinsi, turli millati, irqi, diniy e’tiqodi, xizmat turi, turar joyi, kelib chiqishidan, respublikamizda qancha vaqt yashaganligidan qat’iy nazar oliv o‘quv yurtlariga kirib o‘qishida teng huquqiga ega.


Oliy ta’lim bosqichlari

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta’limidir (ta’lim muddati 4 yil).

Magistratura - aniq mutaxasislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan bakalavriat negizida davom ettiriladigan oliy ta’limdir (ta’lim muddati 2 yil)

Oliy ta’limda kredit-modul tizimi – ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib,

o‘qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi



MODUL – bu, bir nechta fan hamda kurslar o‘rganiladigan o‘quv rejasini bir qismi.

KREDIT (CREDIT) – talabaning alohida ta’lim yo‘nalishi yoki dasturi (kurs) bo‘yicha fanlarni o‘qib o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun sarflangan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligidir.


KREDIT-MODUL TIZIMI joriy qilinsa ta’lim jarayonida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar:

- o‘qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash, talabaning mustaqil o‘qib-

o‘rganishi va o‘z ustida ishlashiga zamin yaratiladi;


- talabalar almashinuvini oshiradi;
- o‘qituvchi va talaba hamkorlikda ishlashi ortadi.

ECTS kredit-modul tizimi



1 kredit = 30 soat

(12 soat nazariy va amaliy ta’lim + 18 soat mustaqil ta’lim)



FAN KODI

"XT1114" - XT – (Xorijiy til) fanning qisqartma nomi;

1 - fanning qaysi kursda o'tilishi;

1 - fanlar bloki (1 - majburiy, 2 - tanlov fanlar);

14 - fanga ajratilgan umumiy kredit miqdori

Nazorat uchun savollar:

1. Yo‘nalishga kirish fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Yo‘nalishga kirish faniga oid qonun va qarorlarini bilasiz?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida ma’lumot bering.
4. Kredit-modul tizimi haqida tushuncha bering.
5. ECTS kredit-modul tizimi nima?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
4. Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
5. M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
6. H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlod”, 2007 yil. – 264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
8. G‘.Yo. Yormatov va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 . – 348 b.

2-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASIDA QO‘LLANILADIGAN ICHKI TARTIBLAR

REJA

1. Oliy ta’lim shakllari
2. Universitet tarixi
3. Talabalarni huquq va majburiyatları

Tayanch tushunchalar: *Oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura, universitet, inisstitut, qonun, huquq, fakultet, kafedra, yo'naliish, ilmiy nashr, darslik, o'quv qo'llanma, monografiya, maqola, tezis.*

Darsning o'quv maqsadi: Oliy ta'lim *shakllar va tuzilmasi hamda universitet tarixi bilan tanishib ichki tartib qoidalarini o'rghanish.*

1. Oliy ta'lim shakllari

Oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimini yakunlovchi bosqichidir. Oliy o'quv yurtlarining bosh vazifasi mutaxassisliklar yo'naliishlari buyicha yuqori malakali chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Mutaxassislar tayyorlashda ularda tashkilotchilik va boshqarish kobiliyatlarini shakllantirishga ham katta e'tibor beriladi.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi, hamda ikki bosqichga ega (bakalavriat va magistratura).

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'naliishlari bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta'limidir (ta'lim muddati 4 yil).

Magistratura - aniq mutaxasislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan bakalavriat negizida davom ettiriladigan oliy ta'limdir (ta'lim muddati 2 yil).

Universitet va Institutlar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Oliy Majlis palatalarining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari va mazkur ustavga amal qiladi.

2. Universitet tarixi

Hozirgi Guliston davlat universiteti 1965- yilda ilk marta ish boshlagan Sirdaryo davlat pedagogika instituti (SDPI) zaminida tashkil etilgan. Ko'pmillatli ko'hna Mirzacho'l hududida o'zbek, qozoq, rus, tojik maktablari mavjud bo'lib, ularda pedagoglar, fan mutaxassislari yetishmasligi o'lkada oliy ta'lim muassasasining tashkil etilishiga asos bo'lgan. Dastlabki yili institutda 1ta fakultet (filologiya)ga 400 nafar talaba qabul qilingan. Jami 5ta kafedra mavjud bo'lgan. Kadrlarga

bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, fakultetda o‘zbek, rus, qozoq tili va adabiyoti, xorijiy tillar bo‘limlari ochilgan. Dastlabki yili institutda 30 nafar o‘qituvchi (shundan 5 nafar fan nomzodi) faoliyat yuritgan.

Birinchi o‘n yillikda institutning poydevori qurilib, yangi fakultetlar : matematika, fizika, jismoniy tarbiya, sirtqi bo‘limlar, kutubxonachilik, boshlang‘ich ta’lim, tarix yo‘nalishlari ochildi. 1976- yilgacha institut xalq xo‘jaligiga va ta’lim tizimiga 3200 mutaxassis tayyorlab bergen. Ilmiy darajasi bor o‘qituvchilar 5 nafardan 39 nafarga yetgan. Anqoboy Quljonov, Xudoyberdi Doniyorovlar institut dargohida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ikkinchi o‘n yillikda dars jarayonlarini texnik vositalar bilan ta’minalashga asosiy e’tibor qaratilgan. Jumladan, telemarkazning ishga tushishi, texnik vositalar orqali dars o‘tish, teleekranlarda namoyish qilish orqali kirish imtihonlari, davlat imtihonlari qabul qilish tajribasi respublikadagina emas, sobiq sho‘ro davlatida ham katta qiziqish uyg‘otgan. Fakultetlar safiga pedagogika, hamda tarix va boshlang‘ich ta’lim uslubiyati fakulteti ham qo‘silgan, biologiya yo‘nalishi bo‘lim sifatida ochilgan. Ilmiy salohiyat ham o‘sgan. 1 ta doktorlik, 25 ta nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan.

Uchinchi o‘n yillik Guliston shahrida hozirgi universitet yangi binosi qurib bitkazilishi bilan yodda qoldi. Yorug‘ va shinam o‘quv xonalari, zamonaviy usulda jihozlangan kabinetlar, laboratoriyalar, kafedralar har qanday taraqqiy topgan xorijiy davlat ham havas qilsa arzigulik holda edi.



Universitetning tashkil topishi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, kadrlar tayyorlash, ta’lim-tarbiya ja-rayonlarini takomillashtirishga katta e’tibor berila boshladi. Milliy hurriyat e’lon qilinganiga yarim yil ham o’tmay, aniqrog‘i 1992- yilning fevralida bir qator viloyatlarda, jumladan, Sirdaryo viloyatida ham universitet tashkil etish haqida qaror qabul qilindi.

Bugungi kunda universitetda beshta: Filologiya, Fizika-matematika, Pedagogika, Tabiatshunoslik va Ijtimoiy-iqtisodiy fakultetlari va 21 ta kafedra faoliyat ko’rsatayapti.

Ayni vaqtida universitet bo‘yicha jami 4 ming 953 nafar talaba bilim olayotgan bo‘lib, ularga 402 nafar professor-o‘qituvchi ta’lim bermoqda. . Professor-o‘qituvchilarning 7 nafari fan doktori va 100 dan ortig‘i fan nomzodi hisoblanadi. Talabalarning chuqur va har tomonlama bilim olishlari uchun zarur moddiy-texnika bazasi ortig‘i bilan yaratilgan. Axborot resurs markazining ma’lumotlar bazasida 4 mingdan ortiq elektron kitob va o‘quv qo‘llanmalari mavjud. Bundan tashqari talabalar universitet veb sahifasidan barcha kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega. Universitet veb sahifasiga darsliklar, ma’ruza matnlari, o‘quv uslubiy qo‘llanmalar va boshqa ma’lumotlar joylashtirilgan.

Universitetda dunyoning nufuzli ta’lim dargohlaridagi kabi laboratoriyalarning rivojlanishiga ham katta e’tibor berilmoqda. Mavjud laboratoriyalarning umumiy maydoni 2008 kvadrat metrni tashkil etadi. Bu har bir talabaga 4.5 kvadrat metr to‘g‘ri kelishini bildiradi. Hammasi bo‘lib 25 ta o‘quv xonasiga laboratoriya sifatida jihozlangan, 1 ta o‘quv xonasiga lingafon tizimi joriy etilgan.

Talabalarning Internet tarmog‘idan foydalanishi va universitet doirasida lokal elektron kutubxonani tatbiq etish uchun keng masshtabli ishlar amalga oshirilmoqda. Universitetda 30 ta kompyuter sinfi bo‘lib, ularda 700 dan ortiq kompyuter mavjud, shundan 400 tasi internet tarmog‘iga ulangan. Bu har 7 nafar talabaga 1 ta kompyuter to‘g‘ri kelishini ko’rsatadi.

Ilmiy salohiyati

Har yili universitet olimlari tomonidan o‘rta hisobda 250 dan ortiq ilmiy maqola (shulardan 30 tasi xorijda), 5 ta monografiya, 4 ta o‘quv qo‘llanmasi va

512 ta uslubiy qo‘llanma chop etiladi . Bu jihatdan Guliston davlat universitetining O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi mavqeい yomon emas. Mazkur holat universitetda ilmiy–tadqiqot ishlarining keng doirada yo‘lga qo‘yilganligi bilan izohlanadi. Universitetda faoliyat yuritayotgan ilmiy bo‘lim, marketing bo‘limi, xalqaro aloqalar bo‘limi va boshqa turdagи bo‘limlar ham ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish, xalqaro tajribani o‘rganish kabi maqsadlarga xizmat qilayotir. Guliston davlat universitetning shakllanishida Tempus va ITEC tomonidan taqdim etilgan xalqaro grantlar muhim o‘ringa ega bo‘ldi. Bugungi kunda universitet IWMI, ICARDA va JIRCA kabi xalqaro institut va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. Universitet MDH mamlakatlari OTMlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, bularga Kemerovo davlat universiteti, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Stavropol davlat universiteti, Saratov davlat universiteti, Novosibirsk davlat universitetini misol sifatida keltirish mumkin. Bundan tashqari har yili 3-4 nafar talaba AQSh, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Malayziya va Singapur kabi mamlakatlarga o‘qish va stajirovka o‘tash uchun yuboriladi.

Universitetda ta’lim tizimini takomillashtirish jarayoni jadal sur’atlarda davom etirilyapti. Ta’lim sifatini oshirishda yangi tashkil etilgan “Pedagogik innovatsiyalar markazi”, “Mintaqaviy tadqiqotlar markazi” hamda “Yosh olimlar kengashi” va boshqa markazlarning hissasi katta bo‘lmoqda. Mazkur markazlar faoliyati yosh olimlarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishigagina xizmat qilib qolmay, nafaqat o‘quv yurtida, balki Respublika miqyosida ham ma’qullanmoqda.

Universitet olimlari Sirdaryo viloyatining sho‘rlangan yerlarini yaxshilash va ti-klash bo‘yicha keng miqyoshi va samarali ishlar olib borishmoqda. Buning dalili sifatida universitetda bug‘doyning “Sayxun”, “Boyovut -1”, “Hasan-Orif” va “Gul DU” navlari yaratilganligini ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari sirdaryolik olimlar tajribasidan o‘tgan “Sirdaryo-1” va ”Sirdaryo-2” kabi yangi g‘o‘za navlari ham yaqin kelajakda Sirdaryo viloyati dalalarida ekiladi. Universitetda “Genbank” o‘simligini yetishtirish bo‘yicha ham loyiha ishlab chiqilgan. Universitet ekspertlarining fikricha, ushbu loyiha asosida dehqonchilik yo‘lga qo‘ysa, Sirdaryo

viloyatining kuchli sho‘rlangan tuproqli sharoitida bioxilma-xillikni yaxshilashga yangi-yangi istiqbollar ochilishi mumkin. Ushbu o‘simlikni yaratish bo‘yicha universitetda yangi biotexnologik laboratoriya tashkil etilgan. Texnologik jihatdan yuqori potentsialga ega bu laboratoriyani yaratishdan maqsad o‘simlikni hujayra darajasida yaratish va sho‘rga chidamli o‘simliklarning yangi turlarini ishlab chiqish va rayonlashtirishdir.

Ayni kunlarda universitetda 8 ta fakultet, 27 kafedra 450 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatmoqda. Universitetda so‘ngi to‘rt yilda 2 ta yangi fakultet, 6 ta yangi kafedra, 10 dan ortiq yangi yo‘nalishlar ochildi. Shuningdek, 10 ta magistratura yo‘nalishlari tashkil etildi. Universitetning kunduzgi, sirtqi, kechki bo‘limlarida 13 770 nafar bakalavr va magistrlar tahsil olmoqdalar. So‘ngi 3 yilda 32 nafar dissertatsiya himoyalari bo‘lib o‘tdi.

3.Talabalarining huquq va majburiyatları

Fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuklariga mos keluvchi bilimlar olish; universitet axborot pecypc markazida mavjud bo‘lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta’lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish; bepul maslaxatlar va tavsiyalar olish auditoriyalar, ta’lim jarayoniga oid vositalardan o‘rnatilgan tartibda bepul foydalanish; ta’lim jarayoni samaradorligi va ta’lim sifatini oshirish yuzasidan o‘z taklif—muloxazalarini, fikrlarini belgilangan tartibda ta’lim muassasasi, dekanat va kafedra raxbariyatiga bildirishga va ularni ko‘rib chiqilishini talab qilish; universitet va fakultet miqyosida o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirot etish; ilmiy tadqiqot ishlarida va ilmiy konferentsiyalarda qatnashishga va ularning natijalarini nashr etishga va bu sara axborotlar berish; Talaba universitetdan chetlashtirilganda, unga shaxsiy xujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma’lumotnoma topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig‘ma jildda saqlanadi.

Universitetdan o‘z xoxishi yoki uzrli sabablarga ko‘ra chetlashtirilgan talaba O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan talabalar

o‘qishini qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o‘qishga tiklanish huquqiga ega.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Oliy ta’lim nechta bosqichdan iborat?
- 2.GulDU qachon tashkil topgan?
- 3.Universitet faoliyati va ta’lim yo‘nalishlari xaqida ma’lumot bering?
- 4.Universitet qaysi davlatlar bilan xalqaro hamkorlik qilyapti?
5. Talabalar qanday huquqlarga ega?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.

3-MAVZU: YO‘NALISH, SOHA VA OLIY TA’LIM XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Yo‘nalishga kirish fanining bosh fanlar bilan o‘zoro bog‘liqligi.
2. Soha va oliy ta’limdagi xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: mehnat muhofazasi, xavfsizlik, sanoatligi, xayot faoliyati, yang‘in xavsizligi, favqulotda vaziyatlar, birlamchi tibbiy yordam, bin ova inshoatlar, fuqoro muhofazasi, radatsiya xavfsizligi, amalyot, kasb kassaligi, zararli moddalar, texnosfera.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalaga yo‘nalish soha va oliy ta’limdagi jarayonlar bo‘yicha bilim malaka va ko‘nikma hosil qilishdan iborat.

1. Yo‘nalishga kirish fanining bosh fanlar bilan o‘zoro bog‘liqligi.

Yo‘nalishga kirish: Talabalarni universitet sharoiti va talablariga moslashishi, oliy o‘quv yurtlarda qo‘llaniladigan asosiy qoidalarni o‘rganishiga moslashtiradi. O‘quv jarayonini tashkil qilinishi to‘g‘risida tasavvur hosil qilishni qaratadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi: Hayot faoliyati xavfsizligini ta’minalash. Hayot

faoliyati xavfsizligi haqida tushuncha. Hayot faoliyati xavfsizligi tarkibiy qismlari va ularning tekshirish ob'ektlari. Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari, ularning mazmuni. Xavflar, ularning tasnifi. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari, mazmuni. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimi. Faoliyat xavfsizligi qonun-qoidalarga amal qilinishini nazorat qilish tizimi, qoida va talablarni buzganda tortiladigan javobgarliklar. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimi, xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarini rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash. Ishlovchilarni faoliyat xavfsizligi talablariga amal qilishga o'qitish tizimi. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayoni vaqtida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari, ularning kelib chiqish sabablari, tahlil qilish, oldini olish tadbirlari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Inson mehnat faoliyatining fiziologik-gigienik asoslari. Inson mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy omillar, ularning turlari, mohiyati va himoyalanish usullari. Mehnatning fiziologik asoslari. Mehnat jarayonida ishlovchining ishslash qobiliyatini pasayishi va zo'riqishi ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigienasi me'yorlari, mazmuni. Texnosferada havo muhitining ko'rsatkichlari, ularning mehnat faoliyatiga ta'siri, ishlab chiqarish mikroiqlimining gigienik me'yorlari, ularning inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarishda mo'tadil ob-havo sharoitini yaratish. Texnosfera havosi tarkibidagi ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar. Ishlab chiqarish jarayonlarida zararli omillar va ulardan himoyalanish tadbirlari. Ishlab chiqarishda zararli moddalar va ulardan himoyalanish usullari. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish, ularning turlari, umumiy va mahalliy shamollatishning mohiyati. Ishlab chiqarishda yoritish va uni me'yorlari. Tabiiy va sun'iy yoritish. Yoritishga qo'yiladigan sanitar-gigienik talablar. Yoritish vositalari.

Ishlab chiqarishda shovqin va titrash. Ularning inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish sabablari va manbalari. Shovqin va titrashni tasniflash, muhofaza chora-tadbirlarini belgilash.

Ultra va infratovushlarning inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Himoyalanish vositalari.

Ishlab chiqarishda zararli nurlanishlar, ularning xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Ularni tasniflash va me'yorlash.

Favqulodda vaziyatlar: Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Fuqaro muhofazasining maqsadi, vazifalari, kuch va vositalari, uning iqtisodiyot tarmoqlarida tashkil etish tartiblari. O'zbekistonda favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etilishi hamda favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimlari (FVDT) to'g'risidagi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mohiyati.

- **Yong'in xavfsizligi:** Yong'in ofati, uning kelib chiqish sabablari, omillari, turlari, yonish fazalari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyot tarmoqlari binolari, inshootlari va qurilish materiallarining yong'inga qarshi bardoshlik darajalari. Yong'inga qarshi kurashish xizmati. Yong'inni o'chirish usullari va vositalari, turlari, xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar.

Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari: Respublikada halokatlar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari. Jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartib va qoidalari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish)ni o'tkazish qoidasi. Tomirlardan qon ketishi, turlari, vaqtincha to'xtatish usullari. Suyak singanda ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy yordam.

Bino va inshootlar xavfsizligi: Metall konstruktsiyalari. Korxonalarda metall konstruktsiyalar ishlataladigan sohalar. Metall konstruktsiyalarida ishlataladigan materialarni asosiy xususiyatlari; umumiy xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, molekulyar strukturasini tuzilish.

Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi: Favqulodda vaziyatlarning tasnifi va tavsifi. Fuqaro muhofazasining maqsadi, vazifalari, kuch va vositalari, uning iqtisodiyot tarmoqlarida tashkil etish tartiblari. O'zbekistonda Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish hamda favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimlari (FVDT) to'g'risidagi meyoriy-xuquqiy xuj-

jatlarning mohiyati.

Mehnat muhofazasi: Mehnat xavfsizligi muammolari. “Inson - mashina - ishlab chiqarish” tizimi, uning xususiyatlari. Tizim elementlarining xususiyatlari va ularga qo‘yiladigan xavfsizlik talablari, hamda ularni muqobillashtirish.

Sanoat xavfsizligi: Ishlab chiqarishda jarohatlanishlar. Mehnat muhofazasining umumiy iqtisodiy masalalari. Ish sharoitlarini va mehnat muhofazasi holatini yaxshilash tadbirlarining ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati. Tadbirlar samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari. Ish sharoiti va mehnat muhofazasi tadbirlarining ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash usullari.

Radiatsiya xavfsizligi: Radioaktivlik va ionlashtiruvchi nurlanishlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Atom va atom yadrosi to‘g‘risida umumiy tushunchalar. Radioaktiv nuklidlar. Radioaktiv (yadroviy) parchalanish. Ionlashtiruvchi nurlanishlar. Radioaktiv parchalanish qonuni. Yadroviy aylanishlar. Ionlashtiruvchi nurlanishlarning tavsifi. Zaryadlangan zarrachalarning moddada ushlanib qolinishi.

Yong‘in xavfsizligi: Yong‘inlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yong‘in xavfsizligini ta’minalashning huquqiy - me’yoriy asoslari. Yong‘in xavfsizligini ta’minalash sohasida davlat siyosati. Yong‘in xavfsizligini ta’minalash qoidalarini ishlab chiqish, standart loyihalari, texnik shartlar va boshqa me’yor-amaliyot hujjatlarini ko‘rib chiqish tartibi.

Ma’ruza: butun o‘quv jarayonini muayyan maqsadga yo‘naltirish, mantiqan izchil, aniq, ravshan, ishonarli qilib bayon etishning, talabalarni mavzu bilan puxta tanishtirishning, ularning bilimiga bo‘lgan qiziqishini oshirishning, mustaqil ishlarni boshqarishning yo‘nalishlarini, yo‘lini belgilab beruvchi, mazkur fanni o‘qitadigan o‘qituvchi bilan talabaning o‘zaro aloqada va munosabatda bo‘lishining asosiy shakllardan biridir

Talaba har bir fandan:

- bo‘ladigan lektsiyalarga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rishi;
- lektsiyani yozish uchun zarur bo‘lgan barcha o‘quv qurollarini tayyorlab kelishi;
- diqqat e’tiborni to‘plashi;

- o‘qituvchi bayon qilayotgan mavzuni shoshilmasdan yodda saqlab, yozayotganda shartli qisqartirish belgilaridan mohirona foydalanishi;
- matnni bulg‘amasdan, aniq yozib borishi;
- ulgurmagan so‘zlar uchun joy tashlab ketishi lozim.

Seminar: bu o‘qituvchilarni rahbarligida turli fanlardan muntazam ravishda uyushtiriladigan o‘quv-nazariy mashg‘ulotlarning shakllaridan biri bo‘lib, fanni chuqur o‘zlashtirishga, uning uslublarini puxta bilib olishga, fanga nisbatan talabalarning qiziqishini oshirishga, bilish va fikrlash qobiliyatini o‘stirishga, o‘z ustida mustaqil ishslash malakasini rivojlantirishga, birinchi manbalar ustida ishslash usullari bilan tekshirishga, ilmiy-tadqiqot usullaridan xabardor qilishga qaratil-gandir. “Seminar” so‘zi lotincha bo‘lib, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish maktabi degan ma’noni anglatadi. Seminar mashg‘ulotlari muayyan predmetlar, fanlar yoki ayrim mavzular va fan bo‘limlarini chuqurroq o‘rganish maqsadida o‘tkaziladi.

Malaka amaliyoti:

O‘quv-tanishuv amaliyoti

Talabalar “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlaydilar, kelgusida maxsus fanlarni o‘zlashtirish va ular bo‘yicha chuqur bilim olish uchun ish faoliyatini ta’minalashda qatnashuvchi asosiy korxonalarining qurilmalarini, uskunalarini va ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini o‘rganish.

Ishlab chiqarish amaliyoti:

Ta’limga bog‘liq ravishda nazariy bilimlarni mustaxkamlash va chuqurlashtirish, kasb ko‘nikmalarini hosil qilish va mukammallashtirish, yo‘nalishdagi eng ilg‘or mehnat faoliyati shakl va usullari bilan tanishish hamda aniq lavozimda malaka oshirish uchun xizmat qiladi.

Bitiruv oldi amaliyoti:

Bitiruvchini bevosita standart talablariga muvofiq mustaqil ishslashga tayyor-lash; o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash; jamoada tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish bo‘yicha tajriba hosil qilish; korxona muassasalarida bitiruv ishini bajarish uchun materiallar to‘plash.

Bitiruv malakaviy ishi:

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari sohaning rivojlanish istiqboli va fan, ta’lim, texnika, texnologiya, iqtisodiyotdagi zamonaviy yutuqlar hamda kadrlar buyurtmachilarining talablarini hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasasining bakkalavrlar tayyorlovchi kafedrasи tomonidan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining mavzulari texnologik, konstruktorlik yoki ilmiytadqiqot yo‘nalishida bo‘lishi mumkin

Bitiruv malakaviy ishi topshirig‘i:

- Bitiruv malakaviy ishi topshirig‘i, odatda talabalarga uchunchi kurs tuga-ganidan keyin beriladi. Bitiruv malakaviy ish umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘zlashtirganlik darajasi bo‘yicha to‘rtinchi kursda, shuningdek uning bajarilishi ta’lim standarti tomonidan belgilangan vaqt davomida bajariladi.

Nazorat savollari:

- 1.Hayot faoliyati xavfsizligini qanday tushunasiz?
- 2.Xavfsizlik atamasiga tushuncha bering?
- 3.Hayot faoliyati xavfsizligining huquqi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- 4.Radioaktiv nurlanishlarning odam organizmiga ta’siri xaqida nimalarni aytish mumkin?
- 5.Mehnat jarayoni sharoitini shakllantiruvchi omillar bo‘yicha nimalarni bilasiz?
- 6.Avariylar turlari (iqtisodiyot ob’ektlarida, transport sistemalarida, va h.k.) ularni kelib chiqish sabablari aytib bering.
- 7.Yong‘inlar to‘g‘risida umumiyl ma’lumotlar xaqida nimalarni aytish mumkin?
- 8.Favqulotda vaziyatlar degandanimalarni tushinish mumkin?
- 9.Amaliyotlarni ta’lim jarayonidagi axamiyati to‘g‘risida nima deyish mumkin?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.

4-MAVZU: MEHNATNI MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI MUTAXASSIS FAOLIYATINING MAZMUNI

Reja:

1. Mehnat muhofazasini me'yoriy ta'minlash.
2. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash.

Tayanch tushunchalar: vazirliklar, idoralar, me'yoriy xujjatlar, zararli va zaxarli changlar, federatsiya, jarohatlanishlar, mutaxassislar.

Darsning o'quv maqsadi: Ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatchi xodimlarni mehnatini muxofaza qilish me'yoriy xujjatlarini o'rghanish.

1. Mehnat muhofazasini me'yoriy ta'minlash – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi bilan birgalikda mehnatni, atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan standartlari, qoida va me'yorlarini ishlab chiqish va qabul qilish yo'li bilan ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan talablar darajasini belgilaydi, shuningdek kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar, kasb kasalliklarining oldini olishga oid respublikaning aniq maqsadga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqadi va moliyaviy ta'minlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi.



2. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash.

O‘zbekiston Respublikasida davlat va korxonalar oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida korxonalarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlarida ishlash uchun mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydilar.

Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari xalq xo‘jaligi turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalar va o‘quvchilar mehnatni muhofaza qilish kursini albatta o‘tishlarini tashkil etishlari kerak.



Vazirliklar, idoralar, konsernlar, assotsiatsiyalar va boshqa xo‘jalik boshqaruvi idoralari mehnatni muhofaza qilish tizimida ishlash uchun mutaxassislarning qayta ixtisoslashuvini ta’minlaydilar.



Korxonalarda mehnatning sog‘lom va xavfsiz sharoitlarini ta’minlash-
Korxonadagi, har bir ish joyidagi mehnat sharoiti mehnatni muhofaza qilish standartlari, qoida va me’yorlari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

Korxonada mehnatning sog‘lom va xavfsiz sharoitlarini ta’minlash, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ustidan nazorat o‘rnatalishini tashkil etish va nazoratning natijalari to‘g‘risida mehnat jamoalarini o‘z vaqtida xabardor qilish ma’muriyat zimmasiga yuklanadi.

Mehnat sharoiti zararli va xavfli ishlab chiqarishlarda, shuningdek o‘ta noxush haroratlari yoki ifloslanishlar bilan bog‘liq sharoitlarda bajariladigan ishlarda mehnat qiluvchilarga davlat boshqaruvi idoralari belgilagan me’yorlarda maxsus kiyim, poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari, yuvish va dezinfeksiyalash vositalari, sut yoki unga tenglashadigan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, parhez ovqat bepul beriladi. Korxonada mehnatning sog‘lom va xavfsiz sharoitlarini ta’minlash yuzasidan ma’muriyat bilan xodimlarning o‘zaro majburiyatlari jamoa shartnomasi yoki bitimida ko‘zda tutiladi.

XAVFSIZLIK TEXNIKASI MUXANDISINING VAZIFALARI

Har bir sanoat korxonasi o‘z masshtabiga asosan mehnatni muhofaza qilish bo‘limini yoki xavfsizlik texnikasi muhandisi lavozimidagi shtat birligini tashkil qilish shart. Uning asosiy vazifasi sanoat korxonasida mehnat qilayotgan ishchi va muhandis-texnik xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoida va talablarini qanday bajarayotganliklarini nazorat qilishdan iborat.

Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish doirasiga quyidagilar kiradi:

1.Sex va bo‘lim boshliqlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish qonunlarini va boshqaruvchi tashkilotlarning xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi norma hamda qoidalari bajarish to‘g‘risidagi qarorlarning bajarilishini kuzatib boradi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish davlat tashkilotlari ko‘rsatmalarini to‘g‘ri bajarilayotganligini tekshiradi.

2.Sanoat korxonalaridagi havo muhitining toza bo‘lishiga e’tibor beradi va shamollatish tizimlarining to‘g‘ri ishlatilayotganligini kuzatib boradi.

3.Sanoatga zamонавиъ xavfsizlik texnikasi vositalarini joriy qilish choralarini

ko‘radi.

4.Sex va bo‘lim boshliqlari tomonidan “Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish” haqidagi qarorning bajarilayotganligini kuzatib boradi.

5.Sanoat korxonalari ishchi va xizmatchilarini belgilangan tartibda maxsus oziq-ovqat, kiyim-bosh, oyoq kiyimi, sut mahsulotlari, sovun va shaxsiy muhofaza vositalari bilan ta’minlaydi.

6.Sanoat korxonalarining hamma bo‘limlarida xavfsizlik texnikasi tavsiyano-masini o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Xavfsizlik texnikasi muhandisining asosiy e’tibor berishi zarur bo‘lgan ob’ektlaridan biri texnik yechimlarning loyiha hujjatlarida to‘g‘ri hal qilinishini nazorat qilishdan iborat.

Xavfsizlik texnikasi muhandisi nazoratchi sifatida sanoat korxonalarida tuzilgan har xil komissiyalar a’zosi sifatida qatnashishi kerak.

Xavfsizlik texnikasi muhandisi ishchilar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishchilarni o‘qitadi, ularni yo‘riqnomalardan o‘tkazadi.

Mehnatni muhofaza qilish mutaxassisini sifatida xavfsizlik texnikasi muhandisi yangi ishga kirayotganlarni kirish yo‘riqnomasidan o‘tkazadi va ularga mehnatni muhofaza qilish qoida va normalarini tushuntiradi

Mehnat qilayotgan ishchining vazifasi va bajaradigan ishi mutaxassisligi bo‘yicha texnika xavfsizligi me’yorlari darajasida bo‘lishi va uni buzgan shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik tartibida ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar va ma’lum miqdorda jarima to‘lash belgilanadi.

Jinoiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qoidalarining qo‘pol buzilishi natijasida og‘ir jarohatlanish sodir bo‘lsa, yoki bir necha kishi og‘ir jarohatlansa, yoki baxtsiz hodisa o‘lim bilan tugasa, bu holatda rahbar xodim jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tartibini ayting?
2. Korxonalarda mehnatning sog‘lom va xavfsiz sharoitlarini ta’minlash nima?

3. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilishni qoidalarini izoxlang?
4. Yo‘riqnomalar kimlarga o‘tkaziladi

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
- 2.T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, O‘zbekiston, 2017.-104b.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-56b.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 6.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 7.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 8.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
9. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. – T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
10. G‘.Yo. Yormatov va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 . – 348 b.

**5-MAVZU: TEXNOSFERA HAQIDA MA’LUMOT. O‘ZBEKISTONDA
TEXNOSFERA MUAMMOLARI.**

Reja:

1. Texnosfera haqida ma’lumot
- 2.Texnosfera davomiyligi.
- 3.O‘zbekistonda texnosfera muammolari.
4. XX asrda texnosferani o‘sish dinamikasi.
5. Ishlab chiqarishda zararli va xavli omillar klassifikatsiyasi .

Tayanch tushunchalar: *inson, atrof-muhit, mayishi chiqindi, energiya oqimi,*

informatsiya, texnogen omillar, texnik vositalar.

Darsning o‘quv maqsadi: Texnosferani buzilish oqibatida insonlar salomatligiga ta’sir etishi haqida biladi va xavflarga qarshi kurashish chor-tadbirlari bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘ladilar.

1.Texnosfera haqida ma’lumot. Texnosfera - bu odamlar tomonidan texnik vositalarning bevosita yoki bilvosita ta’siri natijasida o‘zgartirilgan biosferaning maydoni hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, texnosfera doimiy ravishda kengayib boradigan tushuncha bo‘lib, Yer yuzining yangi sun’iy qatlamiga berilgan nom sifatida yuritiladi. Bunga misol tariqasida, yodgorliklar, fabrika, ayroport, ko‘cha va ko‘priklar, kitob, kiyim, mashina, kompyuter va uyali telefon kabi jismlar, ya’ni, odamlar tomonidan yaratilgan barcha narsalardan tashkil topgan murakkab tizimdir.



Yer sathining ushbu sun’iy qatlami, o‘z navbatida, insonning sanoat, konchilik va maishiy inson faoliyati natijasida hosil bo‘lgan barcha chiqindilarni, axlatlarni va qoldiqlarni o‘z ichiga oladi. Demak, umuman olganda, biosferaga texnikaning bevosita yoki bilvosita ta’siri oshgani sari, texnosfera ham kengayib boradi.

Texnosferaning kelib chiqish tarixiga qaraydigan bo‘lsak, ilk bora bu atama 2014 yilda Dyuk Universitetining geologiya va fuqarolik atrof-muhit muhandisligi bo‘yicha mutaxassisi, professor Piter Xaf tomonidan kiritilgan. Xaf uchun texnosfera, sayyoramizning yangi qatlami mavjudligini belgilaydigan yangi paydo bo‘layotgan global paradigmani tashkil etadi.

Texnosferani tashkil etuvchi asosiy jihatlardan biri bu inson kapitalidir. Inson kapitali deganda, insoniyat jamiyat taraqqiyoti va farovonligiga hissa qo'shadigan, ishonch va o'zaro munosabatlarga asoslangan tarmoqlar, normalar va tashkilotlar majmuasi tushuniladi.

Ijtimoiy va inson kapitali - bu odamlar birgalikda harakat qilish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun kelishilgan holda va o'zaro manfaat uchun birlashish qobiliyatidir.

Aynan inson kapitali va odamlarning hayot sifatini yaxshilashga bo'lgan qiziqish tufayli butun jamiyat yangi narsalar va bo'shliqlarni barpo etadi va loyihalaydi.

Texnosferaning antropotsen bilan aloqasi

2. Texnosfera davomiyligi. Asrlar davomida insonning yashash tarzi asta sekin o'zgarib borgan, lekin bu o'zgarishlar insonga negativ ta'sir etmagan. Shu tarzda XIX asrni o'rtalarigacha davom etilgan. Asosan XX asrdan texnosferani yuqori templar bilan rivojlanishi ko'zatilmokda. Rivojlanish ikkita xar xil diametral qarama-qarshilik natijalarga olib kelmoqda. Bir tarafdan ilm-fanda va sanoatda yuqori natijalarga erishilgan bo'lsa, bu esa xayot faoliyotida pozitiv ta'sirga ega bo'ldi. Ikkinci tarafdan – inson faoliyotiga oldin kuzatilinmagan potintsial xavflar, inson salomatligiga salbiy ta'siri mavjud bo'ldi. Ko'proq darajada ekosistema Evropa, Shimoliy Amerika va Yaponiyada buzulgan. Bu erda faqatgina kichik maydonchalarda ekosistema saqlanib qoltingan. Texnosfera - inson tsivilizatsiyasini surriyoti - sekingina o'zi bilan biosferani to'ldiryapti.

3. O'zbekistonda texnosfera muammolari. Texnosferani inson va texnika taraqqiyotining klasteri sifatida ko'rish mumkin bo'lsada, Yer yuzasining ushbu qatlami biosfera kabi yetarli darajada o'z-o'zini qayta ishlash tizimini amalga oshirmaydi. Shuning uchun texnosfera atrof-muhitni buzmoqda va bugungi kunda unda insonlar sonini va ularning texnik yaratilishlarini global darajada tez ko'payishining qoldiqlari mavjud.



Buyuk Britaniyaning Lester universiteti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, agar barcha shahar va qishloq tuzilmalari, shuningdek, yaratilgan transport vositalari, mashinalar, elektron qurilmalar, mahsulotlar, kiyim-kechaklar va ularning chiqindilari qo'shilsa, umumiyligi og'irlik olinadi 30 trillion tonna. Va bu taxminan texnosferaning og'irligi. Bundan tashqari, agar texnosferani tashkil etuvchi barcha komponentlar sayyoramizning butun yuzasida bir tekis taqsimlangan bo'lsa, biz kvadrat metr uchun 50 kilogramm haqida gapirgan bo'lardik.

Atrof-muhit deganda havo, suv, yer, o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ekt sifatida qaraladi. Atmosfera havosini tozaligini yaxshilash, uni saqlab qolish maqsadida inson tomonidan ko'plab ishlar nafaqat Respublika, hatto butun dunyoda bajarilmoqda, bu bo'yicha xalqaro tashkilotlar ham faoliyat ko'rsatmoqda, biologik, ximyaviy va fizikaviy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biologik tadbirlarga biologik dunyoni boyitish ishlari, ya'ni daraxtzor-o'rmonlar tashkil qilish, mavjud o'rnlarni kengaytirish, ularni saqlab qolish ishlari kiradi. Atmosfera havosi tarkibidagi changni (50 tonna/gektar) ushlab qolishda ko'p yillik daraxtlarning o'rni kattadir. Ishlab chiqarish jarayonlarida ajralayotgan zararli gazlarni kuchsizlantirish ishlari olib borilmoqda. Masalan Respublikamizdagi zararli moddalar ajratadigan korxonalarda 70 % gacha zararlantirishga erishilgan.

Atmosfera havosining ifloslanishi yuqori darajada bo'lган shaharlar, bularga bir qator zaharli eng yuqori kontsentratsiyasi REM (Ruxsat etilish miqdori) dan 2-5 marta ko'p bo'ladi. Bularga Toshkent, sanoat shaharlari: Olmaliq (formaldegid bo'yicha REM 6 martta, mis bo'yicha 5 martta, qo'rg'oshin bo'yicha 2 martta, margumush va ftor bo'yicha REM dan 3 martta ko'p), Angren (chang va azot oksidlari REMdan 3 martta ko'p), Oxongron (azot oksidlari bo'yicha REMdan 11 martta, qo'rg'oshin bo'yicha REM 3 marta ko'p), Chirchiq (zaharli gazlar bo'yicha REMdan 6-10 martta, tsement changi REM 6 martta, volfram birikmasi bo'yicha 5 marta ko'p, kobalt birikmasi REMdan 3 martta ko'p), Begobod (chang bo'yicha REM dan 28 martta, binzopiren REMdan 17 martta, vannadiy 5 oksidi REM dan 5 martta ko'p), Guliston (mineral va organik changar bo'yicha REM dan 5-2 martta ko'p).

Respublikadagi sanoat korxonalari tomonidan atmosferaga 150 dan ortiq ifloslovchi birikmalar chiqaradi. Assosiyalari –oltingugurt ko'sh oksidi, uglevodorod va qattiq birtkmalar. Atmosferaga chiqadigan birikmalarning 90 % ga yaqin asosiy ekologik "iflos" ishlab chiqarish joylashgan Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Buhoro, Novoiy va Sirdaryo viloyatining korxonalari hissasiga to'g'ri keladi. Sanoat ishlab chiqarishning atmosfera havosiga ifloslantirishdagi ulishi

quyidagicha: yoqilg‘i 40 %, elektro energetika 34.1 %, metallurgiya 16.5 %, qurilish industriyasi 3.8 %, kimyo sanoati 3 %, kommunal hizmat 3.6 % ni tashkil etadi, boshqa korhonalar xissasi 7.4 % dan oshmaydi.

Inson faoliyati o‘simlik va hayvonot dunyosiga ham aksariyat zararli ta’sir etmoqda. Suv inshoatlaridagi baliqlarning, quruqlikdagi hayvonlarning kamayib, hatto yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Suv sifatining yomonlashuvi, yerlarning yomonlashuvi natijasida ayrim tur daraxtlar yo‘qolib ketayapdi. Chorvachilikni kengaytirish natijasida yaylovlardagi o‘simliklar ham kamayib bormoqda.

Inson extiyoji uchun transport sohasi ancha rivojlanadi. Ulardan ko‘tarilgan chang va zaharli gazlar tabiatda bo‘ladigan fotosintez jarayonini sustlashishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli ekinlar hosildorligi imkoniyatidan ancha kam. Umuman, xulosa sifatida inson o‘z faoliyati bilan o‘ziga o‘zi kafan yaratish jarayonini takror-takror o‘ylab faoliyatini o‘zgartirsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

4. XX asrda texnosferani o‘sish dinamikasi.

Ko‘rsatkichlar	XX asrni boshi	XX asrni oxiri	O‘sish darajasi marta
Валовой мировой продукт, млрд. \$ США за год****	60	20 000	333.3
Energo-istimol quvatti, MVt	1 000000	10 000 000	10
Axoli soni, mlrd. odam	1	6	6
Chuchuk suvni istimol qilish, kub. km bir yilga	360	4 000	11.1
Yilik biosferada biomassaning o‘sish foizi, %	1	40	40

Hozirgi vaqtida inson - tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. Shu xavf-xatarlar natijasida juda ko‘p insonlar xayotdan ko‘z yumadilar (Armeniyadagi Tog‘li Qorabox) yer qimirlash, Chernobil AES halokati, Admiral Naximov paraxodining cho‘kishi, Temir yo‘lida portlash, Arzamas va Sverdlovskda, Chelyabinskiy Ufa yul uchastkasida va h.k. Shuning natijasida 3150 odam halok bo‘ldi, 20000 odam invalid buldi va 200000 odam kasallandi.

Ekosistemani buzilgan maydonlari

Mintaqa	Xudud,%	
	Buzulmagan	To‘liq buzilgan
Butun quruqlik	51,9	36,3
Evropa	15,6	64,9
Aziya	43,5	29,5
Afrika	48,9	15,4
Severnaya Amerika	56,3	29,4
Yujnaya Amerika	62,5	15,1
Avstraliya	62,3	12,0
Antarktida	100,0	0,0

Zamonaviy industrial jamiyatda inson atrof-muhit komponentlari (biosfera, texnosfera va ijtimoiy muhit) bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Ya’ni inson tabiiy atrof-muhitga uzlusiz ta’sir etsa, o‘z navbatida biosfera va insonning ehtiyojlaridan kelib chiqib uning uzlusiz jismoniy va aqliy faoliyatining mahsuli bo‘lgan texnosfera va ijtimoiy muhit ham insonga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki sirtdan doimiy ta’sir etadi.

Yuqorida qayd etilganlar asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Zamonaviy inson uni o‘rab turgan atrof-muhitning tashkil etuvchilari ya’ni, tabiiy, texnogen (texnosfera) va ijtimoiy muhit bilan uzlusiz o‘zaro ta’sirda bo‘ladi;
2. XIX asr oxiridan boshlab va XX asr davomida texnosfera va ijtimoiy muhit uzlusiz rivojlanmoqda, bunga ushbu sohada inson faoliyati orqali o‘zgartirilgan ulushlarni oshib borayotganligi isbotdir;

Zamonaviy hayotda insonlarning ijtimoiy mavqelarini yuksalishi bilan birga ularning tinchligiga, sog‘ligiga va mehnati xavfsizligiga xavf soladigan omillar soni ham ortib bormoqda. Ma’lum sharoitda ularning insonlarning ruhiy holatiga, organizmi sog‘ligiga salbiy ta’sirini ko‘rsatishi hammaga ma’lum. Shu sababli insonlarni nafaqat ularning aqliy yoki jismoniy mehnat faoliyati davomida balki, yashash joyida, yo‘lda va barcha holatlarda xavfsizligini, yaxshi kayfiyatini,

mehnat qobiliyati va ish unumdorligini taminlash, sog‘lig‘i haqida qayg‘urish masalalarini ijobiy hal etish juda dolzarb masalalardan biridir.

Hayot faoliyat xavfsizligi (HFX) ishlab chiqarish va noishlab chiqarish muhitida insonni atrof muhitga ta’sirini hisobga olgan holda xavfsizlikni taminlashga yo‘naltirilgan bilimlar sistemasidir. Hayot faoliyat xavfsizligining maqsadi ishlab chiqarishda avariyasiz holatga erishish, jarohatlanishni oldini olish, insonlar sog‘ligini saqlash, mehnat qobiliyatini oshirish, mehnat sifatini oshirish hisoblanadi. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ikki masalani echish lozim bo‘ladi:

«Inson - atrof muhit» sistemasini har xil komponentlari energiya va informatsiyalarini xarakterli massalar oqimini quyida keltiramiz:

Tabiiy muhitning asosiy oqimlari.

- quyosh nurlanishi, yulduz va planetalar nurlanishi;
- kosmik nurlar, chang, asteroidlar;
- yerning elektr va magnit maydoni;
- ekosistemalarda, biosferada moddalar aylanishi;
- atmosfera, gidrosfera va litosfera holatlari shu jumladan favqulodda holatlar;
- boshqalar.

Texnosferadagi asosiy oqimlar.

- xomashyolar, energiyalar oqimi;
- iqtisod sohasi mahsulotlarining oqimi;
- iqtisod sohasi chiqindilari;
- maishiy chiqindilar;
- informatsiya oqimlari;
- transport oqimlari;
- yorug‘lik oqimi (sun’iy yoritish);
- moddalar va texnogen avariyalardagi energiya oqimlari;
- boshqalar.

Ijtimoiy muhitdagi asosiy oqimlar.

-informatsiya oqimlari (o‘qitish, davlat boshqaruvi, xalqaro hamkorlik boshqalar);

- odamlar oqimi (demografik portlash, aholi urbanizatsiyasi);
- alkogol vositalar va boshqa oqimlari;
- boshqalar.

Hayot faoliyat jarayonida inson iste'mol qiladigan va chiqaradigan asosiy oqimlar.

-kislorod, oziq-ovqat, suv va boshqa moddalar (alkogol, tamaki, narkotiklar) oqimlari;

- energiyalar oqimi (mexanik, issiqlik, quyosh va boshqalar);
- informatsiya oqimlari;
- hayot faoliyat jarayonidagi chiqindilar oqimi;
- boshqalar.

5. Ishlab chiqarishda zararli va xavli omillar klassifikatsiyasi

1.Psixofiziologik omillar: mexnat sharoitida, ish joyini va moslamani joylashishda, mashina va mexanizmlarni ishlatish.

- a) xarakat sistemasini fizik toliqishi;
- b) aktiv xarakatlanishni fiziologik susaishi;
- v) qon aylanish va nafas olish sistemasini fiziologik toliqish;
- g) nervno-psixik kuchlanishlar.

2.ishlab chiqarishda fizik omillar:

- a) ishlab chikarishda to‘g‘ri kelmaydigan meteo sharoitlar;
- b) nurlanish darajasini kupayishi;
- v) elektr statistik tokini drajasini ko‘tarilishi;
- g) ishlab chiqarishda chang miqdorini ko‘tarilishi;
- d) shovqin va vibratsiya darajasini ko‘tarilishi;
- e) ishlab chiqarishda noratsional eritilganlik;
- j) atmosfer davleniyani kutarilishi yoki pasaishi.

3.Ishlab chiqarishda kimiyoviy omillar

gazlar, suyukliklar, aerozollar

4. Ishlab chiqarishda biologik omillar

- a) mikro va makro- organizmlar – infektsiya qo‘zg‘atuvchilar, invaziylar, zamburug‘li kasaliklar;

b) farmatsevtik ishlab chiqarish, sun’iy maxsulotlar ishlab chiqarish, go’sht kombinatlar.

5.Ishlab chiqarishda jaroxatlanish xavfi:

Xarakatlanuvchi mashinalar va mexanizmlar, ishlab chikarishdagi xarakatlanadigan asbob-uskunalar elektr xavfi.

Zararli faktorlar va ularning salbiy oqibatlari

№	Ishlab chiqarishda zararli omillar	Zararli omillarni natijasi
1	Normal meteorologik rejimini buzilishi	Sovuq qotish, oftob urush,, artrit
2	Maqbul bo‘lmagan atmosfera bosimida ishlash	Kesonn kasalligi, ishshimik yurak kasaligi, insult
3	Shovqin darajasini balandligi	Shovqin kassaligi. garenglik, eshitish sistemasini susaishi
4	Ishlab chikarishda titrash (vibratsiya) darajasini maqbuldan yuqori bolishi	Vibratsiya kassaligi
5	Ishlab chiqarishda zararli chang miqdorini oshishi	Pnevmonioz, silikoz, antrakoz, bronxial astma
6	Zaxari toksinlar va materiallar ta’siri	Kuchli va surunkali zaxarlanishlar, teri kassaligi. Kimiyoviy kuyishlar
7	Eritilganlikni noto‘g‘ri taqsimlash, kam yoritilganlik	Kuz kassaliklari, travmatizm xavfi
8	Muskullarni toliqishi, noto‘g‘ri, zarur pozalar, ko‘p oyoqda turish, og‘ir yuklarni ko‘tarish va qabul qilish.	venoz, tromboflebit grija
9	Yuqori darjasidagi nur energiyasi, yuqori darajadagi infro-qizil nurlanish	Ko‘z kasalliklari: katarakta, kon'yuktivit
10	Ionlashgan nurlar, radiaktiv moddalar, izotoplар va rentgen nurlarini ta’siri.	Teri kassaligi, shu jumladan saraton, dermatitlar, ekzema, yazva va nurlanish kassaligi

Nazorat uchun savollar:

1. Texnosfera haqida ma'lumot bering?
2. O‘zbekistonda texnosfera muammolarga nimalar sabab bo‘ladi?
3. Tabiiy muhitning asosiy oqimlari nima?
4. Texnosferadagi asosiy oqimlarni ayting?

5. Ijtimoiy muhitdagi asosiy oqimlar izoxlang?
6. Ishlab chiqarishda zararli va xavli omillarni tushuntiring?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
- 2.T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 4.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 5.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
6. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
7. G‘.Yo. Yormatov va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 . – 348 b.

6-MAVZU: QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI SOHASIDAGI MEHNATNI MUHOFAZA QILISH BO‘YICHA MUTAXASSISLARGA QO‘YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

Reja:

1. Qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Tayanch tushunchalar: *Vazirlar mahkamasi, qarorlar, qonunlar, nizomlar, jismoniy va yuridik shaxslar.*

Darsning o‘quv maqsadi: Qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarga qo‘yiladigan asosiy talablar bo‘yich ko‘nikmaga ega bo‘ladilar.

1.Qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarga qo‘yiladigan asosiy talablar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.04.2017 yildagi 246-son Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada

rivojlantirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida” 2016-yil 22-sentabrdagi O‘RQ-410-son Qonunini amalga oshirish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish va ularning yagona reyestrini yuritish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

mehnatni muhofaza qilish — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i, ish qobiliyati saqlanishini ta’minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari — mehnatni muhofaza qilish sohasida shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar.

mehnatni muhofaza qilish xizmati — tashkilotning tuzilmasidagi mustaqil bo‘lim bo‘lib, belgilangan tartibda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etish va tashkil qilinishi, ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi — ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi mehnat sharoitlarining, ish o‘rinlaridagi mehnat jarayoni og‘irligi va tig‘izligining hamda ularning jarohatlanish jihatidan xavfliligining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash, zararli ishlab chiqarish omilini va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

mehnatini muhofaza qilish sohasida malaka oshirish — mehnatni muhofaza

qilish sohasida bilim va ko‘nikmalarni, kasbiy bilimlarni tizimli ravishda yangilab borish va chuqurlashtirish;

mehnatni muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlash — mehnatni muhofaza qilish sohasida ishlash uchun zaruriy va yetarli hajmda yangi kasbiy bilimlar va ko‘nikmalarni egallash;

tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditni (keyingi o‘rinlarda mehnatni muhofaza qilish auditni deb ataladi):

tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ishslash sifatini, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga, uning darajasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish.

ishlab chiqarish omili — xodimga mehnat jarayonida ta’sir etuvchi kimyoviy, biologik, jismoniy va ijtimoiy omillar yig‘indisi.

2-bob. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtiroychilariga mehnatni muhofaza qilish sohasida va ularning ko‘rsatadigan xizmatlariga talablar.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtiroychilariga belgilanadigan talablar quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatlarni tashkil etish bo‘yicha vakolatga egaligini tasdiqlash;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatlarni tashkil etuvchi tashkilotlarning vakolatini, shu jumladan ularda mavjud bo‘lgan zarur moddiy-texnika bazasini tasdiqlash;

manfaatdor shaxslar — mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatdan foydalananuvchilar oldida tashkilotlar javobgarligining kafolatlarini ta’minlash.

3-bob. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilarining yagona reyestrini yuritish tartibi

4-bob. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilari tomonidan talablarga rioya etilishi monitoringi

Monitoring o‘tkazish maqsadi:

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilari tomonidan mehnat xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo‘yicha texnik boshqarish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmat sifatiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan buzilishlar faktlarini aniqlash va ularning oldini olish;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining (ularning mutaxassislarining) mehnatni muhofaza qilish sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga ta’sir etuvchi salbiy xulq-atvorini aniqlash va ularning oldini olish;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining mansabdar shaxslari tomonidan lavozim yo‘riqnomalari va boshqa ichki hujjatlarda nazarda tutilgan talablar va qoidalarning ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish;

Yagona reyestrga kiritilgan, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlash.

36. Monitoring o‘tkazish yo‘nalishlari:

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar buyurtmachilarining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshiradigan xizmatlari sifati yuzasidan anketa so‘rovlарини шакллантриш;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlari va hisobotlarini tanlov asosida joylarga borib o‘rganish;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni doimiy ravishda yangilab borish;

Ushbu Nizomda nazarda tutilgan talablarning buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda vakolatli organ tomonidan mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchisi nomiga aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish muddatlari to‘g‘risida ko‘rsatma yuboriladi.

5-bob. Vakolatli organ va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining majburiyatları

39. Vakolatli organ quyidagilarga majbur:

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarini xodimlarining bilim va malakasini oshirishga yordam beradigan profilaktik va tushuntirish ishlarini, master-klasslar, treninglar va boshqa tadbirlarni o‘tkazishni tashkillashtirish;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarini mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida xabardor qilish;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarini bilan o‘zaro hamkorlik qilish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Vakolatli organ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

40. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarini quyidagilarga majbur:

faoliyatini “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirish;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatlarni bajarishda ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kelishilgan majburiyatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazishda hamda mehnatni muhofaza qilishni auditida manfaatsizlikni ta’minlash;

ko‘rsatilgan xizmatlar natijalari bo‘yicha tashkilotlarga ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

41. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilari faoliyati yuzasidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

42. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
2. Vazirlar Mahkamasi qarorlarini maqsadi qanday vazifalarni bajaradi?
3. Monitoring o‘tkazish maqsadi va yo‘nalishlarini izohlang?
4. Vakolatli organ majburyatlari nima?
5. Yakunlovchi qoidalar nimalardan iborat?
- 6.Mehnatkashlarni mehnatini muhofaza qilish bo‘yicha qonunlar Mamlakatimizda qachon ishlab chiqilgan?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
- 2.T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, O‘zbekiston, 2017.-104b.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-56b.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 6.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.

- 7.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 8.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
9. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
10. G‘.Yo. Yormatov va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 . – 348 b.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
4. [www. sanoatktn.uz](http://www.sanoatktn.uz) - Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Sanoatkontexnazorat) sayti.

7-MAVZU: KORXONADA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH XIZMATLARINING ASOSIY MAJBURIYATLARI VA HUQUQLARI.

Reja:

1. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish
2. Mexnat muhofazasini nazorat qiluvchi davlat organlari.
3. Korxonalarda xavfsiz ishslash usullarini joriy etish.

Tayanch tushunchalar: *sanoat, zarazli va zaharli, kasb kasalliklari, yo‘riqlantiruvchi, qonun, farmon, qarorlar.*

Darsning o‘quv maqsadi: *talabalar korxonalarda xavfsiz ishslashni tashkil etish bo‘yicha qonun va qoidalar hamda huquqlarini bilib oladilar .*

1.Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish.

Sanoat korxonalarining ish jarayonida shikastlanish va kasbiy kasalliklarni kamaytirish davlat mitsyosidagi ijtimoiy-iqdisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, mehnat muhofazasi bo‘limi rahbariyat va kasaba uyushmalari bilan hamkorlikda chora-

tadbirlar belgilaydi. Korxonada yuz beradigan xar qanday baxtsiz xodisaga korxona birinchi rahbari va bosh muxandis bevosita javobgar hisoblanadi. Sanoat korxonalarida Qonun asosida mehnatni muhofaza etish masalalarini xal qilish maqsadida, xar yili kasaba uyushmasi tashkilotlari bilan hamkorlikda mehnat muhofazasi chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Mexnat sharoitining yaxshilanishiga olib keladigan jami tadbirlar mazmuni bo'yicha duyidagilarga bo'linadi: baxtsiz xodisalarning oldini olish chora-tadbirlari. Bularga zaxarli va engil alanganuvchi suyuqliklarni saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, himoya moslamalari, to'siqlar, avtomatik ximoya vositalari, signal moslamalari, masofadan boshqarish asboblarini qo'shimcha o'rnatish va boshqalar kiradi. Ishlab chikdrihda kasb kasalliklari oldini olish chora-tadbirlari. Unga ishchilarni xar xil kasbiy zararlar ta'siridan ximoyalovchi moslama, jixozlarni tayyorlash, ularni ishlab chiqarishga joriy etish, xonalarni shamollatib turish mosla- malarini o'rnatish hamda ishlab turgan moslamalarni o'z vaqtida ta'mirlash, xavo tarkibini tekshirish hamda nazorat o'rnatish uchun asbobuskunalar olish, o'rnatish va boshqalar kiradi; mehnat sharoitini umumiy yaxshilash chora-tadbirlari. Bunga mehnatni muhofaza qilish masalalarini yorituvchi ko'rgazmali xonalar, burchaklar tashkil qilish, ish joylarini unumli yoritish, shovqin va tebranishlarga qarshi umumiy chora- tadbirlar, maxsus yechinish, yuvinish, kir yuvish, komyoviy tozalash, kiyimlarni maxsus tikish xonalarini tashkil etish kiradi.

Ishlab chikqrishda yangi texnologik jarayonlarni tatbiq etish va umumiy rekonstruktsiya qilish ham mehnat sharoitini yaxshilash chora-tadbirlariga kiradi. Bunda tashqari, korxona jamoasi, rahbarlari tarmoq vazirliklari ham horkorligida mehnatni muhofaza qilish, mehnat sharoitini yaxshilash va sanitariya-gigiena chora-tadbirlarini ishlab chiqib, tarmoq markaziy kasaba qo'mitalari bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

2.Mexnat muhofazasini nazorat qiluvchi davlat organlari.

Barcha vazirliklar, tashkilotlar va korxonalarda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga amal qilinishini nazorat etish O'zbekiston Respublikasi Bosh proku-

roriga yuklatilgan. Mexnatni muhofaza qilish qoidalari bajarilayotganligini nazorat organlari kuzatib boradi.

Tarmoq kasaba uyushmasining texnik inspektori xar bir sanoat korxonasiga biriktirib qo‘yilgan. U korxonada mehnatni muhofaza qilish qoidalari bajarilayotganligini, baxtsiz xodisaga uchraganlar hisobga olinayotganligini nazorat qiladi, og‘ir yoki o‘lim bilan tugagan xodisalarni guruh bilan birga taxlil qiladi, mehnatni muhofaza qilish qoida va me’yorlarini buzganlarni javobgarlikka tortish maqsadida tegishli joylarga ma’lumot yuboradi. Texnik inspektor yangi uskunalarni qabul qilishda qatnashadi hamda bir vaqtning o‘zida ular yangi ob’ektlarni foydalanish uchun qabul qilish komissiyasining a’zosi hisoblanib, mehnat muhofazasi tadbirlarining bajarilayotganligini nazorat qiladi.

Sanoat korxonalarida xizmat ko‘rsatayotgan kasaba uyushmasining inspektori mehnatni muhofaza qilish bo‘limi rahbarligi ostida ish olib boradi.

Sanitariya nazorati. Sanoat korxonalarida davlat sanitariya nazoratini O‘zbekiston Respublikasi sog‘lijni saqlash vazirligining sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari olib boradi. Ularning asosiy vazifasi tashqi muxitni sanoatning zararli chikindilari bilan ifloslanishining, sanoat korxonalarida ishlovchilar kasallanishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularga amaliy yordam ko‘rsatish belgilab ko‘yilgan.

Sanitariya-epidemiologiya stantsiyalarining vakillari kapital kurilish obektlarini kabul kilihtsa katnashadi, kasbiy zaharlanish va kasallanishlarni tekshiradi, korxona ma’muriyati bilan birgalikda bu kasalliklarni yo‘qotish chora-tadbirlarini ko‘radi. Suv xavzalaridan to‘gri foydalanish va tashlandiq suvlarning suv xavzalariga qo‘shilishi masalalari bilan sog‘lijni saqlash vazirligi bosh sanitariya-epidemiologiya boshqarmasining mahalliy sanitariya-epidemiologiya stantsiyalari shugullanadi.

Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi («O‘zsanoatkontexnazorat» agentligi) respublika davlat boshqaruvi, nazorat qilish va tekshirish organi hisoblanadi, o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Far-

moyishlariga, Oliy Majlis Qonunlariga, Vazirlar Maxkamasining qarorlari va far-moyishlariga amal qiladi. U texnologik me’yorlarning buzilmasligini, shuningdek, xavfsizlik texnikasining qoida va ko’rsatmalariga rioya qilinayotganligini kuzatib boradi.

Bundan tashqari, bu organ bosim ostida ishlaydigan bug‘ qozonlari va idishlarining xolatini, suv isitish qozonlarining issiq, suv va par beradigan quvurlar, yuk ko‘taruvchi kranlar, liftlar, ekskalatorlar va odamlarni tashiydigan osma arqon yo‘llarining xolatini kuzatadi xamda qoidalar buzilmayotganligini tekshirib turadi.

«O‘zsanoatkontexnazorat» sanoat korxonalaridagi qozon, agregatlar, ko‘tarish qurilmalarini tekshirib, ishlashi uchun ruxsat beradi va ularni ro‘yxatga oladi. U kapital ko‘rilib ob’ektlarini qabul qilib olishda va korxonada yangi uskunalarini foydalinish uchun qabul qilishda, nazorat ostidagi ob’ektda bo‘ladigan baxtsiz xodisalar sabablarini aniqlashda qatnashadi.

Yong‘in xavfsizligi oldini olish nazorat organi. Yong‘in xavfsizligi nazorati Respublika Ichki ishlar vazirligining yong‘indan muhofaza qilish bosh boshqarmasi va maxalliy organlar zimmasiga yuklatilgan.

Maxalliy boshqaruvi organlari va yong‘indan muhofaza qilish bo‘limlari hamda yong‘inga qarshi kurashuvchi qismlar, o‘zлari xizmat ko‘rsatadigan sanoat korxonalarining xamma ob’ektlarida yonginga qarshi chora-tadbirlarning bajarilishini, yong‘inga qarshi kurash olib boruvchi xizmatchilarning tayyorligini, korxonadagi yonginni o‘chirish vositalarining ishga yaroqlilagini va yangi ishlab chiqarish korxonalarini loyihalaganda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinayotganligini kuzatish yo‘li bilan nazorat qilib boradi. Yong‘in chiqmasligi choralarini ko‘rish vazifasi xodimlar zimmasiga yuklatilgan.

Energetika nazorati. Davlat energetika nazorati O‘zbekiston Respublikasi Energetika va elektrlashtirish vazirligining tegishli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi elektrostantsiyalarni, elektr va issidlilik quril- larining texnik holatini va ularda xavfsiz xizmat kursatishni nazorat qilib turishdan iborat. Energetika nazorati elektr quvvatidan to‘g‘ri foydalanilayotganligini va elektr qurilmalarining texnik holatini kuzatib boradi.

3.Korxonalarda xavfsiz ishlash usullarini joriy etish.

Korxonalarda ishchi va xizmatchilar ishining xavfsizlik darajasi, shuningdek, xizmat malakasi ishchining staji, lavozimidan dat’iy nazar ishga qabul qilinganda belgilangan muddatlarda texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnomalar bilan tanish-tirilishi shart. Yo‘riqlantiruv ikki: kirish va ish joyidagi turlardan tashkil topadi.

Kirish yo‘riqlantiruv texnika xavfsizligi, yo‘ngin xavfsizligi va tibbiyot xizmat xodimlari tomonidan o‘tkaziladi. Unda yangi ishga kirayotgan ishchini mazkur korxonaning ichki tartib-doidalari, shu jarayonning o‘ziga xos zararli xususiyatlari, texnika xavfsizligi me’yorlarini bajarish majburiyati, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va baxtsiz hodisa ro‘y berganda birinchi yordam ko‘rsatish usullari bilan tanishtiriladi.

Ish joyidagi yo‘riqlantiruv tsex boshlig‘i yoki navbatchi boshliq ishtirokida usta yoki sardor tomonidan o‘tkaziladi. Bunda ishchi bajaradigan vazifasi, ish joyi texnika xavfsizligi yo‘rig‘i bilan tanishadi. Yo‘riqlantiruvdan o‘tgan ishchi 10 kun ichida tajribali ishchi nazaratida ish o‘rganadi. Ishlash bilimi komissiya tomonidan qoniqarli deb baholangan ishchi mustadil ishga qo‘yiladi. O‘tkazilgan barcha yo‘riqlantiruv maxsus jurnal va ishchining shaxsiy varadasiga yozib qo‘yiladi.

Korxonadagi barcha ishchilar uchun olti oyda kamida bir marotaba ish joyidagi yo‘riqlantiruv qaytarib turiladi. Texnologik jarayon o‘zgarganda, korxonaga yangi mashina va agregatlar o‘rnatilganda, tsexda zaharlanish va baxtsiz xodisalar tufayli shikastlanuvchilar ko‘paysa, unda rejadan tashkari yo‘riqlantiruv o‘tkaziladi.

o‘ta xavfli ishlarda ishlaydigan ishchilar xavfsiz ishlash usullari bo‘yicha maxsus o‘kitiladi. Bularga bosim ostida ishlaydigan idish va apparatlar, gazda ishlaydigan mashina va apparatlar, kompressorlar, elektr uskunalarda ishlaydigan liftlar, elektrtransport xaydovchilari, gaz hamda elektr payvandchilar va shunga o‘xhash kasblarda ishlaydigan ishchilar kiradi. Bunday ishlarga ishchilarni ko‘yishdan oldin ularning bilimi sinab ko‘riladi va ularga «naryad ruxsat» beriladi.Unda ishni boshlash va tugatish vaqtin, ishni boshlashdan oldin tayyorgarlik ko‘rish tadbirlari yozib ko‘yilgan bo‘ladi.

Naryad ruxsatlar bosh muxandis, bosh mexanik, bosh energetiklar tomonidan beriladi.Ular xavfsizlik texnikasi bo‘yicha attestatsiyadan o‘tgan bo‘lib, xavfli ishlar bo‘yicha javobgar hisoblanadilar va korxona direktori tomonidan tayinlanadi.

Sanoat korxonalariga mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘kitish va targ‘ibot qilish maqsadida texnika xavfsizligi xonalar tashkil etiladi.Unda texnika xavfsizligiga oid qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar, zamonaviy shaxsiy ximoyalanish vositalari bo‘lishi zarur. Bunday xonalar umumiy yo‘riqlantiruv o‘tkazishda foydalaniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etishdagi huquq va majburiatlarga nimalar kiradi?
2. Mexnat muhofazasini nazorat qiluvchi davlat organlarini foaliyatini izohlang.
3. Korxonalarda xavfsiz ishlash usullarini joriy etish chora – tadbirlarini tushintirib bering?
- 4.Yo‘riqnomalar kimlarga va qachon o‘tkaziladi?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
- 2.T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, O‘zbekiston, 2017.-104b.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-56b.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 6.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 7.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 8.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.

8-MAVZU: QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI SOHASIDAGI BAXTSIZ HODISALARING SABABLARI.

Reja.


1. Qishloq va suv xo'jaligi mutahasislari bo'yicha ma'lumot
2. Ishlarni bajarishda xavfli va zararli faktorlar

Tayanch tushunchalar: *Suvmash, beton va temir beton zavodlari, noruda materiallarni qayta ishlash korxonalari, ta'mirlash zavod, tsexlari, ekspluatatsiya, tashkilotlari, faktor, texnika, texnologiya, iste'molchi.*

Darsning o'quv maqsadi: *talabalar qishloq va suv xo'jaligida qilinayotgan ishlar va yangiliklar hamda baxtsiz xodisalarini oldini olish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'ladilar.*

1. Qishloq va suv xo'jaligi mutahasislari bo'yicha ma'lumot

Baxtsiz xodisa sabablari



Suv xo‘jaligi ma’lum kompleksni o‘z ichiga oladi. U bajaradigan ishining xarakteridan kelib chiqib aniqlanadi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar suv xo‘jaligi bilan xam chambarchas bog‘liqdir.



Suv xo‘jaligi sohasida 140 mingdan oshiq odamlar, shundan 1495 ta boshqaruv apparati xodimlari ishlaydi. Suv xo‘jaligi soxasiga qarashli bir qancha zavodlar (Suvmash, beton va temir beton zavodlari, noruda materiallarni qayta ishlash korxonalar, ta’mirlash zavod va tsexlari, ekspluatatsiya tashkilotlari), qurilish tashkilotlari hamda xo‘jalik ichki irrigatsiya va drenaj tarmoqlarini ekspluatatsiya qiluvchi 1680 dan oshiq Suvdan Ist’emolchilar uyushmalarida o‘n minglab ishlovchilar xizmat qiladi. Ularning xavfsizligini ta’minlash umumiyl vazifalarimizdan hisoblanadi.

Suv xo‘jaligi qurilishi suv xo‘jaligi rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Suv xo‘jaligida suv resurslarini boshqarishda qurilish ishlarining o‘rni kattadir. O‘zan rostlash, suv to‘plash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bilan bog‘liq ishlar va boshqa barcha qurilish ishlarini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Amaliyotda qurilish ishlari loyihasiz bajarilmaydi. Loyiha tarkibi SNIP 1.02.-01-85 bo‘yicha bajariladi. Loyiha ishlari loyiha tashkilotlarida amalga oshiriladi. Qurilishning loyihasi o‘z navbatida bosqichlarga bo‘linadi. Loyiha oldi va loyixalash. Melioratsiya sohasida qurilish, ta’mirlash, rekonstruktsiya ishlarini bajarish maqsadida loyihalash ishlarini bajarishning dastlabki bosqichi meliorativ dala

qidiruvdir. Meliorativ dala qidiruvining (MDQ) tarkibidagi ishlar ro'yxati loyihalanayotgan ishlar va ob'ektlar xususiyatiga bog'liq.

Melioratsiya sohasida yerlarni rekonstruktsiya qilish, gidrotexnik inshootlar qurish, sug'orish va zax qochirish tarmog'i inshootlarini qurish bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladi.



2. Ishlarni bajarishda xavfli va zararli faktorlar

Joyning geografik holatini o'rganishda transport bilan bog'liq bo'lган yuklash-tushirish qoidalariga amal qilishi lozim. Joyning geografik sharoitini o'rganishda o'lchov asbob uskunalarini ishlatish uchun ularni transport vositasiga yuklash va tushirish qo'l kuchi bilan bajariladi. Xavfsizlik qoidalari bo'yicha har bir insonga yoshi va jinsiga bog'liq holdda yuk ko'tarish me'yоридан chiqmasligi lozim. Odamlar transportda yurish qoidalariga amal qilishi kerak. Ekspeditsiya mashinalari aksariyat holatlarda yuk mashinasiga moslashtirilgan bo'ladi. Shuning uchun odamlar mashinada yurish qoidalarini bajarishi lozim. Kuzovga chiqish va tushishda zina-moslamalaridan to'g'ri foydalanishi kerak. Unga chiqish tushishda oyoq kiyimlarini sirpanadigan holatda emasligiga ishonch hosil qilishi lozim, aks holda uni tozalashi va sirpanmaydigan holatga keltirishi lozim.

Transport vositasida odamlarning tik turib ketishiga ruxsat etilmaydi. Odam

bilan harakatlanadigan transport vositasiga “odamlar” yozuv belgisi oldiga va orqasiga qo‘yilishi kerak. Yuk mashinasi kuzovi odamlar tashishga jihozlangan bo‘lishi, ya’ni mahkamlangan skameykalar o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Mashina kuzovi orqa tomonida yon tomonlarga mahkamlanadigan himoya kafolat zanjiri bo‘lishi kerak. Odamlar mashinadan tushishida zinadan to‘g‘ri foydalanishi kerak, bir kishi tushayotgan odamlarga pastda turib yordam berishi kerak.





Nazorat uchun savollar:

1. **Baxtsiz xodisa sabablarini tushuntiring?**
2. **Ishlarni bajarishda xavfli va zararli faktorlariga nimalar kiradi?**
3. **Respublikamizda qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nimalar bilasiz?**

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
- 2.T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
8. G‘.Yo. Yormatov va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 . – 348 b.

9-MAVZU: MEHNATNI MUHOFAZA QILISH, YONG'IN XAVFSIZLIGI, EKOLOGIK XAVFSIZLIK XIZMATLARI TO‘G'RISIDAGI MA’LUMOT.

Reja:

- 1. Mehnatni muhofaza qilish**
- 2. Ekologik xavfsizlik**
- 3. Yong'in xavfsizligi**

Tayanch tushunchalar: qonun, qaror, me'yoriy xujjatlar, shaxs, salomatlik, mehnat, yonish, ekologik muammolar, xavfsizlik, yonishga chidamli materiallar

Darsning o‘quv maqsadi: talabalar mehnatni muhofaza qilish, tabiatni asrash hamda yong'in xavfsizligi bo‘yicha ma'lumot va tassavurga ega bo‘ladilar

1. Mehnatni muhofaza qilish

Insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo‘llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika chora tadbirlari belgilab qo‘yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog‘lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo‘l qo‘ymaslik kabilalar mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishslash yuzasidan fuqarolarning huquqlari Konstitutsiyada (37-modda) mustahkamlanib qo‘yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy kafolatni amalda ro‘yobga chiqarilishiga qaratilgan aniq chora tadbirlar O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida, "Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qonun (1993-yil 6-may)da, boshqa bir qator qonunlar va qonun osti normativ hujjatlarida belgilangan.

O‘zbekistonda Mehnat muhofazasi uchun katta moliyaviy mablag‘lar ajratiladi va o‘zlashtiriladi. Sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitida mehnat qilish huquqi mamlakatimiz fuqarolarining eng asosiy mehnat huquqlaridan bo‘lib hisoblanadi. Mehnat muhofazasiga oid talablar va standartlar Mehnat kodeksi, "Mehnatni

muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida ishlab chiqariladigan korxona va tashkilotlarning ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomalari, tarmoq yoki mintaqaviy jamoa kelishuvlari, korxonalarining boshqa ichki normativ huquqiy hujjatlarida, muayyan soha, kasb, ish joylariga oid bo‘lgan Mehnat muhofazasi standartlarida belgilab qo‘yiladi. Mulkchilik shakli va xo‘jalik yuritish usulidan qat’iy nazar barcha korxona, muassasa, tashkilotlar o‘z xodimlari uchun sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratishi, xavfsizlik texnikasi choralarini ko‘rishi, mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini tashkil etishi, boshqa tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirishi shart.

Mehnat muhofazasi qoidalariга rиoya etilishi maxsus davlat organlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib boriladi. Qonunlarga, shu jumladan, Mehnat muhofazasiga oid qonunlarga rиoya etilishi ustidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar umumiylar nazorat olib boradi. Mehnat muhofazasi haqidagi qonun talablarini buzgan korxonalarga moliyaviy-iqtisodiy jazo choralar, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan esa intizomiylar, ma’muriy-huquqiy, jinoiy javobgarliklar qo‘llanishi, ular aybi bilan yetkazilgan moddiy zararlar qoplantirilishi mumkin.

2. Ekologik xavfsizlik

Atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfni kamaytirish bilan bog‘liq tushunchalardan biri bu Ekologik xavfsizlik. Bu o‘zimizni atrof-muhit duch keladigan tahdidlardan himoya qilishning bir usuli va odamlarni yashash uchun butun atrof-muhitga qaram qilib qo‘yadi. Atrof-muhit xavfsizligi shaharlarni, mamlakatlarni, kompaniyalarni va umuman jamiyatni rivojlantirishning juda muhim yo‘nalishiga aylandi.

Ekologik xavfsizlik nima? Atrof-muhit xavfsizligi g‘oyasi, uning kontseptsiyasini tinglash bilan, o‘zingizni ekologik xavf-xatarlardan qanday himoya qila olishingizga bog‘liq. So‘nggi asrlarda bizning geosiyosiy hayot tarzimiz tubdan o‘zgardi. Tarixiy jihatdan, odamlar duch keladigan xavflardan biri bu qurolli to‘qnashuvlarda o‘zlarining harbiy siyosati edi. Biroq, bugungi kunda bizning dushmanimiz o‘zgargan. Endi ular biz duch keladigan va bu muammolarni

hal qilish uchun birlashishimiz kerak bo‘lgan global muammolardir.

Yangi ekologik muammolarning paydo bo‘lishi biz ularga qarshi kurashish uchun yangi texnologik ishlanmalarga ega bo‘lishimiz kerakligini anglatadi. Shuning uchun ekologik xavfsizlik global muammoni himoya qilishning bir qismi sifatida qaraladi. Unga har ikkala institutsional darajadagi qulay xalqaro yondashuv yaqinlashadi. Har bir mamlakatda ekologik xavfsizlik bo‘yicha o‘z milliy siyosati mavjud.

Atrof-muhit tarixidagi muhim moment 80-yillarda bo‘lib, aynan shu erda ekologik xavfsizlik g‘oyasi, shu jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy va insoniy unsurlar keng ommalasha boshladi. Keyinchalik, 90-yillarda FAO inson huquqlari kontseptsiyasining keng doirasi sifatida "inson xavfsizligi huquqlari" tushunchasini birinchi bo‘lib kiritdi. Boshqacha qilib aytganda, insonlar o‘zaro uyg‘unlikda yashashlari mumkin bo‘lgan sog‘lom muhitga ega.

Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolar



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiylar texnik reglamentni tasdiqlash haqida 95-son 18.02.2020.yil.

1980 yillar oxirida O‘zbekistondagi ekologik muammolar shunchalik kuchayganki, Respublika hukumatining 1988 yil aprel oyida qabul qilgan qarorida davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qo‘mitaning hududiy bo‘linmalari viloyatlar (tumanlar),

shuningdek Toshkent shahri tashkil qilingan davlat organlari maxsus yechim bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi № PF-5024 «Ekologiya va atrof-muhit sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» farmoniga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi № PF-2915 «O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashki etishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga aylantirildi.

3. Yong‘in xavfsizligi

Yonish deb katta miqdorda issiklik va yoruglik ajralib chikishi bilan kechadigan yonuvchi modda va oksidlovchining o‘zaro murakkab fizik-kimyoviy ta’siriga aytildi. Yonish jarayonidan xarq xo‘jaligining turli maqsadlarida foydalanadi. Odamlar kundalik hayotida yonish jarayonidan foydalanib, oziq-ovqat tayyorlash, uylarni isitish, mahsulotlarni qayta ishlashda, harbiy sohalarda foydalanishi uzoq tarixga ega. Odamlar olovga sig‘inadigan joylar ham borligi tarixdan ma’lum, hozirgi davrda ham ularning ayrim belgilari saqlanib qolgan.

O‘tdan, yong‘indan muhofaza – maxsus ishlov berish yoki maxsus qoplama (qatlam) surtish yo‘li bilan material va konstruktsiyalarning yong‘in xavfini pasaytirish.

O‘tga chidamlilik, olovbardoshlik -buyum, inshoot konstruktsiyasi yoki elementining yong‘in vaqtida zarur foydalanish sifatlarini saqlab qolish qobiliyati. Tosh, g‘isht, betondan tayyorlangan buyum va konstruktsiyalar eng katta po‘lat, alyuminiydan tayyorlanganlari nisbatan past o‘tga chidamlilikka ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 18-noyabrda imzolangan “Har yili yong‘in xavfsizligi oyligini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori istiqlol yillarida bu borada qabul qilingan muhim hujjatlardan biridir.

Ta’kidlash joizki, "Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida"gi qonunning ayrim moddalarida yong‘in-texnik komissiyalari, ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati

bo‘linmalari, yosh yong‘in o‘chiruvchilar drujinalarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi, shuningdek, idoraviy va ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmatlarini hisob ro‘yxatidan o‘tkazishni tartibga soladigan tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarning in’ikosi o‘z ifodasini topgan. Bularning barchasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-mart kuni qabul qilingan qarorida aks etgan.

Yong‘in-texnik komissiyalarining asosiy vazifalari avvalgidek saqlab qolningan. Ob’ektda yong‘in xavfsizligi bo‘yicha standartlar va normalar buzilishini aniqlash, yong‘in profilaktikasi ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda yong‘indan saqlash xizmatlariga ko‘maklashish, yong‘in xavfsizligi va ob’ektning yong‘inga qarshi himoyasini yaxshilash masalalari bo‘yicha ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarini tashkil etish, xodimlar o‘rtasida ommaviy tushuntirish ishlariini olib borish shular jumlasidandir.

YoTK vazifalari va majburiyatlariga oid yangi normalar joriy etildi va eskilariga aniqlik kiritildi. YoTK ishlarini tashkil etish tartibi to‘liq qayta ko‘rib chiqildi. Ilgari ular o‘z ishini ish vaqtida va barcha ish smenalarida tashkil etgan bo‘lsa, endi majburiy talab joriy qilindi, ya’ni ular o‘z ishini yil choragi yoki yarim yil uchun ishlab chiqiladigan, tashkilot komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan reja asosida amalga oshiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mamlakatimizda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qanay qonunlarni bilasiz?
2. Xozirgi zamon ekologik omillarga nimalar sabab bo‘lmoqda?
3. Ekologiya xavfsizligi bo‘yicha qanay qaror va qonunlarni bilasiz?
4. Yong‘in xavfsizligini vazifasi nimalardan iborat?
5. O‘tga chidamli materiallarga nimalar kiradi?
6. Yong‘in-texnik komissiyalarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarni izohlang?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
- 2.T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, O‘zbekiston, 2017.-104b.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-56b.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 6.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 7.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 8.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
9. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. – T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
10. G‘.Yo. Yormatov va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 . – 348 b.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
- 4.[www. sanoatktn.uz](http://www.sanoatktn.uz) - Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Sanoatkontexnazorat) sayti.

10-MAVZU: MEHNAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INSONNING O'RNI.

Reja:

- 1. Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburniyatlar**
- 2. Mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlari**
- 3. Mehnatni muhofaza qilish qoidalari, norma va yo'riqnomalarini buzganlik uchun javobgarlik**

Tayanch tushunchalar: *inson, norma, javobgarlik, yo'riqnomalar, qoidalari, majburniyatlar, nomenklatura, chora-tadbir*

Darsning o'quv maqsadi: *talabalar mehnatxavfsizligini ta'minlashda inshonnitutgan o'rni bo'yicha tushunchaga ega bo'lib mustaqil fkirlay oладilar.*

1. Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburniyatlar

Sanoat korxonalarida, tashkilotlarida xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari kodeksiga yozib qo'yilgan. Ma'muriyat tarkibiga rahbar xodimlar, ya'ni sanoat korxonalariga tashkilotlarida tashkilotchilik, ma'muriy-xo'jalik ishlarini amalga oshiruvchi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qiluvchi, ishlab chiqarishdagi xodimlarni boshqaruvchi, moddiy mablag'larni taqsimoti bilan ishslash va uni nazorat qilish ishlarini olib boruvchi shaxslar kiritiladi.

Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburniyatlar asosan ishchilar bilan ma'muriyat o'rtasida tuziladigan mehnat bitimidan kelib chiqadi. Mehnat bitimini tuzish majburiyati O'zbekiston Respublikasining Mehnat vazirligi tomonidan belgilangan. Bu qonuniyat sifatida quyidagicha tahlil qilinadi. Ishchi ma'lum mutaxassislik bo'yicha belgilangan ishni korxona ichki tartibi-qoidalalariga rioya qilgan holda bajarishni, ma'muriyat esa mehnat qonunlariga asosan va jamoat bitimida ko'zda tutilgan ma'lum miqdordagi majburniyatlar mundarijasini o'z zimmasiga oladi.

Mehnat qonunlarida ko'zda tutilgan majburniyatlar quyidagilardir: har bir ishchi, xizmatchini mutahassisligi va malakasiga qarab ma'lum mashina, stanok va boshqalardan iborat ish joyi, sog'lom va xavfsiz ish sharoiti sifatli ish qurollari bilan ta'minlash, sanoat va mehnat intizomini har taraflama mustahkamlash, ish

sharoitini kundan – kunga yaxshilab borishni ta'minlash maqsadida zarur texnik jihozlar o'rnatish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Ma'muriyat xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar shundan iboratki, ular davlat siyosati va uni amalga oshirish, davlat va xalq manfaatlarini yaxshi tushungan bo'lishlari, mehnat sharoiti tartibini aniqlay bilishlari, ishchilarni mehnat intizomini saqlash va ishga rag'batlantirish, ish unumini oshirish darajasini bir necha o'n yil oldindan ko'ra biluvchi shaxs bo'lishlari kerak.

2.Mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlari

Kasaba uyushmasi ustaviga asosan FZKU vositachiligidagi har yili ma'muriyat (direktor shaxsida) bilan ishchi-xizmatchilar o'rtasida o'zaro mehnat munosabatlari to'g'risida jamoat bitimi tuziladi. Bu bitimda ishchi va xizmatchilarining mehnat qilishi va madaniy, maishiy dam olishi borasidagi tadbirlar haqida kelishib olinadi. Unda mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlari, mehnat sharoitini yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi va bu masalalar ma'lum tartibga keltirilib, mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlari sifatida bitimga tirkab qo'yiladi.

Nomenklatura chora-tadbirlari rejasini, kasaba uyushmasi komitetlari bilan kelishgan holda, ma'muriyat xodimlari tuzadi. Unga ushbu korxona ayni paytdagi mehnat sharoiti, kasb kasalliklari va sanoat korxonasiда inson organizmiga ta'sir qiluvchi zararli omillarning mavjudligi asos qilib olinadi. Bu reja kasaba uyushmasi bilan kelishilgandan keyin ishchilarining umumiy majlisida muhokama qilinadi.

Nomenklatura chora-tadbirlariga asosan ish sharoitini yaxshilash chora-tadbirlari kiritilib, ularni shartli ravishda quyidagi uch guruhgaga bo'lib qarash mumkin:

1.Baxtsiz xodisalarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar: bunga qo'shimcha saqlovchi va muhofaza qiluvchi to'siqlarni o'rnatish, blokirovka qilish, muhofazaning avtomatik tizimlarini qo'llash, uzoqdan turib boshqariladigan asboblar joriy qilish, signal tizimlari, mexanizatsiyalashtirish masalalari va boshqalar kiradi.

2.Sanoat korxonalarida kasb kasalliklarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar: ishchilarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi moddalardan muhofaza qiluvchi qurilmalar tayyorlash yoki sotib olish, yaxshi shamollatish va havoni mo'-'tadillashtirish tizimlarini o'rnatish, eskilarini takomillashtirish, umumiyl havo almashtirish usullari bilan birga xavfli moddalar ajraladigan joyni ham ajratish, havo so'rish tizimida mukammallashtirilgan mashinalardan foydalanish, havo holatini kuzatadigan asboblar o'rnatish va boshqalar.

3.Ish sharoitini umuman yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar: mo'-'tadil yoritish, sanitariya-maishiy xonalar holatini yaxshilash, maxsus kiyim-bosh va oyoq kiyimlarini vaqtida sifatli remont qilish, mehnatni muhofaza qilish kabinetlari, burchaklari va ko'rgazmalar tashkil qilish va boshqalar. Sanoat korxonalarida texnologik jarayonlar taqozo qilinadigan chora-tadbirlar, masalan, yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni maqsadga muvofiq tashkil qilish masalalari, garchi ish sharoitini yaxshilashga qaratilgan bo'lsada, nomenklatura chora-tadbirlariga kiritilmaydi. Nomenklatura chora-tadbirlari ish bitimiga kiritilganligi va ishchilarning umumiyl majlisida tasdiqlangani sababli, ular bajarilishi shart bo'lib qoladi va bu haqda ma'muriyat ishchilarga axborot berib turishi kerak. Unga sarflanadigan mablag' sanoat korxonasining asosiy fondidan olinadi, ya'ni bu harajatlar umumtsex va umumzavod xarajatlar hisobiga kiradi. Mehnatni muhofaza qilish nomenklatura chora-tadbirlariga ajratilgan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanish mutlaqo taqiqilanadi. Mehnatni muhfaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlari sanoat korxonalarida o'tkazilishi lozim bo'lgan va bu korxonalarning bosh rejasiga kiritilgan. Mazkur rejaga sanoat korxonasi joylashgan maydonlarni obodonlashtirish, ishchilar yashaydigan zonalar holatini yaxshilash, korxona tashqi ko'rinishi va unga tutashuvchi yo'l va yo'lkalar holatini yaxshilash, barcha ishlab chiqarish zonalarini ko'kalamzorlashtirish masalalari kiradiki, bular tuman, viloyat miqiyosida hisobga olinadi va unga ma'lum mablag' ajratiladi.

Xavfsizlik texnikasi muxandisining vazifalari

Har bir sanoat korxonasi o'z masshtabiga asosan mehnatni muhofaza qilish

bo‘limini yoki xavfsizlik texnikasi muhandisi lavozimidagi shtat birligini tashkil qilish shart. Uning asosiy vazifasi sanoat korxonasida mehnat qilayotgan ishchi va muhandis-texnik xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoida va talablarini qanday bajarayotganliklarini nazorat qilishdan iborat.

Jumladan uning xizmat doirasiga quyidagilar kiradi:

- 1.Tsex va bo‘lim boshliqlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish qonunlarini va boshqaruvchi tashkilotlarning xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi norma hamda qoidalarni bajarish to‘g‘risidagi qarorlarning bajarilishini kuzatib boradi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish davlat tashkilotlari ko‘rsatmalarini to‘g‘ri bajarilayotganligini tekshiradi.
- 2.Sanoat korxonalaridagi havo muhitining toza bo‘lishiga e’tibor beradi va shamollatish tizimlarining to‘g‘ri ishlatilayotganligini kuzatib boradi.
- 3.Sanoatga zamonaviy xavfsizlik texnikasi vositalarini joriy qilish choralarini ko‘radi.
- 4.Tsex va bo‘lim boshliqlari tomonidan “Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish” haqidagi qarorning bajarilayotganligini kuzatib boradi.
- 5.Sanoat korxonalari ishchi va xizmatchilarini belgilangan tartibda maxsus oziq-ovqat, kiyim-bosh, oyoq kiyimi, sut mahsulotlari, sovun va shaxsiy muhofaza aslahalari bilan ta’minlaydi.
- 6.Sanoat korxonalarining hamma bo‘limlarida xavfsizlik texnikasi tavsiyanomasini o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Ba’zi bir rahbar shaxslarning o‘z ishiga sovuqqonlik va loqaydlik bilan qarashi natijasida mehnatni muhofaza qilish tartib qoidalari buzilib, baxtsiz hodisa yuz bersa, bu baxtsiz hodisaning og‘ir – yengilligi va oqibatini hisobga olib, javobgarlik chora-tadbirlari belgilanadi.

3.Mehnatni muhofaza qilish qoidalari, norma va yo‘riqnomalarini buzganlik uchun javobgarlik

Intizomiy javobgarlik. Hozirgi zamon mashinasozlik sanoat fan va texnika taraqqiyotining hamma yutuqlarini o‘zida jamlagan murakkab dargoh hisoblanadi.

Undan oddiy tokarlik stanogidan tortib zamonaviy programmalashtirilgan agregat stanoklarigacha, oddiy yig‘ish maydonidan boshlab, mukammallashtirilgan konveyer liniyalarigacha ishlaydi. Bundan mashinasozlik zavodlari tsexlarida bir necha yuzdan tortib bir necha ming nafargacha ishchilar mehnat qilishi mumkin. Mehnat qilayotgan ishchining vazifasi va bajaradigan ishi mutaxassisligi bo‘yicha texnika xavfsizligi me’yorlari darajasida bo‘lishi va uni buzgan shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik tartibida ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar va ma’lum miqdorda jarima to‘lash belgilanadi.

Jinoiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarining qo‘pol buzilishi natijasida og‘ir jarohatlanish sodir bo‘lsa, yoki bir necha kishi og‘ir jarohatlansa, yoki baxtsiz hodisa o‘lim bilan tugasa, bu holatda rahbar xodim jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Nazorat savollari

- 1.Ma’muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburniyatlarga nimalar kiradi?
2. Mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini izohlan?
3. Xavfsizlik texnikasi muxandisining vazifalari nimalardan iborat?
4. Mehnatni muhofaza qilish qoidalari, norma va yo‘riqnomalarini buzganlik uchun javobgarlik kimlarga qo‘llaniladi?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
- 2.T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.

SEMENAR MASHG'ULOTLARI

1-MAVZU. OLIY TA'LIM MUASSASIDA OQUV JARAYONINI TASHKL ETISHNING TASHKILIY TUZILMASI.

Ishdan maqsad. Oliy ta'lism shakllar va tuzilmasi hamda o'quv jarayonini tashkil qilish talablari bilan tanishib ichki tartib qoidalarini sharoitga moslashtirish tartibini o'r ganib uni amalyotda qo'llash bo'icha ko'nigmaga ega bo'ladilar.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayonida ta'lism berishning turli shakl va usul-laridan foydalaniladi. Ta'larning asosiy shakllari ma'ruza va seminar, amaliy va labaratoriya mashg'ulotlari, maslahat, kurs loyihasi (ishi) va BMI (bitiruv malakaviy ishi)lari hisoblanadi.

Ma'ruza o'qitish jarayonining asosiy shaklidir. O'qitish jarayoni shakllari ichida ma'ruza eng asosiysi hisoblanadi. U ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Ma'ruza o'qish yuqori malakali pedagoglarga topshiriladi, chunki ma'ruza kursini tayyorlash oliy maktab o'qituvchisidan katta mahoratni talab etadi. Xar bir ma'ruza matnnini tayyorlash esa, ilmiy ishni eslatadi. Oliy yurtlarida o'qitiladigan ma'ruzalar, darslik, qo'llanmalar, internet ma'lumotlari va boshqa manbalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha o'z shaxsiy ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi lozim

Amaliy va tajriba mashg'ulotlari ma'ruza kursida olingan bilimlarni amalda tadbiq qilish maqsadida o'tkaziladigan dars shakllaridan biridir. Bu ikki mashg'ulot o'zining xususiyatiga ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy va tajriba darslarida talabalar ikki guruhga bo'linadilar har bir kichik guruhga alohida o'qituvchi rahbarlik qiladi. Amaliy va tajriba darslari oxirida, har bir talaba vazifani bajarib bo'lgandan keyin, o'qituvchi qilingan ishlarni ko'zdan kechiradi, ishlatilgan asboblar joy-joyiga qo'yiladi.

Maslahatlar oliy ta'linda o'qitishning keng qo'llaniladigan bir shakli bo'lib, ko'pincha ma'lum kurs materiallari o'tib bo'lingach, undan olinadigan test yoki reyting nazorati oldin o'zlashtirmovchi talabalar bilan yakka holda yo gruppaga

bo‘lib o‘tkaziladi. Maslahatlarda odatda bir yoki bir necha guruh talabalari o‘zlashtirgach bilimlari yuzasidan o‘qituvchi yakuniy suhbat o‘tkazadi va talabalarning tushunmagan savollariga javob beradi.

Kurs loyihasi yoki ishlari oliy o‘quv yurtlarida talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish malakasini hosil qilishga, ma’lum ilmiy xarakterga ega bo‘lgan qisqacha ma’ruza yozishga o‘rganishga chorlaydi. Odatda, kurs ishlari yoki loyihasi yozishda o‘qituvchi rahbarligida mavzu tanlab olinadi va mavzuga doir reja tuziladi, rejaga asosan kurs ishi yozilib, taqriz qilinadi va o‘qituvchiga topshiriladi. Kurs ishini bajarish jarayonida talaba o‘qituvchi rahbaridan muntazam ravishda maslahatlar olib turadi. Ularning hajmi fanlarning xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Kurs ishlarining nazorat ishlaridan farqi shundaki, kurs ishlarida talabalar aniq mavzu bo‘yicha mustaqil fikr yuritadi va kichik muammolarni echib berishga o‘zining hissasini qo‘sadi. Nazorat ishlarda esa oldin tayyorlab qo‘ylgan savollarga javob qaytariladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi.

Oraliq nazorat semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiyl soatlar hajmidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi;

Yakuniy nazorat semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “yozma ish” (tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun “yozma ish” yoki OTKS (ob’ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o‘tkaziladi.

Referat tayyorlash talabaga kiyinchilik darjasini uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘sishimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan

ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.

Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O'quv qo'llanma. 2017 y
 2. T.Haydarov, A.Xojoyev, N.Saidho'jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
 - 3.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O'zbekiston, 2017. - 46 b.
 - 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma'ruza kursi. -T.: "Aloqachi", 2005. -355 b.
 - 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. -T.: "Tafakkur-Bo'stoni". 2012 yil, 272 bet.
 - 6.H.G'oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: "Yangi asr avlodi", 2007 y. -264 b.
 7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014.– 268 b.
1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
 3. www.mehnat.uz - O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.

2-MAVZU. MEHNAT MUHOFAZASINING TASHKIL ETUVCHI XUJJATLARNI URGANISH HUQUQIY ASOSLARI. MEHNAT KODEKSINING MODDALARI.

Darsning maqsadi: *Mehnat muhofazasining tashkil etuvchi xujjatlarni urganish huquqiy asoslari Mehnat Kodeksining moddalarini o'ganish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishdan iborat.*

Mehnat muhofazasi – huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy texnologik va sanitariya me'yorlari sistemasi bo'lib, mehnatkashlarni ishlash sharoiti va hayot xavfsizligini ta'minlaydi. Mehnat muhofazasi hayot faoliyat xavfsizligi fanining mutaxassislikka tegishli asosiy qismini o'rganadi. Aniq muammolar, transport vositalari, texnologik jarayonlar, ish turlari, bino va inshootlar uchun xavfsizlikni taminlash har bir fanning mutaxassislik kursida beriladi.

Mehnat muhofazasining rivojlanishida ulug' bobokolonlarimiz – Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zahriddin Muhammad Bobur va rus olimlaridan M.V.Lomonosov, zamondoshlarimizdan N.D.Zolotnitsskiy, N.V.Solovyov, D.A.Kelbert, V.L.Gintillo, M.I.Grimitlin, M.N.Nabiev, T.I.Iskandarov va boshqalarning hissalari kattadir.

1992 yilning 8-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida ulkan siyosiy voqeа bo'ldi. Hech bir davlat o'zining Asosiy qonunida davlat va jamiyat qurilishining tamoyillarini, fuqaroning huquq va erkinliklarini, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari hamda strategik yo'nalishlarini mustahkamlamasdan turib, demokratik, huquqiy suveren davlat bo'la olmaydi. Respublikamiz konstitutsiyasi demokratik, xalqaro miqyosda e'tibor berilgan me'yor va talablarga javob beradi deyishga to'la asosimiz bor.

Ish joylaridagi sharoit mehnat muhofazasiga taalluqli xalqaro standartlar talablariga javob bergen holda mehnat xavfsiz va samarali bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va ijtimoiy barqarorlikni yetarli emasligi ishchilarini ishlash bo'yicha huquqlariga, ularning mehnatini muhofazalash, talab darajasidagi ish sharoitlarini yaratishga oid muammolarni ko'payishiga sabab bo'ldi. Barcha hamdo'stlik mamlakatlaridagi kabi O'zbekistonda ham so'ngi

yillarda deyarli ko‘pchilik xalq xo‘jaligi sohalarida mehnat sharoiti yomonlashushi tendentsiyasi kuzatildi. Ishlab chiqarishda yangi tashkil etilayotgan xususiy sektorlarning unumini ortishi bu sohadagi ko‘rsatkichlarni yanada pasayishiga sabab bo‘ldi. Bunday ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilar mehnatini muhofazalash, ularga talab darajasida mehnat sharoitini yaratish haqida ushbu soha mas’ullari turli sabablarga ko‘ra yetarlicha e’tibor qarata olmayapti deb bo‘lmaydi.

Ularning ayrimlari bu sohada etarli bilim va tajribaga ega bo‘lmasa, ayrimlari bu haqda umuman tushunchaga ega emas desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, bunday ishlab chiqarish sub’ektlarini chiqarish rahbarlar, ish yurituvchilar, ish boshilarining ichida o‘rta ma’lumotli, o‘rta maxsus ma’lumotli rahbarlar ham yetarli. Ba’zan mutaxassisliklari ishlab chiqarish yo‘nalishiga to‘g‘ri kelmaydigan xodimlar ham ular ichida uchrab turadi. Yuqorida aytilgan kamchiliklardan tashqari mutasaddi tashkilotlar tomonidan bunday ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatları etarlicha, samarali nazorat qilinayapti deyish kiyin. Ishchilarni ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligini taminlash bo‘yicha asosiy me’yoriy qonunchilik aktlarining qabul qilinishi bilan hozirgi vaqtida bu muammolar holat birmuncha ijobiy tomonga o‘zgarmoqda.

Xavfsiz mehnat qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 37-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan.

37-moddada “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir” deyilgan. Matn davomida “ Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunga ko‘rsatilgan boshqa hollardan (harbiy xizmat chog‘ida, favqulodda holat sharoitida va h.k.) tashqari majburiy mehnat ta’qiylanadi” deb qo‘yilgan.

38-moddada ”Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqt va haq to‘lanadigan ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi” deyilgan.

39-moddada “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega.

Nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas“ deyilgan va bu (tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor) nafaqa miqdorini doimiy ravishda oshirish imkoniyatini tug‘diradi.

40-moddada “Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega” deb belgilangan bo‘lib, bunda tibbiyat xizmati bo‘yicha cheklanish yo‘qolib, turli-tuman kasalliklarni davolashda tibbiyat xodimlari o‘z shaxsiy davolash muassasalariga ega bo‘ladilar, natijada davolash sohasida raqobat vujudga keladi va fuqarolar malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6 may 1993 yilda O‘zbekiston Respublikasining **“Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni** qabul qilindi. Ushbu Qonun ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat’iy nazar mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog‘ligi va mehnati muhofaza qilinishini ta’minalashga qaratilgan.

Qonunning tarkibiy qismi 5ta bo‘lim va 29ta moddalardan tashkil topgan.

Mehnat muhofazasi bo‘yicha korxonalardagi, muassasalardagi asosiy qonunchilik aklari O‘zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi, fuqarolik kodeksi va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Ruspriblikasining 1993-yil 6-maydan kuchga kiritilgan Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonuni ishchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi mehnatni muhofaza qilishga oid munosabatlarni tartibga solishni huquqiy asoslarini belgilaydi.

O‘zbekistonda birinchi marta ish beruvchilar bilan mehnat munosabatlariga kirishayotgan jismoniy shaxslarni mehnatini muhofazasi muammolarini aniq echimiga bog‘liq har xil savollar qonunchilik darajasida ko‘rilmoxda. Bu qonunlar ish bajaruvchilarga ham ular bilan mehnat munosabatlarida bo‘ladigan

ishlovchilarga ham, hamda ta’lim muassasalarini, ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tayotgan o‘quvchi va talabalarga ham bir xilda ta’sirga egadir. Qonunchilik mehnat munosabatlarida bo‘lgan barcha ishtirokchilarni, ular hoh jismoniy, hoh huquqiy shaxs bo‘lishidan va qanday shaklda faoliyat yuritayotganidan qat’iy nazar mehnat muhofazasi talablarini so‘zsiz bajarilishi shart ekanligiga urg‘u beradi.

Ushbu qonun ish beruvchilar va ishlovchilar munosabatidagi mehnat muhofazasi sistemalari rolini aniqlaydi. Agar korxona va tashkilotda mehnat muhofazasi bo‘yicha xizmat yoki mutaxassis bo‘lmasa, ish beruvchi mehnat muhofazasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan mutaxassis yoki tashkilot bilan tegishli shartnomani tuzishi shart. Ish beruvchi ishlovchilarni mehnat muhofazasi talablari bilan tanishtirishi va har bir ish joyida mehnat muhofazasi talablariga mos keladigan sharoitni yaratishi, ish joylarini mehnat sharoiti bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazishga burchlidir.

Ish beruvchi ishlovchi bilan mehnat shartnomasini tuzishda ishchini o‘z hisobidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishi lozimligi qonunda belgilangan. Ish beruvchi ishchilarni faoliyati davomida ham quyidagi hollarda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkil etishi shart:

1. 18 yoshga to‘lмаганлар;
2. 60 yoshga to‘ланга erkaklar, 55 yoshga to‘ланга ayollar;
3. nogironlar;
4. mehnat sharoiti noqulay ishlarda, tungi ishlarda, shuningdek transport harakati bilan bog‘liq ishlarda band bo‘ланлар;
5. oziq-ovqat sanoatida, savdo va bevosita aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘ланга boshqa tarmoqlardagi ishlarda band bo‘ланлар;
6. umumta’lim maktablari, maktabgacha tarbiya va boshqa muassasalarining bolalarga ta’lim yoki tarbiya berish bilan mashg‘ul bo‘лан pedagog va boshqa xodimlari.

Tibbiy ko‘riklardan o‘tishdan bo‘yin tovlashga xodim hakli emas. Tibbiy komissiyalarning tekshiruvlar natijasida bergen tavsiyalarini bajarishdan bo‘yin tovlagan xodimlarni ish beruvchi ishga qo‘ymaslikka haqlidir.

Agar ishchining sog‘ligi ish sharoitining salbiy ta’sirida yomonlashgan bo‘lsa u navbatdan tashqari tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni talab qilishga haqli.

Tibbiy ko‘riklardan o‘tkazish qayd etilgan hollarda korxona (ish beruvchi) mablag‘i hisobiga amalga oshiriladi.

Ish joylarida to‘liq va zararsiz va xavfsiz ish sharoitini yaratish amalda mumkin emas. Shu sababli mehnat muhofazasining vazifasi zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarinining ishlovchilarga zararli ta’sirini eng kam darajaga keltirishga imkon beradigan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan, ishlovchilarni shikastlanishlarini oldini olishdan, yuqori mehnat unumdarligiga erishishga yordam beradigan qulay sharoitlarni yaratishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi 1995 yil 21 dekabrda qabul qilinib, 1996 yil 1 apreldan amalga kiritilgan. 2 qism: umumiyl va maxsus qism, 16 bob va 294 moddadidan iborat. **Mehnat Kodeksining assosiy vazifasi** bu xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e’tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali ishlashiga, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog‘lig‘i himoya qilinishini ta’minalashga, mehnat unumdarligining o‘sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko‘maklashadi.

Umumiyl qismda mehnat qonunchiligining umumiyl qoidalari, mehnat sohasidagi davlat boshqaruvi, mehnat haqidagi qonun hujjatlarining qo‘llanish doirasi, mehnatga oid munosabatlarning sub’yektlar, ularning huquq va burchlari, xodimlar va ish beruvchilarning vakilligi, jamoa shartnomalari va kelishuvlari bayon etilgan. **Mehnat Kodeksining maxsus qismi** ishga joylashtirish; mehnat shartnomasi (kontrakt); ish vaqt; dam olish vaqt; mehnatga haq to‘lash; kafolatli to‘lovlari va kompensatsiya to‘lovlari; mehnat institutizomi; mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi; mehnatni mu-hofaza qilish; ayrim toifadagi xo-

dimlarga beriladigan qo'shimcha kafolat va imtiyozlar; mehnat nizolari; davlat ijtimoiy sug'urtasi masalalarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat muhofazasini nazorat qiluvchi tashkilotlar.

Mehnat muhofazasi bo'yicha qonunlarning bajarilishini nazorat qilib turish quyidagi davlat tashkilotlariga yuklatilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
2. "Sanoatkontexnazorat" agentligi.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya epidemiologiya nazorati.
4. Respublika Ichki ishlar vazirligining yong'indan muhofaza qilish Bosh boshqarmasi.
5. O'zbekiston Respublikasi energetika va elektrlashtirish Davlat aktsionerlik jamiyati.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi korxonalarda xavfsiz ishslash, texnika xavfsizligi bo'yicha me'yyor qoidalariga, sanoat sanitariyasi va mehnat gigienasiga hamda mehnat qonunchiligiga rioya qilish masalalarini nazorat qiladi. Har bir tarmoq o'z texnik inspektoriga ega.

"Sanoatkontexnazorat" agentligi bug' qozonlarining to'g'ri ishlashini, bosim ostida ishlaydigan idishlarni, yuk ko'tarish mashinalari (ko'tarma kranlar, liftlar), ekskovatorlar, gaz uskunalari magistral quvurlari ishini va portlovchi moddalarni ishlatish, saqlash va tashish ishlarini nazorat qiladi.

Respublika sanitariya-epidemiologiya nazorati havo, suv va tuproqni ifloslanishdan ogohlantirish, shovqin va titrashni yo'qotish, tsexlarning sanitariya holatlarini yaxshilash (harorat, nisbiy namlik, yoritilganlik va h.k.) ishlarini nazorat qiladi.

Davlat yong'in nazorati yong'inga qarshi tadbirlarni, ut o'chirish vositalarining holatini, yong'in haqida xabar berish vositalarining ishini nazorat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi energetika va elektrorashtirish Davlat aktsionerlik jamiyati korxonalardagi energiya tizimlarining texnik ekspluatatsiyasini va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni nazorat qiladi.

Barcha ishlab chiqarish korxonalarida uch pog‘onali nazorat amalga oshiriladi.

I pog‘ona – har kuni usta jamoatchi-nazoratchi birgalikda tsexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko‘radilar.

II pog‘ona – har hafta tsex boshlig‘i katta jamoatchig‘nazoratchi bilan birgalikda tsexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko‘radi.

III pog‘ona – oyda bir marta korxona bosh muhandisi mehnat muhofazasi muhandisi bilan birgalikda ish joylarini aylanib chiqadilar. Bu nazorat bo‘yicha korxonada qaror chiqariladi.

Barcha korxona, tashkilot, muassasa, vazirliklar va tarmoqlarda mehnat muhofazasi qonunlari bajarilishining oliy nazorati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yuklatilgan.

Hayot faoliyat xavfsizligi qonunchiligiga rioya qilish bo‘yicha texnik xodimlarning javobgarligi

Korxonalarda ishlovchilarga xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitini yaratish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish, baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarni oldini olish mehnat muhofazasi xizmatiga yuklanadi. Bu xizmat korxonada mustaqil tizimi bo‘linma bo‘lib, bevosita boshliqqa yoki bosh muhandisga bo‘ysunadi. O‘z ishini korxona rahbari yoki bosh muhandisi tasdiqlagan reja bo‘yicha boshqa bo‘linmalar ya’ni, davlat nazorati mahalliy organlari texnik inspeksiyalari hamkorligida amalga oshiradi.

Mehnat muhofazasi xizmati quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1. ishlab chiqarish jarohatlanishi va kasbiy kasalliklarni ahvoli va sabablarini tahlil etish, tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar, kasbiy kasalliklarni oldini olish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqadi va ularni bajarilishi haqida maslahatlar beradi;

2. korxona bo‘linmalari ish joylaridagi sanitar texnik holatni portlashni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;
3. korxonaning tegishli xizmatlari bilan hamkorlikda mehnat sharoitini, mehnat muhofazasini yaxshilashning kompleks rejasini tuzadi, ko‘rib chiqadi, sanitariya sog‘lomlashtirish tadbirlarini ishlab chiqadi.
4. saqlash qurilmalarini va xavfli ishlab chiqarish omillaridan himoyalovchi boshqa vositalarini konstruktsiyalarini qayta ishlash va joriy etish bo‘yicha korxona rahbariyatiga takliflarini kiritadi;
5. mehnat muhofazasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar va mehnat xavfsizligi standartlarini amalga kiritish ishlarida ishtirok etadi;
6. korxonani tegishli xizmatlari bilan hamkorlikda va kasaba qo‘mita faollari ishtirokida binolar, inshootlar, uskunalarining texnik holatini tekshiradi (yoki tekshirishda qatnashadi), shamollatish sistemalari ishi samaradorligini sanitartexnik qurilmalar va sanitar maishiy xonalar holatni tekshiradi;
7. maxsus kiyimlar, maxsus uskunalar va boshqa shaxsiy himoya vositalari hamda mehnat muhofazasi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur materiallar va uskunalarga o‘z vaqtida to‘g‘ri buyurtmalar tuzilishini nazorat qiladi;
8. korxona bo‘linmalariga ishlab chiqarishda atrof muhit holatini nazorat qilish bo‘yicha yordam ishlarini tashkil etadi;
9. ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ob’ektlarni, uskuna va mashinalarni rekonstruktsiyadan so‘ng qabul qilish ishlarida ishtirok etadi, sog‘lom mehnat sharoitini taminlash bo‘yicha talablarni bajarilishini tekshiradi;
10. kirish yo‘riqnomasini o‘tkazadi va mavjud me’yoriy hujjatlar va mehnat muhofazasi masalalari bo‘yicha ishlovchilarni o‘qitishni tashkillashtirishga yordam beradi;
11. attestatsiya komissiyasi va mehnat muhofazasi qoidalari va me’yorlari texnika xavfsizligi yo‘riqnomalari bo‘yicha mutaxassislarni bilimini tekshirish komissiyasida ishtirok etadi.

Mehnat kodeksida bo‘linmalarda mehnat xavfsizligini taminlashni tashkil etish ularning rahbarlariga yuklatilgan. Ish joylarida mehnat muhofazasi bo‘yicha umumiy javobgarlik korxona rahbariga, uning yo‘g‘ida esa bosh muhandisga yuklatiladi. Korxona kasaba qo‘mitalari tarkibida mehnat muhofazasi bo‘yicha komissiyalar mavjud bo‘lib, har bir kichik guruhda mehnat muhofazasi bo‘yicha jamoatchi instruktor saylanadi. Mehnat muhofazasi bo‘yicha komissiyalar ishlab chiqarish madaniyati va mehnat muhofazasi ahvolini jamoat tartibida ko‘rib chiqadi, mehnat muhofazasi bo‘yicha ma’muriyat va kasaba uyushmasi o‘rtasidagi shartnomada loyihasini tayyorlashda ishtirok etadi, ma’muriyat tomonidan ushbu shartnomasi va mehnat haqidagi qonunchilikni nazorat qiladi. Bo‘linmalarni jamoatchilik inspektorlari mehnat muhofazasini bevosita ish joylarida nazoratini amalga oshiradi.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlod”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.

3-Mavzu. Hayot xavfsizligi fanining rivojlanish tarixi. Fanning rivojlanishiga O‘zbekiston olimlarning hissasi.

Ishning maqsadi. Talabalar hayot xavfsizligi fanining rivojlanish tarixi va fanning boshqa fanlar bilan o‘zoro bog‘liqligi hamda insonlar baxtsiz xodisalarga uchraganda qanday usullardan foydalanishlar haqida biladilar.

Ta’lim jarayonining barcha sohalarida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar asosida ta’lim sohasida katta yutuqlarga erishilmoqda. Ta’lim mazmuni tubdan ijobiy o‘zgarishga yuz tutmoqda. Barcha ta’lim tizimida eng zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanilmoqda. Ishlab chiqarish eng qudratli, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari bilan qurollantirilmoqda. Ijtimoiy hayot tarzi faollashmoqda. Mamlakatda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun ta’lim tizimi mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi. Jumladan o‘rtta maxsus ta’lim o‘quv rejalariga zamon va hayot talablari dan kelib chiqib katta o‘zgartirishlar kiritildi. Endilikda tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarga har bir sohada chuqur va keng qamrovli ma’lumot berish, ularga berilgan bilim ishlab chiqarishda va jamiyatda o‘z aksini va dolzarbligini yo‘qotmaydigan bo‘lishiga va ularning bilim darajalari dunyo ta’lim standartlari qo‘ygan talabga javob berishiga asosiy ahamiyat qaratilmoqda. Zamonaviy hayotdagi ishlab chiqarish samaradorligini yetuk kadrlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Har sohada inson omili, uning qadr-qimmati birinchi o‘ringa qo‘yilib ish tashkil etilgan joyda yutuqlar barqaror bo‘lishi shubhasiz. Inson tug‘ilishi bilan yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqiga ega bo‘ladi. Inson o‘zining yashash, dam olish, sog‘ligi haqida qayg‘urish, qulay atrofmuhit, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitida ishslashga bo‘lgan huquqlarini hayot faoliyati jarayonida amalga oshiradi. Uning bu huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan. Hayot faoliyat – bu insonning kunlik faoliyati, dam olishi va yashash tarzidir. Inson hayoti jarayonida uni o‘rab turgan atrof muhit bilan uzluksiz aloqada bo‘ladi va shu bilan birga har doim uni o‘rab turgan muhitga bog‘liq bo‘lib kelgan va shunday qolaveradi. Inson shuning uchun ham

o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit hisobiga oziq-ovqat, havo, suv, dam olish uchun zarur moddiy narsalar va boshqalarga bo‘lgan ehtiyojini qanoatlantiradi. Atrof-muhit – bu insonni o‘rab turgan muhit bo‘lib, insonning hayot faoliyatiga, uning sog‘ligi va nasliga to‘g‘ridan to‘g‘ri, birdan urinma yoki masofadan ta’sir etishga qobiliyatli omillarning (jismoniy, ximiyaviy, biologik, informatsion, ijtimoiy) shartli yig‘indisidir. Inson va atrof-muhit uzlucksiz o‘zaro ta’sirda bo‘lib, doimiy harakatdagi «Inson – atrof muhit» sistemasini tashkil etadi. Dunyoning evolyutsion jarayonida bu sistemani tashkil etuvchilar uzlucksiz o‘zgarib bordi. Inson mukammallahdi, yer sharining aholisi va uning oqimi o‘sdi, jamiyatning ijtimoiy asosi o‘zgardi. Atrofmuhit o‘zgardi: inson o‘zlashtirgan yer yuzi va yer osti hududi kattalashdi; tabiiy tabiat muhiti insoniyat jamiyatining o‘sib borayotgan ta’sirini boshdan kechirmoqda, inson tomonidan sun’iy yaratilgan maishiy, shahar va ishlab chiqarish muhiti paydo bo‘ldi. Tabiiy muhit o‘zi mukammal bo‘lib, inson ishtirokisiz mustaqil mavjud bo‘la oladi va rivojlana oladi. Inson tomonidan yaratilgan boshqa barcha borliq muhiti mustaqil rivojlana olmaydi va ular paydo bo‘lganidan so‘ng eskirishga va yemirilishga mahkum narsalardir. Insoniyat o‘zining dastlabki rivojlanish bosqichida tabiiy atrof-muhit bilan o‘zaro uyg‘un harakat qilgan. Atrof-muhit asosan biosfera, yer osti, galaktika va cheksiz koinotdan tashkil topgan.

Biosfera - barcha turdagи organizmlar, jumladan inson yashashi mumkin bo‘lgan atrof-muhit bo‘lib, u murakkab tuzilishdagi yer sharining muhim qobig‘idir. Biosfera bir necha milliard yillar davomida shakllangan. Zamonaviy olimlar biosferani moddalarni planeta bo‘yicha harakatini ta’minlovchi yirik, global ekosistema sifatida qarashadi. Hozirgi erada hayot yer qatlaming yuqori (litosfera) qismida, yerning pastki havo (atmosfera) qobig‘ida va yer sharining suvli qobig‘i (gidrosfera) da tarqalgan. Bu shu bilan izohlanadiki, litosferada yerosti suvlari va tog‘ cho‘kmalarida chuqurlikni sekin-asta ortib borishi bilan harorat ham ortib 2 km dan 16 km chuqurlikda 100°C va undan yuqori (vulqonik faollik zonasida esa 200 dan 1500°Ccha)ni tashkil etadi. Yerning yuzasida hayotning kontsentratsiyasi va faolligi eng yuqoridir. Inson evolyutsiyasi jarayonida o‘zini

oziq-ovqat, moddiy boylikka bo‘lgan ehtiyojlarini samaraliroq qondirish, iqlim va ob-havo ta’siridan himoyalanish, o‘ziga qulaylikni oshirishga intilib tabiiy muhitga, birinchi o‘rinda biosferaga to‘xtovsiz ta’sirini o‘tkazdi. Bu maqsadga y etish uchun u biosferani bir qismini texnosfera band etgan joyga aylantirdi.

Texnosfera - o‘tmishda biosferaga taalluqli bo‘lgan keyinchalik insonlar tomonidan moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini yanada yaxshilash maqsadida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki sirtdan texnik vositalar bilan ta’sir etgan hududdir. Texnosfera insonlar tomonidan texnik vositalar yordamida yaratilgan shaharlar, qo‘rg‘onlar, qishloq aholi punktlari, sanoat va korxonalar zonasi band etgan hududlar hisoblanadi. Inson hayot faoliyati jarayonida nafaqat tabiiy muhit bilan balki, ijtimoiy muhit deb ataluvchi odamlar ommasi bilan ham uzlusiz aloqada bo‘ladi. Insonni ijtimoiy muhit bilan aloqasi tug‘ilishni davom ettirishda, bilim va tajribalar almashishda, ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda, intellektual qobiliyatlarni oshirishda foydalilanadi va shakllanadi. Texnosfera ko‘rinishlari Zamonaviy industrial jamiyatda inson atrof-muhit komponentlari (biosfera, texnosfera va ijtimoiy muhit) bilan o‘zaro ta’silda bo‘ladi. Ya’ni, inson tabiiy atrofmuhitiga uzlusiz ta’sir etsa, o‘z navbatida biosfera va insonning ehtiyojlaridan kelib chiqib uning uzlusiz jismoniy va aqliy faoliyatining mahsuli bo‘lgan texnosfera va ijtimoiy muhit ham insonga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki sirtdan doimiy ta’sir etadi. Yuqorida qayd etilganlar asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Zamonaviy inson uni o‘rab turgan atrof-muhitning tashkil etuvchilari ya’ni, tabiiy, texnogen (texnosfera) va ijtimoiy muhit bilan uzlusiz o‘zaro ta’silda bo‘ladi;
2. XIX asr oxiridan boshlab XX asr davomida va hozirgi davrda ham texnosfera va ijtimoiy muhit uzlusiz rivojlanmoqda, bunga ushbu sohada inson faoliyati orqali o‘zlashtirilgan ulushlarni oshib borayotganligi isbotdir;
3. Texnosferani rivojlanishi tabiiy muhitni o‘zgartirish hisobiga amalga oshmoqda. Zamonaviy hayotda insonlarning ijtimoiy mavqelarini yuksalishi bilan birga ularning tinchligiga, sog‘ligiga va mehnati xavfsizligiga xavf soladigan omillar soni ham ortib bormoqda. Ma’lum sharoitda ularni insonlarning ruhiy holatiga,

sog‘ligiga salbiy ta’sirini ko‘rsatishi hammaga ma’lum. Shu sababli insonlarni nafaqat ularning aqliy yoki jismoniy mehnat faoliyati davomida balki, yashash joyida, yo‘lda va barcha holatlarda xavfsizligini, yaxshi kayfiyatini, mehnat qobiliyati va ish unumdorligini taminlash, sog‘ligi haqida qayg‘urish masalalarini ijobiy hal etish juda dolzarb masalalardan biridir. Qayd qilingan masalalarni ijobiy hal etishda hayot faoliyati xavfsizligi fanining o‘rni, uning nazariy ma’lumotlari bilan bo‘lajak mutaxassislarni qurollantirish, muammolarni ijtimoiy hayotda mumkin qadar ijobiy hal etilishiga yordam beradi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari Hayot faoliyati xavfsizligi (HFX) — ishlab chiqarish va noishlab chiqarish muhitida insonni atrof muhitga ta’sirini hisobga olgan holda xavfsizligini taminlashga yo‘naltirilgan bilimlar sistemasidir. “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining umumiyligi maqsadi—xavfsiz keljakni ta’minlashning birdan-bir yo‘li bu iqtisodiy masalalarni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan chambarchas bog‘langan holda olib borishdir. Buning asosida rivojlanishning hamma jarayonlarini tekis o‘sib borishini ta’minalash, umumbashariy tabiiy zahiralarni tejash, texnologiyalarni xavfsizlarini tanlash, tashqi muhit bilan xavfsiz muloqot qilishni ta’minlaydigan yetuk kadrlarni tayyorlash masalalari yotadi. Bunda e’tiborni hamma jabhalarda bu ishlarga alohida ahamiyat beruvchi rahbar xodimlarni tayyorlash masalasiga ahamiyat berish zarurati ko‘rinadi. Bu fan inson faoliyatining ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyati bilan chegaralanmasdan, uning yashash muhiti, har xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy va tasodifiy ofatlardan saqlanish, tabiat va odamzot uyg‘unligini yaxshi tushinish, tabiatga mulohaza bilan, uning muvozanat zanjirini uzilib ketishidan ehtiyyot qilgan holda yondoshish masalalarini inson ongiga singdirish vazifasini bajaradi.

“**Hayot faoliyati xavfsizligi**” fani hayotga kirib kelganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Hozirgi vaqtida bu fan o‘z taraqqiyotining boshlang‘ich bosqichida turibdi. Uni rivojlantirish va takomillashtirish zamon talabi. Albatta, u o‘z rivojlanish davrida mehnatni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va favquloda hodisalardan muhofazalanish, shuningdek, amaliy tibbiyot, biologiya sohalarida

erishilgan ilmiy yutuqlardan to‘la foydalanadi, qonun va qoidalarga asoslanadi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo‘yilgan asosiy masala bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roldir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi bu har qanday sharoitdagи inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o‘z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi shuningdek yong‘in xavfsizligi bo‘limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi prinsip va usullar asosida: baxtsiz hodisalar, qurbanlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo‘yadigan va hal qiladigan fandir. HFX-bu har qanday ko‘rinishdagi faoliyatga qo‘llanishi mumkin bo‘lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

“Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fani bo‘lg‘usi mutaxassislarni mehnat muhofazasining ilmiy asoslariغا doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti hamda mehnat muhofazasini yaxshilash muammolarini ijobiy hal etishga qiziqish uyg‘otishga mo‘ljallangan. Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir: ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan yong‘in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish; ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini o‘rganish; to‘qimachilik, paxta, ipak va yengil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og‘ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko‘zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholashdir. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ikki masalani yechish lozim bo‘ladi:

1. Ilmiy (inson-mashina sistemasini; atrof muhit-inson, xavfli (zararli) ishlab chiqarish omillari va boshqalarni matematik modellashtirish);

2. Amaliy (uskunalarga xizmat ko‘rsatishda mehnat xavfsizligini taminlash).

HFX kursining qisqacha mazmuni Vatanimiz milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligi, qudratli intellektual salohiyatining yuksak bo‘lishida siyosiy, huquqiy, ma’naviy va ma’rifiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan keng qamrovli tadbirlar majmuasida, aholi va hududlarni turli vaziyatlardan muhofaza qilish, inson

xavfsizligi va salomatligini saqlash alohida o‘rin tutadi, shuning uchun ham bu soha milliy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov mazkur masalaning dolzarbligiga alohida e’tibor berib, Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq «Siyosatimizning asl mohiyati aholi xavfsizligini ta’minlash, ularni turli xil ofatlar va favqulodda vaziyatlardan himoya qilishdir» deb alohida ta’kidlab o‘tganlar. Jamiyat va tabiat asosi, uni o‘z faoliyati bilan rivojlantiruvchi va boshqaruvchisi inson ekanligini e’tiborga olib, uning hayot faoliyatini yaxshilash, e’zozlash – taraqqiyot yo‘lidagi muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan fuqarolarimizning hayot sharoitini yaxshilash, ularni turli ta’sirlardan saqlash, har qanday holatda ham ehtiyyot etib, muhofaza etish asosiy ezgu maqsad qilib olingan. Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi o‘z ichiga insonning jamiyatda ishlab chiqarishda, yashashida, faoliyat olib borishida muhitning xavfsiz bo‘lishi, tabiiy va texnogen xususiyatli vaziyatlardan saqlanishi, urush va terrorizm xurujidan himoyalanishi, tabiat va odamzot uyg‘unligini saqlashi, umuman olganda, insonning shu zamindagi hayotining xavfsizligini ta’minlash tushuniladi. Ona sayoramizda ilk qadamlarni qo‘ygan va tafakkur imkoniyati darajasiga ko‘tarilgan uzoq ajdodlarimiz yashash joylarida o‘zlariga xavf solib turgan yirtqichlardan ham xavfli ofatlar bo‘lishini tezda tushinib yetishgan. Chunki, o‘sha davrlarda ham zilzilalar, vulqonlar, to‘fonlar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar insonlarning ojiz va siyrak qabilalariga sezilarli zarar yetkazib turgan.

Insoniyat XXI asrga qadam qo‘yar ekan, o‘tgan davr mobaynidagi sovuq urushlar, tinchlik davrlarida qo‘llanilgan zamonaviy qurollar, turli ko‘rinishdagi falokatlar va boshqa muammolarni tahlil qiladi va yangi asr bo‘sag‘asida bajariladigan tadbirlarni har tomonlama asoslagan holda belgilab oladi. XX asr poyonida xafsiz hayotni ta’minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi, chunki ishlab chiqarishni yuqori taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta’minlashi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodni barqaror rivojlanishiga xavf solib turibdi. Shuning uchun eng muhim vazifalar O‘zbekiston aholisi hayot

faoliyatini va hududini turli xil vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni, ayniqsa fuqaro mehnatini muhofazasini ta'minlash hisoblanadi.

Respublikamiz birinchi prezidenti I.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida “Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiyligi muammosiga aylanganligini ehtiroy etganlar. «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida birinchi prezidentimiz vatanimizning yaxlitligi, aholi xavfsizligi tahdidi to‘g‘risida batafsil to‘xtab o‘tganlar. Oldingi asrda ikki qarama-qarshi siyosiy qarashlarning bir-biriga faol qarshiligi vaqtlarida butun aholi qatlami faqat zamonaviy qirg‘in qurollari va hujumkor vositalardan himoyalanish ruhida tarbiyalangan bo‘lsa, hozirgi vaqtida fuqaro muhofazasi yangi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat asosida shakllanmoqda, mamlakatimizni va aholini turli falokatlar va halokatlardan saqlash ularning mehnatini, yashashini muhofaza etish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilmoqda. Shuning uchun fuqarolarni turli bo‘ladigan ta’sirlardan saqlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblansa, xuddi shunday bizning o‘lkamiz tabiiy ofatlar (yer silkinishi, yer surilishi, sel, suv toshqini va h.k.) bo‘lishiga moyil o‘lka bo‘lganligidan hamda texnogen avariylar va ekologik muvozanatni buzilishi natijasida uning oqibatlaridan, fuqarolar mehnat muhofazasini, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini, moddiy resurslarni, texnikalarni va tabiatni asrash, zarar ko‘rgan hududlarda qutqarish – tiklash ishlarini olib borish ham juda muhim vazifalardan hisoblanadi. Yuqoridagi vazifalarni hal qilishda O‘zbekiston mintaqasi uchun xos bo‘lgan tabiiy ofatlarni, ishlab chiqarish avariylarini va yuzaga keladigan ekologik vaziyatlarni fuqaro hayot faoliyatidagi mehnat xavfsizligini chuqur tahlil etish natijasidagina har qanday vaziyatlardagi moddiy, ma’naviy yo‘qotishlar ko‘lamini qisqartirishga erishish mumkin. Inson va tabiat jamiyat o‘rtasidagi munosabatda ham, inson tabiatning qonunlari va undan kelib chiqadigan ko‘pgina hodisalarning oldida jamiyatlarning o‘rtasida yoki boshqa sabablardan kelib chiqadigan vaziyatlarda hozirda inson ojizlik qilishi mumkin. Tabiat hodisalaridan biri bo‘lgan, so‘nggi yillardagi yer yuzining global isishi bilan bog‘liq bo‘lgan

iqlim o‘zgarishi natijasida dunyoning qator mintaqalarida tabiiy ofatlarni ro‘y berishda o‘sish kuzatilmoqda. Masalan, Yevropadagi o‘tgan yillardagi yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lishi natijasida mintaqada joylashgan ko‘pgina mamlakatlarda, Rossiyaning janubiy qismlarida, Xitoy Xalq Respublikasida kuchli suv toshqinlari bo‘lib o‘tdi. Bu minglab kishilarning uyjoylariga katta moddiy zasar yetkazish bilan birga, aholi hayot muvozanatining buzilishiga olib keldi. Eng ayanchlisi ofatlar oqibatida yuzlab kishilar qurbon bo‘ldi. Ilk shaharlar yuzaga kelganidan so‘ng seysmik faol hududlarida yashovchi aholi vaqtı-vaqtı bilan zilzilalardan katta talofat ko‘ra boshladi. O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng ayanchli fojia 2001 yilning yoz oylarida yuz bergen. Yaqin Sharq va O‘rta yer dengizi sharqiy hududlarida ketma-ket sodir bo‘lgan zilzilalar oqibatida milliondan ortiq insonlar qurbon bo‘lgan. 2011 yil 11 mart kuni Yaponiyada sodir bo‘lgan zilzila natijasida Tokio, Sinday kabi yirik shaharlari va 11 mamlakatning sharqiy qirg‘oqlaridagi ko‘plab aholi punktlari kuchli yer silkinishi va sunamidan katta talofat ko‘rishdi. Bundan tashqari sunami natijasida Fukushima AESida portlash yuzaga kelib, mamlakatda radiatsiya tarqalish bilan bog‘liq favqulodda vaziyat yuzaga keldi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda mamlakatimizni hududida ham kuchli yer silkinishlari sodir bo‘lgan. Jumladan: 838-839 yillarda Farg‘onada, 942 yilda Buxoroda, 1208-1209 yillarda Urganchda, 1490 yilda Samarqandda, 1494 yilda Namanganda, 1620 yilda Axsikentda, 1821-1822 yillarda Buxoro va Samarqand yaqinida talofatli zilzilalar bo‘lib o‘tgan. Ularning ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Axsikent zilzilasi – 1620 yilda Namanganda 5-15 km janubiy-g‘arbida sodir bo‘lgan kuchli zilzila. U qadimiy shahar Axsikentni to‘la vayronaga aylantirgan. Shahar keyin tiklanmagan. Hozirda ayrim arxeologik qoldiqlar saqlangan xolos. Andijon zilzilasi. Andijonda 1902 yili sodir bo‘lgan 9-10 ballik zilzila xalqimiz boshiga tushgan eng qora kunlar va ayanchli voqealarga sabab bo‘ldi. Zilzila tufayli o‘sha paytdagi shahardan nishona qolmadi. Ming-minglab odamlarning yostig‘ini quritdi. Toshkent zilzilasi. Ko‘pchilik yurtdoshlarimizning yodida qolgan yer qimirlashi – 1966 yilning 26 aprelida ro‘y bergen Toshkent zilzilasidir. Bu zilzila Respublikamiz uchun, millatimiz uchun nihoyatda ayanchli tarixiy

voqealari hisoblanadi. Ming-minglab odamlar boshpanasiz qoldi. Favqulodda vaziyatlar hodisalaridan yana biri, bu yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan texnik vositalarning avariya holatlariga tushishi va unda kishilarni bevaqt hayotdan ko‘z yumishlari odamzodni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi. Masalan, Nigeriya, Rossiya, Eron, Germaniya, Ukraina, Keniya va boshqa mamlakatlarda sodir bo‘lgan aviahalokatlar minglab insonlar hayotiga zomin bo‘ldi. Shulardan, 25 mayda Tayvan poytaxti aeroportidan Gonkonga uchgan bortida 225 kishi bo‘lgan «Boing- 747» samolyotining halokatga uchrashi, yoki 27 iyul kuni Ukrainianing Lvov shahri chekkasida o‘tkazilgan aviashou vaqtida «Su-27» qiruvchi harbiy samolyotning va unda 69 kishining jarohat olishi hamda 76 kishini qurbon berilishi inson qalbini larzaga solmasdan kuymaydi. Albatta, bunday misollarni dunyo bo‘yicha yuzlab, minglab misollarda keltirishimiz mumkin. Ayniqsa jamiyatlar, davlatlar o‘rtasidagi tasodiflarda ham, minglab kishilarning hayoti so‘nib kelmoqda. Bu ikkinchi jahon urushi, Afg‘oniston, Iraq, Sobiq Yugoslaviya va boshqa davlatlardagi vaziyatlar, terrorizm o‘choqlari, ayniqsa Amerikadagi, Isroil va Falastin davlatlaridagi, Rossiyadagi Checheniston va Gruziyada bo‘lgan hodisalar misol bo‘la oladi. Juhon hamjamiyati 2005 yilning yanvar oyida Yaponianing Kobi shahrida bo‘lib o‘tgan va tabiiy ofatlar tahlikasini kamaytirishga qaratilgan anjumanda maxsus deklaratsiyani qabul qildi. Xuyugo deklaratsiyasi deb nom olgan mazkur hujjatga binoan davlatlar 2005-2015 yillar oralig‘ida aholi uchun tabiiy ofatlar oqibatini kamaytirish yo‘nalishida ma’lum faoliyatni amalga oshirishlari lozim. Favqulodda vaziyatlar vazirligi va xalqaro bolalar fondi YUNISEF tomonidan Yevropa Ittifoqining inson parvarlik yordami boshqarmasi YUNSKOning moliyaviy yordamida amalga oshirilayotgan loyiha O‘zbekistonning mazkur muhim xalqaro 12 hujjatda aks to‘gan fikrlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi sezilarli qadami bo‘ldi. Dunyo vaqealariga ham-ohang O‘zbekiston Respublikasida ham sodir bo‘layotgan tabiat ofatlari aholi va hukumatimizning diqqat e’tiborini tortibgina qolmasdan, balki tashvishga ham solmoqda. Masalan, 2004 yilda mamlakatimizda 166 ta favqulodda vaziyat yuz bergen bo‘lib, ulardan 127 tasi texnogen va 39 tasi tabiat favqulodda vaziyatlardir.

Bu 2001 yilda 156 ta edi, shunga nisbatan jami 15% ga kamaygan bo'lib, shundan texnogen xususiyatlisi 19%ga kamaygan, tabiat xususiyatlisi 2001 yilgi ko'rsatkichida qolgan. Respublikamizda qayd qilingan favqulodda vaziyatlarning 149 tasi lokal (2001 yilda – 170 ta) 16 tasi mahalliy (2001 yil - 22) va 1 tasi respublika (2001 yil - 2) ko'lamida sodir bo'lган. Respublika hududida qayd etilgan faqulodda vaziyatlarning ko'pchilik ulushi Toshkent (50 marotaba), Qashqadaryo (20) va Farg'ona (17) viloyatlariga to'g'ri keladi. Inson hayot faoliyati xavfi yuqorida keltirilganlardan tashqari, hozirgi zamon global muammo-lardan hisoblangan tashqi muhitni ifloslantiruvchi moddalar va uning ifloslanish darajasining oshib borishi, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, inson organizmining tashqi muhitga moslashib borishi, ishlab chiqarish mikroiqlimining gigienik normalarining buzilishi va boshqa turli vaziyatlar ham inson hayot faoliyati xavfsizlik darajasini oshiradi. Hozirgi vaqtida inson-tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. SHu xavf-xatarlar natijasida juda ko'p insonlar hayotdan ko'z yumadilar (Armanistodagi zilzila, Chernobil AES halokati, Jigaristondag'i yer siljishi, Serdlovskiyda Chelyabinsk-Ufa temir yo'l uchastkasida portlash va h.k.). Shuning natijasida 3000 dan ortiq odam halok bo'ldi. 20000 odam nogiron bo'ldi va 200000 odam kasallandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 42-sessiyasida 1991 yildan boshlab tabiiy ofat va falokatlarni kamaytirish bexatarlik yillari, deb belgilangan edi. Hayotiy faoliyat xafvsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan tahriflar bilan belgilanadi. Faoliyat-insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnatfaoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, inosnning tarifi-harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidadir. Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

HFX insonni har qanday muhitdagi faoliyatida uning xavfsizligi va sog'ligini ta'minlovchi, xavfli va zararli omillardan himoya qiluvchi amaliyot va nazariyani qamrab olgan ilmiy bilimlar majmuidir. Bu fan quyidagi asosiy masalalarni yechadi: - atrof muhitning noqulay ta'sirlarini turkumlaydi (aniqlaydi va sonli

baholaydi); - insonni xavflardan himoyalaydi yoki unga noqulay omillar ta'sirini oldini oladi; - xavfli va zararli omillarni ta'siri salbiy oqibatlarini tugatish; - muhitda insonga normal, shinam sharoit yaratish. HFXning integral ko'rsatkichi hayotning davomiyligi hisoblanadi. TSivilizatsiya taraqqiyoti (ilmiy-texnikaning, iqtisodning rivojlanish, qishloq xo'jaligini industrlashtirish, har xil energiyalardan foydalanish - yadro energiyasigacha, yangi mashina va mexanizmlarni yaratilishi, zararkunandalarga qarshi har xil o'g'itlarning qo'llanilishi) inson sog'ligiga salbiy ta'sir etuvchi zararli omillar miqdorini sezilarli darajada ko'paytirmoqda. SHu sababli ushbu omillardan himoyalash inson hayot faoliyatini taminlashning muhim elementi bo'lib qolmoqda. Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab o'zining ko'payishi davomida iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga xavfsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy sistemasini yaratdi. Buning oqibatida insonga zararli ta'sirlar sonini oshishiga qaramasdan insonning xavfsizligi darjasini ortdi. Hozirgi vaqtda eng rivojlangan mamlakatlarda insonlarning o'rtacha umr ko'rishi 77 yoshni tashkil qiladi. "Hayot faoliyati xavfsizligi" kursi inson organizmi va atrof muhit o'rtasidagi murakkab aloqalarni bilish jarayonini ko'zda tutadi. Insonni muhitga ta'siri fizikaviy qonunlar bo'yicha muhitning barcha tashkil etuvchilari (komponentlari)ni qarama-qarshi ta'sirini yuzaga keltiradi. Inson organizmi u yoki bu ta'sirlarni moslashish chegarasidan oshmaguncha og'riqsiz qabul qiladi. Hayot faoliyati xavfsizligi quyidagi masalalarni ko'rib chiqadi: maishiy muhitdagi xavfsizlik; ishlab chiqarish muhitidagi xavfsizlik; shahar muhitidagi hayot faoliyati xavfsizligi; atrof muhitdagi xavfsizlik; tinchlik va urush vaqtidagi favqulodda holatlar.

Maishiy muhit – bu maishiy sharoitdagi insonga ta'sir qiluvchi barcha omillarning yig'indisidir. Organizmni maishiy omillarga reaktsiyasini fanning sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush tarzining kasallik profilaktikasi bilan aloqasi masalalariga bag'ishlangan mavzularida o'qish mumkin.

Ishlab chiqarish muhiti – bu mehnat faoliyati jarayonida insonga ta'sir qiluvchi omillar yig'indisidir.

Tabiiy muhitdagi xavfsizlik – bu ekologiyaning sohalaridan biridir. Ekologiya organizmni atrof muhit bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O'quv qo'llanma. 2017 y
 2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho'jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: Darslik, 2021.– 370 b.
 - 3.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O'zbekiston, 2017. - 46 b.
 - 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma'ruza kursi. -T.: "Aloqachi", 2005. -355 b.
 - 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. -T.: "Tafakkur-Bo'stoni". 2012 yil, 272 bet.
 - 6.H.G'oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: "Yangi asr avlodi", 2007 y. -264 b.
 7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014.– 268 b.
1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
 3. www.mehnat.uz - O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.

4-Mavzu. Ishlab chiqarish faoliyatida me'yoriy-texnik qoidalar

Ishning maqsadi. *Ishlab chiqarish jarayonlaridagi me'yoriy texnik qonun va qoidalar haqida mustaqil fikr va bilim ko'nigmaga ega bo'ishdan iborat.*

Ishlab chiqarish faoliyatining asosiy sabablari va iqtisodiy mahsulotni yaratish sharoitlari ishlab chiqarish omillari deb ataladi. Ular ma'lum ma'noda ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi kuchlari, ishlab chiqarish salohiyatining ajralmas qismidir.

Oddiy holatda, ishlab chiqarish omillari mahsulot yaratishda ishtirok etadigan mehnat va tabiiy resurslarni o'zida mujassam etgan "mehnat, yer, kapital" uchligi deb tushuniladi. Yaqinda tadbirkorlik muhim omillardan biri sifatida nomlandi. Biroq, ushbu ro'yxat ham to'liq bo'lmaydi. Marksizmda ishlab chiqarish shartlariga shaxsiy va moddiy omillarni hisobga olgan holda mehnat, mehnat

ob'ekti va vositalari kiradi. Insonning ishlash qobiliyatining butun majmui shaxsiydir. Marksistik metodologiya moddiy sifatida ishlab chiqarish va texnologiyani tashkil etishga alohida o'rinn beriladigan murakkab tizimda birlashtirilgan ishlab chiqarish vositalarini tasniflaydi. Ikkinchisi ishlab chiqarishning barcha omillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir deb tushuniladi.

Marginalistik nazariyada ishlab chiqarishning asosiy omillari:

Tabiiy resurslar;

ish;

poytaxt;

tadbirkorlik;

ilmiy-texnik omil.

Tabiiy omil

Tabiiy omil ishlab chiqarish jarayonlari sodir bo'ladigan tabiiy sharoitlarni o'zida mujassam etadi. Xom ashyo va energiya manbalari sifatida moddalar, minerallar, er, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosi keng qo'llaniladi. Ishlab chiqarish omili sifatida tabiiy muhit mahsulot ishlab chiqarishda xom ashyo bo'lib xizmat qiladigan tabiiy resurslardan foydalanishga imkon beradi. Moddiy mahsulotlarning barcha xilma-xilligi shu kabi xomashyodan tayyorlanadi.

Ishlab chiqarishning energetik asosini Yer va Quyosh tashkil etadi. Shu bilan birga, sayyora ishlab chiqarish maydoniga aylanadi, u yerda ishlab chiqarish vositalari joylashgan, ishchilar ishlaydi. Hozirgi kunda yer eng noyob resurslardan biriga aylandi, chunki uning ta'minoti cheklangan. Ushbu turdag'i moddiy ishlab chiqarish sharoitlari tabiiy resurslar va foydali qazilmalar mavjud bo'lgan maydondir. Yer resursining foydaliligi uning qishloq xo'jaligi ishlari va biologik ko'payish uchun mos bo'lishi bilan baholanadi.

Tabiiy omil triadada passiv komponent vazifasini bajaradi. Biroq, transformatsiyalar jarayonida tabiat ob'ektlari asosiy ishlab chiqarish vositalariga o'tadi va asta-sekin faol rolga ega bo'ladi. Ba'zi faktorial iqtisodiy modellarda tabiiy omil yopiq shaklda hisobga olinadi, bu esa uning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri darajasini hech qanday kamaytirmaydi.

Mehnat omili. Mehnat bir qator ishlab chiqarish omillarida ishlab chiqarish jarayonini boshlash uchun mo‘ljallangan element sifatida taqdim etiladi. Ushbu turkum tovarlarni yaratishda bevosita ishtirok etadigan ishchilar mehnati bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, "mehnat" tushunchasi ishlab chiqarishni boshqaradigan va unga barcha bosqichlarda hamrohlik qiladigan turli xil faoliyat turlarini o‘zida mujassam etadi. Mehnat insonning resurslarni (energiya, materiya, ma'lumot) o‘zgartirishda bevosita ishtirok etishidan iborat. Odamlar ishlab chiqarish jarayoniga jismoniy va aqliy kuch bilan hissa qo‘shadilar. Uning barcha ishtirokchilari o‘zlarining mehnatlarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilishadi, har bir mehnat shakli natijada natijaga ta'sir qiladi.

Resursli yondashuvdan foydalanadigan makroiqtisodiy modellarda ishlab chiqarishning asosiy omillarini ko‘rib chiqishda ko‘pincha mehnat emas, balki mehnat resurslari, ya’ni mehnatga layoqatli aholi yoki ishlab chiqarishda band bo‘lganlarning umumiyligi soni alohida ajratib olinadi. tadbirlar. Shuni anglash kerakki, mehnat omili, boshqa narsalar qatori, mehnat sifati, uning samaradorligi, mehnat samaradorligida namoyon bo‘ladi.

Mehnat eng muhim iqtisodiy toifadir, chunki uning xarajatlari ishlab chiqarishni tashkil etilgan tashkil etish samaradorligini belgilaydi. Mehnat faoliyati orqali inson mehnat predmetiga faol ta'sir qiladi. Mehnat jarayonining intensivligi mehnat zichligiga va mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan vaqt miqdoriga ta'sir qiladi. Ushbu ma'lumotlar ishlab chiqarish duch keladigan muammolarni aniqlashga imkon beradi.

Ishchi kuchi boshqa iqtisodiy toifalarni - ishsizlik va bandlikni belgilaydi. Ishchi kuchi tarkibiga u yoki bu tarzda o‘zlarining mehnat ko‘nikmalariga muvofiq ishlab chiqarishda qatnashadigan barcha odamlar kiradi. Inson faoliyati o‘ziga xos xususiyatga ega: ishchi kuchi yillar davomida shakllanib boradi, bu doimiy yangilanishni talab qiladi. Muvaffaqiyatli martaba uchun xodim foydali ko‘nikmalarni saqlab turishi va doimo to‘g‘ri jismoniy shaklda bo‘lishi kerak.

Kapital ishlab chiqarish omili sifatida. Kapital iqtisodiy mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etadigan va bevosita ishtirok etadigan ishlab chiqarish

vositalari sifatida tushuniladi. Kapital ishlab chiqarish faoliyatida turli xil shakllarda paydo bo‘lishi mumkin; uni hisobga olishning turli xil usullari bo‘lishi mumkin. Agar inson mehnati faqat ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratса, u holda kapital ishlab chiqarish faoliyatining maqsadi, maqsadi va mavjud bo‘lish tartibiga aylanadi. Shuning uchun kapital ko‘pincha ahamiyati jihatidan mehnatdan ustun turadi.

Ushbu omil jismoniy va pul kapitalida ham namoyon bo‘ladi. Jismoniy kapital ishlab chiqarishning asosiy vositasidir. Aylanma mablag‘lar, shuningdek, iqtisodiy mahsulot ishlab chiqarish uchun eng muhim moddiy resurs va faoliyat manbaiga aylanadi. Uzoq muddatli istiqbolda bu omil sarmoyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, kapital foyda olish uchun foydalaniladigan har qanday mulk turini anglatadi. Aynan shu maqsadda sanoat jamiyati paydo bo‘lganidan beri unda ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sarmoyalar (kapital qo‘yilmalar) keng qo‘llanila boshlandi. O’zlarining moddiy va moddiy shaklida investitsiya qilingan mablag‘lar asosiy vositalarga aylanib, ishlab chiqarish ja-rayonining omillariga aylanadi.

Bir qator iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, mehnatdan keyin kapital iqtisodiy faoliyat muvaffaqiyati uchun boshqa shart-sharoitlar orasida ikkinchi o‘rinda turadi. So‘nggi paytlarda inson kapitali, shu jumladan xodimning egallagan bilimlari, ko‘nikmalari, ko‘nikmalari va kasbiy tajribasi tobora ko‘proq ajralib turmoqda. Boshqa tadqiqotchilar bunday toifani kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblamaydilar, chunki uning mazmuni asosan mehnat omili bilan qoplanadi.

Ishlab chiqarishning asosiy omillari va daromad turlari. Dominant ishlab chiqarish omillarining har biri ma'lum bir daromad turini yaratadi:

ish haqi mehnatga to‘g‘ri keladi;

yer - ijara haqi;

kapital - foizlar;

biznes - foyda.

Ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasi. Ilm-fan rivojlanishi bilan ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasi ishlab chiqarish omillari qatoriga kira boshladi. Bu ishlab chiqarishning texnologik jihozlanish darajasini, uning texnik jihatdan mukammalligini ifoda etadi. Ushbu omilning ta'siri mehnat unumdorligining o'sishiga va kapitaldan foydalanish samaradorligiga to'g'ri keladi. Ilmiy va texnologik yutuqlar mahsulotlarga bo'lgan talabning oshishiga va sotuvlarning ko'payishiga yordam beradi.

Innovatsion faoliyat ko'pincha ushbu toifada ko'rib chiqiladi. Ishlab chiqarishga joriy etilayotgan texnologik yangilik ishlab chiqarish jarayonini sifat jihatidan yaxshilashga imkon beradigan va bozorga printsipli yangi mahsulotlarni chiqarishga imkon beradigan omilga aylanadi.

Postindustrial jamiyatni shakllantirish sharoitida axborot ishlab chiqarishning muhim omiliga aylanadi. Bu iqtisodiy jarayonlarda aks ettirilgan eng muhim resurslardan biridir. Axborot resurslari jonli mehnatning ajralmas elementiga aylanib, ishlab chiqaruvchi kuchlar tizimining istalgan qismida qo'llaniladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O'quv qo'llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho'jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.

5-Mavzu. Texnosferadagi zararli omillarni insonga ta'siri

Ishning maqsadi. Ishlab chiqarishdagagi ish jarayonlari va atrof muhitning ishchilar organizmiga ta'sirini o'rghanadigan fan mehnat gigienasi deyiladini o'rGANADI.

Mehnat gigienasi va ishlab chiqarish sanitariyasi.

Mehnat gigienasi va ishlab chiqarish sanitariyasi tibbiy profilaktika sohasi bo'lib, ish qobiliyatini yuksak darajada ta'minlash, kasb kasalliklari va odamning mehnat faoliyati bilan bog'liq boshqa salbiy oqibatlarning oldini olishning ilmiy asoslarini va amaliy chora-tadbirlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

To'g'ri tashkil etilgan mehnat, kishining jismoniy intellektual va ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Jamiyatda u nafaqat moddiy farovonlik, balki odamning tetiklik manbai hamdir. Biroq mehnatning ijobiy ta`siri bilan birga ba`zi hollarda salbiy oqibatlari ham bulishi ilgaridan kuzatilgan.

Bu mehnat faoliyati natijalarini kamaytiribgina qolmay, balki kasb kasalliklarni ham vujudga keltirilishi mumkin.

Jamiyatning taraqqiy qilishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ko`plab kasblar yuzaga keldi.

Ishlab chiqarish korxonalarida zararli muhit, u yerda ishlayotgan ishchini ish qobiliyatiga yoki sog`liqqa salbiy ta`sir qila oladigan, hollar ishlab chiqarishda kasbga doir zararlar borligidan dalolat beradi.

Mehnat gigienasi va ishlab chiqarish sanitariyasining asosiy vazifasi, ish unumdorligini eng yuqori darajada oshirish va ishlovchilarning sog`ligiga zararli ta`sir qilmaydigan sharoitlarni ta`minlaydigan tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat. Bunda mehnat gigienasi va ishlab chiqarish sanitariysi, yurak-tomir, onkologik va asab kasalliklarning oldini olishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Fan va texnika taraqqiyoti mehnat gigienasi va ishlab chiqarish sanitariysi oldiga yangidan-yangi vazifalar qo`ymoqda.

Ishlab chiqarish korxonalariga mavjud bulgan tebranma harakat, ishlab chiqarish shovqinlari, elektr va magnit maydonlari, ionlovchi radiatsiya, lazer nurlanishi va yangi kimyoviy moddalarning inson organizmiga xavfli va zararli ta`sirini qunt bilan ilmiy asoslab o`rganish zaruriyati tug`ildi.

Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishdan oldin, ularni inson sog`ligiga xavfli va zararli belgilarini chuqur o`rganib, uni aniqlash o`ta muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Birorta ham yangi birikma, sog`liqni saqlash vazirligining ruxsatsiz xalq xo`jaligiga qo`llanishga tavsiya etilmaydi.

Iqlim ko`rsatkichlari va uning inson salomatligiga ta`siri.

Ishlab chiqarish muhitida iqlim sharoitini ifodalovchi ko`rsatkichlar, havoning harorati, nisbiy namligi, havo bosimi va havoning harakat tezligidan iborat bo`lib, hammasi birgalikda kishining ish qobiliyatiga, mehnat unumdorligiga va inson organizmidagi biologik o`zgarishlarga katta ta`sir ko`rsatadi

Inson tanasidagi doimiy mo`tadil harorat, modda almashuv jarayoni tufayli markaziy nerv a`zosining faoliyati orqali boshqarib turiladi.

Inson uchun orombaxsh, mo`tadil iqlim sharoiti deganda, yuqorida aytilgan havo o`lchamlarining o`zaro mutanosibligi tushuniladi. Bu mutanosiblik odam tanasida harorat almashuvi reaktsiyasini hech qanday zo`riqishsiz kechishini hamda o`zida huzur-halovat sezishi va shu bilan birga ishchanlik qobiliyatini yuqori bulishligini ta`minlaydi.

Ma`lumki haroratning 18-25⁰S, nisbiy namlikni 40-70% va bosimning 740-760mm. sm ustunida bulishi, odam tanasi va uni o`rab turgan havo o`rtasidagi harorat almashinuvi jarayoniga kuchli ta`sir ko`rsata olmaydi, chunki bunday sharoitda muhitlar o`rtasidagi issiqlik almashinuvi mufassal va qoldiqsiz ko`chadi, ya`ni tanadan chiqayotgan issiqlik tezligi uning havoga singib ketish tezligiga teng holda almashinadi. Agar havoning holatida bunday mutanosiblik buzilsa, shu muhitda ishlayotgan odamning salomatligida ham o`zgarish paydo buladi.

Muhitning harorati 18-25⁰ S bulganda odam tanasidan chiqayotgan issiqlik nurlanish yoki harorat almashinuvi qonuni asosida havoga quruq g`ubor holatiga sekin tarqaladi, 30⁰ S dan yuqori haroratda esa bug`lanish sodir buladi, ya`ni tanadagi ortiqcha issiqlik mushaklardan sizib chiqayotgan quvvat ta`siridan yo`l-yo`lakay to`qimalardagi tuz eritmalarini yuvib, teri sirtida ter shaklida paydo buladi.

Muhitning harorati oshgan sari tananing issiqlik uzatish qobiliyati susayib boradi, bug`lanish jarayoni esa to`xtovsiz ortib boradi, natijada organizm tez holsizlana boshlaydi. Agar havodagi nisbiy namlik 80 foizdan ortib ketsa tanadan ajralib chiqayotgan terning bug`lanishi qiyinlashadi va natijada tana bilan muhit o`rtasidagi harorat almashuvi buziladi.

Agar havo harakati tezligi oshib ketsa tana bilan havo o`rtasidagi harorat tafovuti keskin orta boradi, shu sababdan organizm tez soviy boshlaydi, va natijada shamollash bilan bog`liq xastaliklar kelib chiqadi.

Ishlab chiqarish mikroiqlimining gigienik me`yorlari. Ishlab chiqarish mikroiqlimi me`yorlari mehnat xavfsizligi. Standartlari tizimi “Ish mintaqalari

mikroiqlimi” (GOST 12.1005-76) ga asosan belgilangan. Ular gigienik, texnik va iqtisodiy negizlarga asoslangan. Ishlab chiqarish korxonalardagi binolar, yil fasllari va ish toifalariga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan me`yorlari belgilangan

Ish toifalari quyidagicha belgilanadi:

- a) Engil jismoniy ishlar (1-toifa) o‘tirib, tik turib yoki yurib bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo‘riqish yoki yuklarni ko‘tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.s) ni tashkil etadi. Bunga tikuvchilik, aniq asbob-sozlik va shu kabi korxonalar kiradi.
- b) O‘rta og‘irlikdagi ishlarga (2 toifa) soatiga 150-250 kkal (172-293 J.s) energiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga, og‘ir bulmagan (10kg.gacha) yuklarni tashish bilan bog‘liq ishlar (yigiruv-to‘qish ishlari, mexanik-yig‘uv, payvandlash ishlari) shular jumlasidandir.
- v) Og‘ir jismoniy ishlar (3 toifa) muntazam jismoniy zo‘riqish, (10 kg dan ortiq) muttasil yukni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish va ko‘tarish bilan bog‘liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250kkal (293 J.s) dan yuqori buladi. Bunday ishlarga temirchilik, quyuv korxonalarini kiradi.

Ishlab chiqarish xonalar, ish joylaridagi havoning harorati, nisbiy namligi va

harakat tezligining me`yorlari.

Yil fasli	Ish toifalari	Havoning harorati, °S	Nisbiy namligi, %	Harakat tezligi M/s
Sovuq	I - engil	20-23	60-30	0,2
	I a - o‘rtacha og‘irlikdagi	18-20	60-40	0,2
	I b - o‘rtacha og‘irlikdagi	17-19	60-40	0,3
Iliq	III - og‘ir	16-18	60-40	0,3
	I - engil	20-25	60-40	0,2
	I a - o‘rtacha og‘irlikdagi	21-23	60-40	0,3
Issiq	I b - o‘rtacha og‘irlikdagi	20-22	60-40	0,4
	II - og‘ir	18-21	60-40	0,5
	I - engil	20-30	60-30	0,3
	I a - o‘rtacha	20-30	60-30	0,4-0,5

	og‘irlidagi			
	I b - o‘rtacha og‘irlidagi	20-30	60-30	0,5-0,7
	III - og‘ir	20-30	60-30	0,5-1,0

Harorat, nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yo‘l qo‘yilishi mumkin bulgan miqdorlar ko‘rinishida me`yorlanadi va issiqlik holatini saqlanishini ta`minlaydigan mikroiqlim ko‘r-satkichlarining yig‘indisi tushurilib, ish qobiliyatini oshirish uchun shart-sharoit hisoblanadi.

Mo‘tadil iqlim sharoitini yaratish.

Ishlab chiqarish korxonalaridagi ish joylarida iqlim sharoitlarida me`yor darajasida ta`minlash uchun uning barcha ko‘rsatkichlari o‘zaro mutanosib holda bog‘langan bulishi kerak. YA`ni havoning harorati pasayib yoki ko‘tarilib ketsa, uning harakat tezligi ham unga bog‘langan holda pasayishi (yoki ko‘tarilishi) maqsadga muvofiq buladi, aksincha, agar havoning harorati past bulsayu, havoning harakat tezligi me`yordan oshib ketsa, odam tanasi bilan muhit o‘rtasidagi harorat almashish jarayoni tezlashib ketadi va natijada havoning harorati tez tushadi.

Agar havoning harorati yuqori bulsayu, havoning harakat tezligi past bulsa bu jarayon sekinlashadi, natijada issiq havoning inson organizmiga ta`siri kuchayadi.

Havoning harorati, nisbiy namligi va tezlik o‘lchamlarini inson uchun eng ma`qul o‘zaro munosabatlari, yuqoridagi noxush holatlarni oldini olishga xizmat qiladi va muhitning mutanosibligi deb yuritiladi.

MXMT mehnat jarayonida ikki ko‘rinishdagi mikroiqlim sharoitni tashkil etadi.

- a) O‘ta mutanosib (eng ma`qul);
- b) Ruxsat etsa buladigan (qoniqarli).

Bularning ta`sirida insonning vujudida harorat almashinishi va mehnat qilish qobiliyatining buzilmasligini ta`minlangan buladi. Bunday sharoitda haroratning mo‘tadilligi to‘la ta`minlanadi va mehnat qobiliyati yuqori buladi.

Olimlarimiz, shartli ravishda iqlim mutanosibligini aniqlash uchun effektli va ekvivalent-effektli haroratlar ko‘rinishidagi nisbiy birliklar tavsiya etilganlar.

a) effektli harorat deb, binodagi havoning nisbiy namligi me`yor darajasida bo`lib, uning tezligi nolga teng bulgan holatini aks etuvchi haroratga aytildi.

b) ekvivalent-effektli harorat deganda esa, binoda ma`lum nisbiy namlikka va har xil tezlikka ega bulgan havoning haroratiga aytildi.

Mikroiqlim ko`satkichlari va omillarining odamga ta`sirini ko`p yillik kuzatuvlari asosida tahlil qilib eng mo`^tadil iqlim o`lchamlarini shartli ravishda aniqlash uchun nomogramma yaratilgan.

Misol tariqasida temir beton qurilmalar ishlab chiqaradigan zavodning armatura va qoliplash binolarida psixrometr yodamida aniqlangan mikroiqlim ko`rsatkichlari asosida nomogrammadan foydalanib effektli harorat qiymatlarini aniqlash namoyish qilingan bo`lib, binodagi ekvivalent-effektli harorat topilgan u 16^0 S ga teng ekan, qoliplash binosida esa Y_0 , bulgani uchun effektli haroratining shartli miqdori aniqlangan, u 20,2 S ni tashkil etadi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiyo yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

I. Gigienik yo`nalishda:

-salomatlik va ish qobiliyatiga ta`sir qiladigan ishlab chiqarish muhitini omillarini me`yorlash;

-ishlab chiqarish muhitidagi zararli omillarni kamaytirish va yo`qotish yo`li bilan mehnat sharoitlarini yaxshilash.

II. Fiziologik yo`nalishda:

-ish joyi, asboblar, mashina va jihozlarni fiziologik talablarga muvofiq holda bulishiga erishish;

- mehnat va dam olish rejalarini joriy etish;

-mehnatni jismoniy og`irligini kamaytirish , fiziologik jihatdan etarlicha harakat faolligini ta`minlash;

-mehnatning aqliy va emotsiyal toliqtirishini kamaytirish.

III. Psixologik yo`nalish:

- pul'tlar va mashinalar, jihozlar tizimlarini boshqarish uchun boshqa vositalar ixtiro qilishda ruhiy talablarni hisobga olish (muhandislik ruhiyati);

-kasb tanlashda va kasbiy talablarga muvofiq holda shaxsiy ruhiyatlarni hisobga olish;

-jamoalarda qulay ruhiy kayfiyat yaratish, ishlovchilarining mehnat va uning natijalaridan yuqori manfaatdor bulishlarini ta`minlash buyicha tadbirlar ishlab chiqish va joriy qilish.


IV. estetik yo'nalish:

-intererlarni bezatishda, uskunalarni joylashtirishda, ranglar bilan bezatishda va boshqalarda ishlab chiqarish estetikasi talablariga rioya qilish;

-texnik estetika talablarini bajarish, mashinalar, asboblar, pul'tlar singari boshqaruv vositalarini ixtiro qilish.


Qurilishi lozim bulgan ishlab chiqarish korxonalarini loyihalash va qurilish jarayonida sanitariya-gigiena, yong'in xavfsizligi buyicha ma'lum maxsus talablar qo'yiladi.

Qurilayotgan korxonaning ish joylaridagi havoning tozaligi, mehnat fiziologiyasi talablarining bajarilishi, meteorologik sharoitlarga doir sanitariya me`yorlari, ish joylarining yoritilishi, ishlab chiqarishda shikastlanishning oldini olish buyicha choralar qo'llanilishi ustidan nazorat qilib boradilar. Bu ma'lumotlar tahlili va ishchilarining salomatligi to'g'risidagi ma'lumotlar, korxonada xavfsiz mehnatni to'g'ri tashkil qilishga ilmiy va amaliy asos yaratadi .



1-rasm. Nisbiy namlikni o'lchov asboblari:

a) aspiratsion psixrometr; b) PBU-1M psixrometr; v) gigrometr M-19



2-rasm. a - Termoanemometr eA- 2M; 1-o'Ichov asbobi ; 2 –kengaytirgich; 3 – turg'unlashtirilgan tok manbai; 4 – bildirish chirog'i; 5- datchik o'rnatilgan joyi; 6- datchik; 7- quvur ushlagich ; 8- datchikni metall jilti b - SHarikli katatermometr

1- idishning yuqorisi 2 – kapillyar quvurcha 3 – idishning osti

Inson organizmining tashqi muhitga moslashuvi

Ish joyi muhitining ob-havo sharoiti insonning mehnat qilish qobiliyatiga, uning sog'lig'iga juda katta ta`sir ko'rsatadi. Insonning hayot faoliyatida ob-havo omillarining deyarli salbiy yoki ijobiy xolatlarda ta`sirini bilish va uni mo`tadillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash mehnat qilish jarayonida mehnat samaradorligini oshirishga ijobiy ta`sir ko'rsatadi. Qo'llanilgan chora-tadbirlar ba`zi sharoitlarda foydali bulishi yoki zararli bulishi mumkin. Ish bajarilayotgan joylarda havo harorati yuqori bulgan vaqtida ijobiy va harorat past bulgan vaqtida esa salbiy natija berishi kuzatiladi.

Ob-havo sharoitining doimo o'zgarib turishida tana haroratining o'zgarmasligini saqlashni inobatga olib organizmdagi biokimyoviy jarayonlar faoliyatiga yaxshi imkoniyat yaratadi. Tana harorat darajasining ortib ketishi issiqlash, tushib ketishi esa sovish deb ataladi. Issiqlash va sovish hayot faoliyatini buzuvchi halokatli xolatni vujudga keltiradi. SHuning uchun ham inson organizmida tashqi muhit bilan moslashuvchi fiziologik mexanizm mavjud bo'lib, u markaziy asab tizimining nazorati ostida buladi. Bu *fiziologik mexanizmning*

asosiy vazifasi organizmda modda almashinuvi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning ortiqchasini tashqi muhitga chiqarib, issiqlik nisbatini saqlab turadi.

Ish joylaridagi ob-havo sharoitini havoning quyidagi ko‘rsatkichlari belgilaydi:

- havoning harorati, “S” bilan o‘lchanadi;
- havoning nisbiy namligi, % bilan aniqlanadi;
- havo bosimi, R/mm simob ustuni yoki Pa bilan o‘lchanadi;
- ish joyidagi havo harakati tezligi, m/s bilan o‘lchanadi.

Bulardan tashqari ob-havo sharoitiga ta`sir qiluvchi ishlab chiqarish omillari ham mavjud. Bular har xil mashina-mexanizmlar materiallari yuzalaridan tarqaladigan issiqlik nurlari bo‘lib, havo haroratini oshirishga olib keladi. YOz paytlarida korxona hovlisida to‘xtab turgan mashinalar va boshqa temir beton hamda asfal’t qoplamasi materiallaridan tarqalayotgan issiqligi xuddi alangadan tarqalgan haroratga o‘xshaydi. Bular, albatta, korxona hududida havo haroratini oshiruvchi asosiy omillar bo‘lib hisoblanadi.

Bu omillar ta`siridan hosil buladigan harorat korxona xavo muhitining *mikroiqlimi* deb yuritiladi.

Ob-havo omillari mehnat qilish qobiliyatiga va insonning sog‘lig‘iga juda katta ta`sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish sharoitida ob-havo omillarining deyarli hammasi bir vaqtda ta`sir qiladi. Ba`zi sharoitlarda bunday ta`sir ko‘rsatishi foydali bulishi mumkin. Masalan, sovuq sharoitda tananing qurishi natijasida darmonsizlanish ko‘proq uchraydi, ba`zi vaqtarda esa, bir-biriga qo‘silishi natijasida zararli ta`sir darajasi ortib ketishi mumkin. Ana shunday, nisbiy namlik va haroratning ortib ketishi inson uchun og‘ir sharoitni vujudga keltiradi. Bundan tashqari, ish joylaridagi havo harakatini oshirish harorat yuqori bulgan vaqgda ijobiy va harorat past bulgan vaqtda esa salbiy natija beradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ob-havo omillari ba`zi hollarda kishiga ijobiy va ba`zan esa salbiy ta`sir ko‘rsatib, inson organizmining tashqi muhitga moslashuvini buzib yuborishi mumkin. Tanada muhitga moslashuv - bu inson organizmining fiziologik va kimyoviy jarayonlar asosida tana haroratining bir xil chegarada (36—37°S) saqlab turish qobiliyati, demakdir.

Tashqi muhitga moslashuv ikki xil: fizik va kimyoviy bulishi mumkin. Tashqi muhitga kimyoviy moslashuv organizmning issiqlash davrida modda almashinuvini kamaytirishi va sovishi natijasida modda almashinuvini oshirishi, ammo tashqi muhitga kimyoviy moslashuv uning keskin o‘zgarishi borasida tashqi muhitga fizik moslashuvga nisbatan ahamiyati katta emas. Organizmning tashqi muhitga issiqlik chiqarishi uch yo‘l bilan o‘tishi mumkin:

- odam tanasining umumiy yuzasida infraqizil nurlanish orqali (radiatsiya orqali havo almashinuvi);
- tanani o‘rab turgan havo muhitini isitish (konvektsiya);
- terining terlab bug‘lanishi va nafas olish yo‘llari orqali suyuqliklarning bug‘lanishi natijasida.

Me`yoriy sharoitda, kuchsiz havo harakati bulgan holatlarda harakatsiz odam tanasi radiatsiya yo‘li bilan organizm ishlab chiqarayotgan issiqlikning 45 foizini, konvektsiya natijasida 30 foiz va terlash orqali 25 foizini yo‘qotishi aniqlangan. Bunda teri orqali umumiy issiqlikning 80 foizidan ortig‘i, nafas olish a`zolari orqali 13 foiz va taxminan 5 foiz issiqlik ovqat, suv va havoni isitishga sarflanadi.

Radiatsiya va konvektsiya orqali issiqliknini yo‘qotish faqat tashqi muhit harorati tana haroratidan kam bulgan hollarda bulishi mumkin. SHuni aytib o‘tish kerakki, tashqi muhit harorati qancha past bulsa, issiqlik yo‘qotish shuncha kuchli buladi.

Tashqi muhit harorati tana haroratidan yuqori yoki teng bulsa, u holda issiqlik ajratish terlab bug‘lanish hisobidan buladi. 1 gramm terni bug‘latish uchun 2,5 kJ (0.6 kkal) issiqlik yo‘qotiladi.

Organizmdan chiqadigan terning miqdori tashqi muhit haroratiga va bajariladigan ish kategoriyasiga bog‘liq. Harakatsiz organizmda, tashqi muhit harorati 15°S ni tashkil qilsa, terlash juda kam miqdorni (soatiga 30 ml) tashkil qiladi. YUqori haroratlarda esa (30°S va undan yuqori), ayniqsa og‘ir ishlarni bajarganda organizmning terlashi juda ortib ketadi.

Masalan, issiq paytlarda, og‘ir ishlarni bajarish natijasida terlash miqdori soatiga 1 - 1,5 litrga etadi va bu miqdor terning bug‘lanishi uchun 2500-3800 kJ (600-900 kkal) issiqlik sarflanadi.

SHuni aytib o‘tish kerakki, terlash yo‘li bilan issiqlik sarflash faqatgina tana yuzasida ter bug‘langandagina amalga oshadi. Terning bug‘lanishi esa havoning harakatiga va nisbiy namligiga, kiygan kiyimining matosiga bog‘liq.

Faqat terlash yo‘li bilan issiqlik yo‘qotilganda havoning nisbiy namligi 75—80 foiz ortiq bulsa, terning bug‘lanishi qiyinlashadi va organizmning tashqi muhitga moslashuvi buzilishi natijasida issiqlash yuz berishi mumkin. Issiqlashning birinchi belgisi tana haroratining ko‘tarilishidir. Kuchsiz issiqlash tana haroratining engil ko‘tarilishi, haddan tashqari ter chiqishi, kuchli chanqoq, nafas olish va qon tomirlar urishining tezlashishi bilan chegaralanishi mumkin. Agar kuchli issiqlash yuz bersa, unda nafas olish qiyinlashadi, bosh qattiq og‘riydi va aylanadi, nutqi qiyinlashadi.

Tashqi muhitga moslashishning bu xildagi buzilishi va tana haroratining keskin ko‘tarilishi *issiqlik gepatermiyasi* deb ataladi.

Issiqlashning ikkinchi belgisi terlash natijasida inson organizmining ko‘p miqdorda tuz yo‘qotishi natijasida kelib chiqadi. Bu holat teri hujayralarida tuzning kamayishi tufayli, terining suvni ushlab qolish qobiliyati susayganligidan kelib chiqadi. Ichilayotgan suv tinmay ter bo‘lib chiqib ketganligi sababli, organizm kuchli chanqoklik sezadi, ichilgan suvning tezda chiqib ketishi chanqoqni yana kuchaytiradi va bu suv bilan zaharlanish holatini vujudga keltirishi mumkin. Bunda organizmning paylarida qaltirash paydo buladi, kuchli terlash va qonning quyuqlashishi kuzatiladi. Bu holat qaltirash kasalligi deb yuritiladi. Keyin issiq urish vujudga keladi, tana qarorati 40—41°S ga ko‘tarilib, odam hushini yo‘qotadi va qon tomirlarining urishi kuchsizlashadi. Bu vaqtda organizmdan ter chiqish butunlay to‘xtaydi. Qaltirash kasali va issiq urish o‘lim bilan tugashi mumkin.

Tashqi asab tizimlarining sovuq urishi natijasida suyaklarda radikulit, oyoq-qo‘l va bel bug‘inlarida hamda paylarda revmatizm kasalligi, shuningdek plevrit,

bronxit va boshqa shamollash bilan bog‘liq bulgan yuqumli kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Odam organizmiga sovuqning, ayniqsa, havo harakatining ta`siri kuchli bo‘lib, havoning nisbiy namligi yuqori bulgan vaqtida bu yaqqol namoyon buladi.

CHunki sovuq haroratdagi nam havo issiqlikni yaxshi o‘tkazadi va havo almashish (konvektsiya) orqali issiqlik yo‘qotishni kuchaytiradi.

Havo harorati, °S	Nisbiy namligi, %	Harakat tezligi, m/s	Tashqaridagi havo harorati, °S
19-25	75	0,2	15-30
17-25	75	0,2	15-30
13-25	75	0,4	15-30
13-25	75	0,5	15-30

Harorat, nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yo‘l qo‘yilishi mumkin bulgan miqdorlar ko‘rinishida belgilanadi. Risoladagi miqdorlar deganda odamga uzoq muddat va muntazam ta`sir qilganda tashqi muhitga moslashuv reaksiyalarini kuchaytirmasdan organizmning me`yoriy faoliyatini va issiqliq holatini saqlashni ta`minlaydigan mikroiqlim ko‘rsatkichlarining yigindisi tushunilib, ular issiqlik sezish mo‘tadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini oshirish uchun shart-sharoit hisoblanadi.

Yo‘l qo‘yilishi mumkin bulgan mikroiqlim sharoitlari organizmning faoliyatini va issiqlik xolatdagi o‘zgarishlarni, fiziologik moslanish imkoniyatlaridan chetga chiqmaydigan tashqi muhitga moslashish reaksiyalarining kuchayishini bartaraf etadigan va tez me`yorga soladigan mikroiqlim ko‘rsatkichlarining yig‘indisidir. Bunda sog‘liq uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq nomo‘tadil issiqlik sezgilar, kayfiyatning yomonlashuvi va ish qobiliyatning pasayishi kuzatilishi mumkin. 6.1, 6.2, 6.3-jadvallarda mikroiqlimning risoladagi va yo‘l qo‘yilishi mumkin bulgan me`yorlari keltirilgan. Doimiy ishlarda 6.1 jadvalda keltirilgan mikdorlar ta`minlanishi lozim, ular havoni mo‘tadillashtirishda ham majburiydir. Qator hollarda, masalan, issiqlik ko‘p ajralib chiqadigan yoki isitiladigan xonalarning hajmi katta bulgan metallurgiya, mashinasozlik va boshqa zavodlarda yo‘l qo‘yiladigan me`yorlarga (6.1, 6.2-

jadval) asoslanish mumkin, biroq mehnat va dam olish holatlariga qo‘yiladigan gigienik talablarga, organizmning issiqlab ketishi va sovuq qotishini oldini olishga qaratilgan barcha vositalaridan foydalanishga ham amal qilish zarur.

Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan me`yorlar yilning sovuq va bir mavsumdan ikkinchisiga o‘tish davrlarida (tashqi havoning) o‘rtacha kundalik harorati +10 °S dan yuqori (yoki muvofiq holda past) doimiy ish joylaridan tashqarida (6.1-jadval) birmuncha katta raqamlarda o‘zgarib turishi, yilning issiqligini paytida esa (6.2-jadval) ish joylari havosining oshgan harorati (ayniqsa, Markaziy Osiyo sharoitida va issiqlik ajralib chiqishi mumkin bulgan ish joylarida) issiqlikning ancha ortiqcha bulishini kuzda tutadi. Bu tashqi muhitning issiqligi bilan birga katta miqdordagi issiqlikni yo‘qotishning qiyinligi bilan bog‘liq.

Biroq bu holda ham me`yorlar yo‘l qo‘ysa buladigan maksimumni chegaralaydi. Issiqlik ajralishi yuqori bulgan ish joylarida havoning harakat tezligi ham birmuncha ortiqcha belgilanadi.

Xonalarning katta-kichikligi, bir vaqtning o‘zida ham issiqlik, ham namlikning ajralishi, doimiy harorat va namlik kabilarni sun’iy usulda tutib turish sharoitlarini hisobga oladigan koeffitsientlarni ishlab chiqish lozim buladi. Ish nechog‘liq og‘ir bulsa, harorat shunchalik past va havo harakati shuncha yuqori buladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlod”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.

6-MAVZU. FANNING IQTISODIYOT TARMOQLARIDA TUTGAN O'RNI

Darsning maqsadi: Talabalar fanning iqtisodiy tarmoqlarda tutgan o'rni bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladilar.

Insoniyatning uzoq o'tmish hayotiy tajribasi har qanday faoliyat potensial xavfga ega ekanligini tasdiqlaydi. Albatta, bu tasdiq aksio-maviy xususiyatga egadir. Vaholanki, ishlab chiqarish sharoitida xavf darajasini boshqarish hamda kamaytirish ham mumkin. Lekin qanday holatda bo'lmasin, absolyut xavfsizlikka erishib bo'lmaydi.

Xavfsizlik - ma'lum darajada xavf tug'ilishi bartaraf etilgan faoliyat holati, ya'ni faoliyatni amalga oshirishdagi asosiy maqsadlardan biridir.

Mehnatni muhofaza qilish - ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vositalar usullar majmuidir. Demak, insonning mehnat xavfsizligini ta'minlash birinchi navbatda uning mehnat faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rganishni talab etadi. Shu sababli, inson mehnat faoliyatining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384-322-yillarda ijod qilgan Aristotel, eramizdan oldingi 460-377-yillarda yashagan Gippokrat asarlarida ham uchraydi.

Tiklanish davrining buyuk, taniqli olimi Paratsels (1493-1541-y.) tog' ishlarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rganib chiqqan. U o'z asarlarida: «Barcha moddalar zahardir va barcha moddalar dori-darmon hamdir. Faqat bir me'yor ushbu moddani za-harga aylantirsa, ikkinchi me'yor esa uni dori-darmonga aylantiradi», deb yozadi. Nemis olimi Agrikol (1494-1555- y.) o'zning «Tog' ishlari haqida» *nomli* asarida, shuningdek, italyan olimi Ramatstsin (1633-1714-y.), rus olimi M. V. Lomonosov (1711-1765-y.) o'z asarlarida mehnat muhofazasi masalalariga katta e'tibor qaratgan.

XIX asrda sanoatni intensiv rivojlanishi natijasida mehnat muhofazasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qancha olimlar yetishib chiqdi. Jumladan, V.L.Kirpichev (1845-1913-y.), A.A.Bess (1857-1930-y.), D.P.Nikolskiy (1855-1918-y.), V.A.Levitskiy (1867-1936- y.), A.A.Skochinslay (1874-1960-y.), S.I.Kaplun (1897- 1943-y.) shular jumlasidandir. Yuqorida ta'kidlanganidek, mehnat xavfsizligini ta'minlash qadimgi davrdan hozirgi kungacha

inson faoliyatining muhim tomonlaridan biri hisoblanib kelindi. Shu sababli «Mehnatni muhofaza qilish» mustaqil fan sifatida shakllandi va o‘z nazariyasiga, uslubiga hamda tamoyillariga ega bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda «Mehnatni muhofaza qilish» fani muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, mehnat fiziologiyasi, mehnat gigiyenasi, antropometriya, ergonomika, texnikaviy estetika kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bir-biridan tadqiqot qilinadigan yoki o‘rganiladigan obyektlarining turi, ya’ni «inson-mashina», «inson-muhit», «inson-mashina- muhit» tizimlari bilan farq qiladi. Birinchi turdagи tizimlar qonuniyatlarini muhandislik psixologiyasi,, psixofiziologiya, mehnat fiziologiyasi o‘rgansa, «inson-muhit» tizimi qonuniyatlarini mehnat gigiyenasi o‘rganadi. «Inson- mashina-muhit» qonuniyatları esa ergonomikaning asosiy tatbiq obyekti hisoblanadi. Lekin, real ishlab chiqarish sharoitida barcha turdagи bog‘lanishlar bir vaqtida yuzaga keladi va shu sababli inson o‘z mehnat faoliyatida bir necha omillar bilan bog‘lanadi, o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Shu sababli, ishlab chiqarish sharoitidagi umumlashgan xavfli va zararli faktorlarning inson sog‘ligi va mehnat qobiliyatiga birqalikdagi ta’sirini alohida mustaqil fan - «Mehnatni muhofaza qilish» fani o‘rganadi.

«Mehnat muhofazasi» - bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavf-sizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatini saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyenik va davolash profilaktik tadbirlar hamda vositalar tizimidan iboratdir.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati

Ishlab chiqarish vaqtida ishchilar va xodimlar salomatligini saqlash, ularning mehnatini to‘liq muhofaza etish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu respublikamizning «Mehnatni muhofaza qilish» to‘g‘risidagi qonunida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda quyidagilar alohida ta‘kidlangandir:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog‘ligi ustuvorligi;
- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy

siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan muvofiqlashtirib borish;

- mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat‘i nazar, barcha korxonalar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona tartib-qoidalar belgilab qo‘yish;
- mehnatni ekologiya jihatidan xavfsiz sharoitlar yaratilishini va ish joylarida atrof-muhit holati muntazam nazorat etilishini ta‘minlash;
- korxonalarda mehnatni muhofaza qilish talablari hamma joyda bajarilishini nazorat qilish;
- mehnatni muhofaza qilishni mablag‘ bilan ta‘minlashda davlatning ishtirok etishi;
- oliy o‘quv yurtlarida mehnat muhofazasi bo‘yicha bakalavrlar va magistrlar tayyorlash;
- xavfsiz texnika, texnologiyalar va xodimlarni himoyalash vositalari ishlab chiqilishi hamda joriy etilishini rag‘batlantirish;
- fan, texnika yutuqlarida hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha vatanimiz va chet el ilg‘op tajribasidan keng foydalanish;
- ishlovchilarni maxsus kiyim va poyabzal, shaxsiy himoya vositalari, parhez ovqatlar bilan bepul ta‘minlash;
- korxonalarda mehnatning sog‘lom va xavfsiz shart- sharoitlarini yaratishga ko‘maklashuvchi soliq siyosatini yuritish;
- ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisani va har bir kasb kasalligini tekshirib chiqish hamda hisobga olib borishning va shu asosda ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar hamda kasb kasalliklariga chalinishlar darajasi haqida aholini xabardor qilishning majburiyligi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga Yo‘liqqan ishlovchilarning manfaat- larini ijtimoiy himo-yalash;
- kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari, korxo-nalar hamda alohida shaxslaming mehnatni muhofaza qilishni ta‘-minlashga qaratilgan faoliyatini har tomonlama qodkb- quvvatlash;
- mehnatni muhofaza qilish muammolarini hal etish chog‘ida xalqaro hamkorlikni Yo‘lga qo‘yish tamoyillariga asoslanadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.

7-MAVZU.XODIMLAR UCHUN HIMOYA VOSITALARINI TAYINLASH VA TASNIFLASH.

Darsning maqsadi: Maxsus kiyim, maxsus poyavzal va shaxsiy himoya vositalarini saqlab borish va ulardan foydalanish tartibi bilan tanishish. SHHV sonlarini hisoblash va ularga buyurtma tuzishni o‘rganish.

UMUMIY NIZOM

Mavjud qonun va soha xujjalarda belgilangan me’yor bo‘icha asosiy maxsus kiyim, maxsus poyavzal va shaxsiy himoya vositalari bepul beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunlari kodeksi.

174 -modda. Maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalarini berish. Mehnat sharoiti zararli bo‘lgan ishlarda, yuqori harorat sharoitida, bajariladigan ishlarda yoki ifloslantiriladigan ishlarda ishlovchi ishchi va xizmatchilarga belgilangan me’yor bo‘yicha maxsus kiyim, maxsus poyavzal va boshqa SHXV tekinga beriladi.

176-modda. Sovun va zararsizlantiruvchi vositalar berish. Ifloslanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarda ishlovchi ishchi va xizmatchilarga belgilangan me’yor bo‘yicha tekingasovun beriladi. Teriga zararli ta’sir qiluvchi moddalar bilan ish-

lovchilarga belgilangan me'yor bo'yicha yuvish va zararsizlantirish vositalari tekin beriladi.

Yo'riqnomadan ko'chirmalar

Ma'muriyat namunaviy sohalarni me'yorlari va ishlatish muddatlariga mos ravishda maxsus kiyim, maxsus poyavzal va himoya vositalarini ishchi va xizmatchilarga berish shart.

Ishchi va xizmatchilarga beriladigan maxsus kiyim, maxsus poyavzal va boshqa ShHV korxona mulki hisoblanadi va ular ishdan bo'shagancha, shu korxonada bir joydan ikkinchi joyga ishga o'tkazilganda, shuningdek, ishlatish muddati tamom bo'lib, yangi kiyim-bosh, poyavzal va maxsus poyavzal, tayyorlash uchun material yoki ularni olish uchun pul mablag'lari bilan almashtirishga ruxsat beriladi.

Ishchi va xizmatchilarga beriladigan kiyim, poyavzal va ShHV davlat standarti va soha standartlari, texnikaviy shartlar talabalariga javob berish va foydalanishga qulay bo'lishi kerak.


Har yili 15-fevralgacha tuziladigan buyurtma korxonadagi ishchi va xizmatchilarni soha va lovozimda ishlovchilarni xotin va erkaklarni alohida-alohida ularni bichimi, bo'yi, modeli, materiallar turi va himoya moddalar bilan to'yintirilgandagi (shimdirilgan) sonlari talablar bo'yicha hisobga olinib yozilishi (ko'rsatilishi) kerak.

Omborxonaga kelgan har bir buyurtma ma'muriyat va kasaba uyushma xodimlar komissiyasi bilan tekshiriladi va ularni kiyishga yaroqligi va sifati haqida dalolatnama tuzilib qabul qilinishi kerak. Davlat standartlari va texnikaviy shartlar talabalariga javob bermaydigani qaytarilishi kerak. Himoya vositalari alohida quruq xonalarda saqlanishi kerak.

Rezinali matodan tikilgan maxsus kiyim va poyavzal, xona xarorati 5 °C dan 20 °C gacha havo nisbiy namligi 50-70% bo'lgan xonalarda saqlanadi.

Har bir maxsus kiyimga korxonani muxri bo'lishi kerak. Ulardan foydalananish muddati ishchi va xizmatchilarga berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Agar ishchi va xizmatchilarga bog‘liq bo‘lgan ayrim sabablarga ko‘ra belgilangan muddatgacha bo‘lgan davrda himoya vositalari, kiyim, poyavzal foydalanishga yaroqsiz holatiga kelgan bo‘lsa, korxona ularni almashtirish yoki ta‘mirlab berish lozim. Almashtirish kasaba uyushmasi vakili qatnashgan tarzda ma’muriyat tomonidan tuzilgan dalolatnama asosida bajariladi. Foydalanish muddatigacha ishdan chiqqan, lekin yaroqsiz himoya vositalari, kiyim va poyavzal bilan ta‘minlanishi kerak. Yaroqsiz holatga kelganda ular xo‘jalik hisobidan chiqarilib ta‘mirlash materiali sifatida foydalaniladi. Bularda yaxshi yuvilib, tozalanib, dezinfeksiya qilgandan keyin boshqa ishchi xizmatchilarga berilish mumkin. Ishlatish muddati ularni yaroqligi darajasiga qarab komissiya tomonidan belgilanadi.



1-rasm. **Himoya kambinzoni va kostyumlari** (kurtka, shimplari)

Ayrim ishlarni vaqtincha bajaruvchi shaxslarga belgilangan me’yor (norma) bo‘yicha ishlarni bajarish vaqtida beriladi.

Maxsus kiyim-bosh, poyavzal va himoya vositalari bilan ishchi va xizmatchilarni o‘z vaqtida ta‘mirlash korxona rahbariga yuklanadi. Ularni bajarilishini nazorat qilib turish esa kasaba uyushmasiga topshiriladi. Xo‘jalik har yili maxsus kitob bo‘yicha ma’lum nusxada buyurtma tuzadi. Buyurtmada qo‘yidagi bo‘limlar bo‘ladi.

Ishchi va xizmatchilar ish vaqtida ularga beriladigan kiyim, poyavzal va boshqa SHHVdan albatta foydalanishi shart. Ma’muriyat ularni nazorat qilishni va

bu talabalar buzilishiga yoki nosoz ximoya vositalarini qo'llanishiga ruxsat bermaslik kerak.

Ma'muriyat ularni saqlash uchun sanitar me'yorlari talabiga mos bo'lgan joyonlar bilan ta'minlash kerak. Ularni saqlanishiga har bir ishchi va xizmatchi javob beradi.

Himoya vositalarini yuvish, tozalash, dezinfeksiya va ta'mirlash korxona hisobiga bajariladi. Ishchi va xizmatchi berilgan kiyimbosh, poyavzal va boshqa himoya vositalarini shaxsiy korxonalarga yoziladi.

Ularni berish, foydalanish va unga taalluqli bo'lgan masalalarni maxsus komissiyada ko'rib chiqiladi.

Sohalar bo'yicha ishchilar soni:

Maxsus kiyim.

Maxsus poyavzal.

Saqlagich moslamalar.

Shaxsiy himoya vositalarini berish normalari va muddatlari ko'rsatilgan ma'lumotlar berilgan.

Шлём-ниқобнинг талаб қилинадиган Ниқобнинг талаб қилинадиган ростини аниқлаш учун 2-жадвал ростини аниқлаш учун 3-жадвал

ShAXSIY VARAQА

Tashkilot-----

Maxsus kiyim , maxsus oyoq kiyim, saqlagich moslamalar.

Familiya -----

Jinsi-----

Ismi -----

Sharifi -----

Bo'y-----

Tabel nomeri -----

O'lchamlari---

Ishlash uchastkasi -----

Kiyim-----

Ishga kirgan vaqt-----

Kasbini o'zgartirgan vaqt-----

Belgilangan norma asosida:

Texnika xavfsizligi bo‘yicha injener _____

Bosh hisobchi _____ *sana* _____

Maxsus kiyimlar.

Tashqi muhit ta’siridan moy, kislota, shelochlar, metal parchalari, past temperaturali suvdan, issiqliqdan, sovuqdan, himoya qilishga mo‘ljallangan. Maxsus kiyimlarga kostyum, kambinzon, fartuk, xalat va paxtali fufaykalar kiradi.

Maxsus kiyimlarga tabiiy matodan tayyorlangan havo o‘tkazadigan, terlaganda namni shimiydigan, engil va qulay, chidamli, issiq va sovuqdan himoyalovchi, korjamolardan tortib maxsus chang o‘tkazmaydigan, rezinasimon, moy shimdirligil maxsus brezentdan tikilgan payvandchilarning kiyimlari ham misol bo‘ladi.

Maxsus oyoq kiyimlar.

Maxsus oyoq kiyimlar oyoqlarni har xil atrof-muhit zararidan namlik, sovuq, issiqliqdan, mexanik zararlanishdan har xil asbob va jihoslarning tushib ketganda shikastlanishdan, yuqori temperaturalardan, aggressiv moddalardan (kislota, ishqor, neft mahsulotlari va orgnik eritmalaridan) himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Maxsus oyoq kiyimlarga maxsus kiyimlarga mos ravishda kerzi etiklar, botinkalar, yarim botinkalar, rezina etiklar, rezina kalishlar, piymalar, elektriklar uchun rezina bo‘tilar va mol tersidan tikilgan avgankalar beriladi.

Himoya jihozlari.

Ishchilarning havfsizligini ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Balandlikka chiqqanda va chuqurlarga tushganda qo‘llaniladigan yenli kamar va tasmalar.

Ko‘zlarni shamol, mayda chang zararlardan, kimyoviy, agresiv moylardan, turli xil mexanik zarralar (metal, yog‘och, qipiqlari, charx tosh zaralari)dan himoya qilish uchun ishlatiladigan turli xil ko‘z oynaklar. Elektr payvandlash uchun esa maxsus qoraytirilgan shitok va niqoplardan foydalanilamiz.

Odam boshini himoya qilish uchun maxsus kaskalar.

Eshitish organlarini himoya qilish uchun shovqinga qarshi himoya jihozlari.

Nafas olish organlari va ovqat hazm qilish organlarini himoya qilish uchun raspiratorlar va gaz niqoblar bo‘lib, ular filtrli va izolyasion turga bo‘linadi. Odam terisini himoya qilish uchun turli xil pastalar mavjud.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
4. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
5. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
6. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.

8-Mavzu: Irrigasiya sohasida mehnat muhofaza qilish jarayonida asosiy xavf-xatarlar.

Darsning maqsadi: *Irrigasiya sohasidagi mehnat muhofaza qilish jarayonida asosiy xavf-xatarlar haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.*

Dehqonchilik uchun zarur bo‘lgan yerni sun’iy sug‘orish. Yog‘ingarchilik kam bo‘lgan joylarda ekinlarni yetishtirishga imkon beradi. Misr, Osiyo va Yaqin Sharqdagi birinchi sug‘orish tizimlari miloddan avvalgi 3000 yilga to‘g‘ri keladi. Miloddan avvalgi davrda daryolardan yaqin atrofdagi dalalarga suv olib kelish uchun sug‘orish kanallari va suv omborlari qurilgan.

Keyinchalik oddiy mexanik qurilmalar, shu jumladan, daryo va soylardan sug‘orish kanallariga suv olib kelish uchun ishlataladigan ARCHIMED VINTI yaratildi. Hozirgi vaqtida sug‘orish uchun suvning katta qismi yer usti yoki yer osti suvlaridan olinadi. Yer usti suvlari - daryolar, daryolar va ko‘llar. Daryo bo‘ylab to‘g‘on qurish ko‘p miqdorda suv to‘planishiga, sun‘iy ko‘l yoki suv omborini yaratishga imkon beradi. Bu suv quruq mavsumda sug‘orish uchun ishlataladi. Yer osti suvlari quduqlardan olinadi. Ayrim hududlarda buning uchun suv Drenaj yo‘li bilan olinadi va kanallar, ariqlar, nasoslar va quvurlar tizimi orqali dalalarga yetkaziladi.



1-rasm. Irrigasiya sohasida asosiy xavflar

Grekchada "*trauma*"- shikastlanish degan ma‘noni anglatadi. Organizmga ta’sir qilish omiliga ko‘ra shikastlanishning quyidagi turlari farqlanadi.

- 1)Mexanik shikastlanishlar (kuchli zarb tegishi, ezilish, cho‘zilish).
- 2)Fizikaviy shikastlanishlar (issiq va sovuq ta’siri, elektr toki ta’siri, radioaktiv nurlanishlar)
- 3)Kimyoviy shikastlanishlar (kislotalar, ishqorlar ta’siri).
- 4)Ruhiy shikastlanishlar (qattiq qo‘rqish, vahima qilish).

Gidromelioratsiya tizimini ekspluatatsiya qilishda ish jarayonlarining xavfsizligi quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- 1.Ishlab chiqarishining ilg'or texnologiyasi va texnika xizmat qilishining ilg'or usullarini qo'llash;
- 2.Uskunalarni ratsional joylashtirish;
- 3.Ishlovchilarni kasbiy tanlash va o'qitish, ularga himoya vositalarini qo'llatish;
- 4.Xavfsizlik talablarini texnologik hujjatlarga kiritish va xavfsizlik talablarini nazorat qilish;

Meliorativ texnikalardan foydalanishda xavfsizlik

Texnik holati. Meliorativ tashkilot balansida ko'plab texnikalar, mashinalar, asbob-uskunalar bo'ladi. Ular bajaradigan vazifalari bo'yicha meliorativ Har bir mashina, texnika va asbob-uskunalar o'zining texnik pasportiga ega bo'lishi lozim, inventar tartib raqami mavjud bo'ladi. Ularning mavjudligi haqida maxsus jurnalda qayd etiladi. Tashkilotning buyrug'i bilan mexanizator yoki boshqaruvchiga berkitiladi. Ma'muriyat xizmat ko'rsatuvchini ekspluatatsiya qilish bo'yicha yo'riqnomaga bilan ta'minlaydi.

Suv xo'jaligi qurilishida asosan quyidagi ishlar bajariladi:

- yer ishlari;
- beton ishlari;
- temir-beton;
- yig'ish (montaj);
- tosh;
- yog'och;
- armatura;
- maxsus va boshqalar

Ichki xavflar ma'muriy boshqaruvdagi kamchiliklar, texnika boshqaruvchilarining bilimsizligi, texnikalarning nosozligi sababli hosil bo'ladigan xavflardir. Bu xavflarning oqibati aksariyat holatlarda tan jarohati bilan kuzatiladi. Birinchi guruh xavflar aksariyat kasallanish va qisman jarohatlanish bilan kuzatiladi.

Potentsial xavflarni ochiq xavfga aylanish holatini kamaytirish yoki bartaraf qilish ya’ni xavfsizlantirish maqsadida quyidagi talablar qo‘yiladi:

- qurilishni loyihalashni sifatli bajarish, unda tabiiy sharoitni to‘g‘ri hisobga olish;
- qurilish tashkilotida mehnat muhofazasi ishini kerakli darajada yo‘lga qo‘yish;
- mexanizm boshqaruvchilarini va unda ishlovchilarning texnika xavfsizligi bo‘yicha keraklicha bilimga ega bo‘ldirish;
- mexanizmlarni ishlatalish va ishchilarni ish faoliyati ustidan doimiy nazoratini o‘rnatish.

Meliorativ texnikalar va ularga servis xizmati ko‘rsatishda xavfsizlik talablari;

Meliorativ texnikalar deb qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish maqsadida erlearning meliorativ holatini yaxshilash uchun bajariladigan ishlarda qo‘llaniladigan texnikalar tushuniladi. Melioratsiya so‘zi lotincha iboradan olingan bo‘lib, “yaxshilash” degan ma’noni bildiradi.

Meliorativ texnikalardan foydalanishda xavfsizlik

Texnik holati. Meliorativ tashkilot balansida ko‘plab texnikalar, mashinalar, asbob-uskunalar bo‘ladi. Ular bajaradigan vazifalari bo‘yicha meliorativ, transport va boshqa turlarga bo‘linadi. Har bir mashina, texnika va asbob-uskunalar o‘zining texnik pasportiga ega bo‘lishi lozim, inventar tartib raqami mavjud bo‘ladi. Ularning mavjudligi haqida maxsus jurnalda qayd etiladi. Tashkilotning buyrug‘i bilan mexanizator yoki boshqaruvchiga berkitiladi. Ma’muriyat xizmat ko‘rsatuvchini ekspluatatsiya qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar bilan ta’minlaydi.

Yer osti ishlari

Yer osti ishlarini bajarish murakkab xarakterga ega. Yer ostida hosil bo‘ladigan gazlar, namlik, harorat, ko‘rishni yomonlashuvi, texnikalar ishlashi vaqtidagi shovqinning so‘nmasligi kabi faktorlar ishlovchilarning sog‘ligiga va ish unum-dorligiga salbiy ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi. Shuning uchun yer ostida bajariladigan ishlar ishlovchilar uchun xavflik darajasi yuqori bo‘ladi. Xavfsizlik bo‘yicha bajariladigan ishlar o‘ta zarur va doimiy xarakterga ega. Xavfsizlik tadbirlarini belgilash uchun yer ostida bajariladigan ishlarning tarkibini,

xususiyatini, texnika –texnologiyalarini va tartibini bilish zarur.

Yer osti ishlarini bir nechta bosqichlarda bajariladi. Shu sababli yer osti ishlari ham turlichadir. Er osti ishlarini bajarish uchun avvalo tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Tayyorgarlik ishlari o‘z navbatida tashkiliy texnik va texnologik turlariga bo‘linadi. Yer osti ishlari gidrotexnika ishlari tarkibida eng murakkab va sermashaqqat ish turlari hisoblanadi, mablag‘ talab ishdir. Bular ishilarning an-chagina qismi qo‘l kuchi bilan bajarilishi, material talabligi bilan bog‘liqdir

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
7. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
8. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
9. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.

9-Mavzu: Shaharning ekologiya omillari.

Darsning maqsadi: Respublikamizdagi havoni ifloslaish darajasi bo‘yicha ma’lumotlaga ega bo‘ladilar.

Ekologiya vazirligi Toshkent shahri atmosfera havosi ifloslanishi yuzasidan ma’lumot berib, bunga sabab bo‘layotgan asosiy omillarni sanab o‘tdi.



Vazirlikning bildirishicha, poytaxt havosining ifloslanish darajasi ortib borayotganiga tabiiy va antropogen omillar sabab bo‘lmoqda. Jumladan, **Toshkentda yashil hudud kamaygan**. Xususan, daraxtlar va butalarning kesilishiga e’lon qilingan moratoriyl davrida 49 mingga yaqin daraxtlar noqonuniy kesilgan. Shaharsozlik bosh rejalari tasdiqlanmasdan, qurilish ishlari betartib amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkent shahrida bir necha marotaba qurilish ishlarini amalga oshirmaslik bo‘yicha moratoriyl e’lon qilingan bo‘lsa-da, qurilishlar hanuzgacha davom etmoqda.

Avtotransport vositalari soni ortib bormoqda. Transport vositalarining ekologik darajasi, foydalanilayotgan yoqilg‘i va yo‘l harakatini tashkil etish sifatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Jumladan, Respublika bo‘yicha avtomobillar soni 2021-yilda 3,14 mln donani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ularning soni 4,6 mln donaga yetdi. Bugungi kunda Toshkent shahrida bir kunda o‘rtacha 730 mingta avtotransport vositasi harakatlansa, qo‘sishma ravishda hududlardan 160 mingdan 300 minggacha avtotransport vositasi kirib kelmoqda. Xalqaro standartlarga to‘g‘ri kelmaydigan A-80 markali benzindan foydalanayotgan texnika vositalari esa atmosferaga me’yordan ortiq zararli tashlamalar chiqarmoqda.

Shaharlarda **transport va piyodalar oqimining kesishmalari soni kamaytirilmagan**, magistrallardagi yuklama darajasi pasaytirilmagan, transport oqimi tar-

kibini, tezlik rejimini tartibga solish sikli optimallashtirilmagan, yo‘l harakatini to‘g‘ri tashkil etilmagan. Natijada Toshkent shahrida tirbandlik holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Tirbandlikda to‘xtab turgan avtomobil esa harakatlanayotgan avtomobilga nisbatan atmosferaga ko‘proq tashlama chiqaradi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energiya resurslariga bo‘lgan talabi ortishi natijasida uglevodorodlardan, jumladan, **ko‘mir yoqilg‘isidan foydalanish hajmi ortmoqda**. Xususan, 2019-yilda 3,9 million tonna ko‘mir yoqilg‘isidan foydalanilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu raqam 5,3 mln tonnaga, 2023-yil yakuniga ko‘ra esa 6,7 million tonnaga yetgan. Ko‘mir yoqilg‘isini qazib olish, tashishdan to foydalanishgacha bo‘lgan jarayonda ajralib chiquvchi ifoslantiruvchi moddalar esa atrof-muhit, jumladan, atmosfera havosi, tuproq va suv resurslarining ifloslanishiga olib kelmoqda. Ma’lumot uchun, 10 tonna ko‘mir yoqilg‘isi yoqilganida atmosfera havosiga 220 kilo qurum, 360 kilo oltingugurd II oksidi, 64 kilo uglerod oksidi, 16 kilo azot II oksidi va 2 tonna kul chiqindisi ajralib chiqadi.

Kuz-qish mavsumida aholiga markazlashgan issiqlik yetkazib berish uchun mavjud Issiqlik markazlari tomonidan qo‘sishimcha yoqilg‘i sifatida **mazut yoqilg‘isidan foydalanish** atmosfera havosining keskin ifloslanishiga hamda aholini e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, birgina Toshkent shahridagi mavjud 6 ta issiqlik markazlarining 9 ta qozonxonalarida dekabr oyida 3 ming tonna mazut yoqilg‘isidan foydalanilgan. Toshkent havosi ifloslanishiga shamol yo‘nalishi va tezligi, havo harorati, **quyosh radiatsiyasi, atmosfera yog‘inlarining miqdori** va davomiyligi, harorat inversiyalari (vertikal bo‘yicha aralash zarralarning tarqalib ketishiga to‘sinqlik qiluvchi iliq havo qatlami) va boshqa tabiiy omillar ham sabab bo‘lmoqda. Ta’kidlanishicha, Toshkent shahri tog‘lar bilan o‘ralgan va chuqrilikda joylashgani sababli shamol aylanmasligi hisobiga **chang** havo oqimi shaharda turib, dimlanib qoladi va **tabiiy yo‘l bilan chiqib ketmaydi**.

Vazirlik respublika hududida atmosfera havosini muhofaza qilish borasida qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilganini bildirdi. Jumladan, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha 1 va 2-toifali sanoat korxonalarida chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatalidi, mavjudlari rekonstruksiya hamda modernizatsiya qilinadi.

Shuningdek, mazkur hududlarda atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarni kuzatish postlari joriy etiladi, atrof-muhit monitoringini amalga oshirish uchun esa avtomatik stansiyalar o‘rnataladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
- 4.Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma’ruza kursi. -T.: “Aloqachi”, 2005. -355 b.
- 5.M.Tojiyev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”. 2012 yil, 272 bet.
- 6.H.G‘oyipov. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 y. -264 b.
7. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
10. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
11. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
12. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.

10-Mavzu: Qishloq va suv xo‘jaligida mehnat muhofazasi muammolari

Darsning maqsadi: : *Qishloq va suv xo‘jaligida mehnat muhofazasi qilish jarayonlari bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘ladi va musatqil fkirlay oladilar.*

Joriy yilning 23 yanvar kuni viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashining katta majlislar zalida qishloq xo‘jaligida mehnat muhofazasi va xavfsizligini ta’minlash loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2018-2020 yillarga mo‘ljallangan harakatlar dasturi ijrosini ta’minlash bo‘yicha qishloq xo‘jaligi xodimlari uchun o‘quv-seminar o‘tkazildi.

Seminar ishida tumanlar fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlarining, agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi tumanlar

kengashlarining masul xodimlari, viloyatdagi fermer xo‘jaliklari rahbarlarining vakillari, yirik qayta ishlash korxonalari va tashkilotlarining kasaba uyushmasi qumitalari va mehnat muhofazasi xizmati xodimlari ishtirok etdilar.

o‘quv-seminar o‘zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining viloyat bo‘yicha masul tashkilotchisi ilhom karimovich sabdarovning kirish so‘zi bilan ochildi. Notiq so‘zida qishloq xo‘jaligi korxonalarida, ayniqsa, fermer xo‘jaliklarida mehnatni muhofaza qilish, xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ahvoli, vaziyatni yaxshilash uchun kasaba uyushmasi va ish beruvchi oldida turgan vazifalar to‘g‘risida batafsил to‘xtaldi.

O‘quv-seminar qatnashchilari viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashining bo‘lim mudiri xo‘jaqulov anvar eshmurodovichning „qishloq xo‘jaligida mehnat muhofazasi va xavfsizligini ta’minlash haqida,,gi maruzasini diqqat bilan tingladilar.

Anjumanda qashqadaryo viloyat bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi davlat inspeksiyasi boshlig‘i abdulaziz mamatov „mehnat qonunchiligi va munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida” maruza qildi.

Seminar-treningda, shuningdek, viloyat budgetdan tashqari pensiya jamg‘armasi bo‘lim boshlig‘i b. Jo‘rayevning, viloyat tibbiy-mehnat ekspertizasi komissiyasi azosi g‘. Usmonovlarning mavzuga oid maruzalari tinglandi.

O‘quv-seminar qatnashchilarning faol ishtirokida o‘tdi, so‘ngida ularni qiziqtirgan savollariga javoblar berildi.

Joriy yilning 23 yanvar kuni viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashining katta majlislar zalida qishloq xo‘jaligida mehnat muhofazasi va xavfsizligini ta’minlash loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2018-2020 yillarga mo‘ljallangan harakatlar dasturi ijrosini ta’minlash bo‘yicha qishloq xo‘jaligi xodimlari uchun o‘quv-seminar o‘tkazildi.

Seminar ishida tumanlar fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlarining, agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi tumanlar

kengashlarining masul xodimlari, viloyatdagi fermer xo‘jaliklari rahbarlarining vakillari, yirik qayta ishlash korxonalari va tashkilotlarining kasaba uyushmasi qumitalari va mehnat muhofazasi xizmati xodimlari ishtirok etdilar.

o‘quv-seminar o‘zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining viloyat bo‘yicha masul tashkilotchisi ilhom karimovich sabdarovning kirish so‘zi bilan ochildi. Notiq so‘zida qishloq xo‘jaligi korxonalarida, ayniqsa, fermer xo‘jaliklarida mehnatni muhofaza qilish, xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ahvoli, vaziyatni yaxshilash uchun kasaba uyushmasi va ish beruvchi oldida turgan vazifalar to‘g‘risida batafsil to‘xtaldi.

O‘quv-seminar qatnashchilari viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashining bo‘lim mudiri xo‘jaqulov anvar eshmurodovichning „qishloq xo‘jaligida mehnat muhofazasi va xavfsizligini ta’minlash haqida,,gi maruzasini diqqat bilan tingladilar.

Anjumanda qashqadaryo viloyat bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi davlat inspeksiysi boshlig‘i abdulaziz mamatov „mehnat qonunchiligi va munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida” maruza qildi.

Seminar-treningda, shuningdek, viloyat budgetdan tashqari pensiya jamg‘armasi bo‘lim boshlig‘i b. Jo‘rayevning, viloyat tibbiy-mehnat ekspertizasi komissiyasi azosi g‘. Usmonovlarning mavzuga oid maruzalari tinglandi.

O‘quv-seminar qatnashchilarning faol ishtirokida o‘tdi, so‘ngida ularni qiziqtirgan savollariga javoblar berildi.

Asosiy adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. I.Axmedov, Z.Mirxasilova. Yunalishga kirish. O‘quv qo‘llanma. 2017 y
2. T.Haydarov, A.Xojiyev, N.Saidho‘jayeva. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: Darslik, 2021.– 370 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Texnosferadagi salbiy omillar.
2. Kasbiy xavf tushunchasi va uni baholash.
3. Mehnatni muhofaza qilish fanining tarixi va rivojlanish istiqbollari
4. Ish muhitining saliy omillari.
5. Zararli moddalarni odam organizimiga ta’siri.
6. Jarohatlanish va kasbiy kasalliklari.
7. Baxtsiz xodisalari ta’rifi.
8. Respublikadagi ekologiya bilan bog‘lik muammolar
9. O‘zbekiston respublikasi gidrotexnika inshootlarining xavsizligi konunitugrisida o‘rganish
10. Suv xo‘jaligi konsepsiadagi soxaga doir urganishda bo‘ladigan xavlar
11. Mehnat kodekslarni o‘qitilishi
12. Biosfera va kosmosni bir-biriga bog‘liqligi
13. Hayotdagi uchraydigan xavf-xatarlar
14. Shaharning ekologiya omillari
15. Mexnat sharoiti ta’rifi.
16. Mehnat muhofazasining huquqiy asoslari.
17. Mehnat Kodeksining moddalari.

GLOSSARIY

Mehnat- Insonning moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga qaratilgan faoliyat.

Xavf - Inson faoliyati davrida uning sog'ligiga bevosita yoki bilvosita zarar keltiruvchi ya'ni ko'ngilsiz oqibatlarga olib keluvchi holat, jarayon, ob'ekt va vosita.

Adaptatsiya, moslashuv – organizmning tashqi muhitning o'zgarayotgan sharoitiga moslashuvchanligi.

Aholi muhofazasi – tabiiy ofatlar, texnogen avariya va halokatlarning real xavfi tug'ilganda odamlar hayoti va sog'lig'iga tahdidni bartaraf etsh va kamaytirishga yo'naltirilgan, joyi, vaqt, o'tkazilishi, maqsadi, imkoniyatlariga ko'ra o'zaro aloqador chora-tadbirlar majmui.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralar, usullari, vositalari tizimi, sa'y-harakatlari majmui.

Atrof tabiiy muhit – insonning yashash va ishlab chiqarish muhiti; insonga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan, sof tabiiy muhit elementlarining jami.

Charchash- Ish faoliyatining pasayishi.

Qonun-jamiyatni tartibga solib truvch xuquqiy xujjat.

Nomenklatura - Ma'lum bir belgilarga ko'ra tartibga solingan sistemalashtirilgan nomlar, tarminlar ro'yxati.

Gamosfera - Inson o'z mehnati jarayonida bo'ladigan fazo.

Noksosfera - Xavf mavjud yoki vaqt vaqt bilan paydo bo'ladigan fazo.

Halokat - Oldingisidan farqli holda qamrovi kengroq va odamlar halok bo'lishiga olib kelgan voqeа.

Bakteriya - Bir hujayrali organizmlar.

Muhit - Organizimga yashash joyiga ta'sir kursatuvchi omillar.

Zaharlanish - Inson organizimga zararli moddalarni ta'siri.

Mehnat - insonning moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga qaratilgan faoliyatdir.

Aqliy mehnat - bu o‘zida axborot qabul qilish, e’tibor va diqqatni ongda jamlashdir.

Jismoniy mehnat - bu bizning harakat a’zolarimiz tomonidan bajarilib, inson organizmning faoliyatini oshiradi (yurak, asab, nafas yo’llarini) va ularning mehnatini ta’minlaydi, tananing skelet muskullari, paylari bo‘g‘imlari yordamida bajariladi.

Holdan toyish – bu ish faoliyatini pasayishidir.

Sarosima – bir guruh odamlarni qamrab oluvchi qo‘rquv tuyg‘usi, u esa atrofdagilarga o‘tib, boshqorolmaydigan jarayonga aylanib ketadi.

Ergonomika -so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, «ergo» - (rabota) ish, «nomika»- (nauka) fan, ya’ni «ish to‘g‘risidagi fani» degan ma’noni bildiradi.

Texnikaviy – estetik moslik insonni mehnat jarayonida, mashina bilan bo‘ladigan muloqatida qoniqarli sharoit bilan ta’minalashni anglatadi.

Ekologik omillar — atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o‘ziga xos ta’sir etuvchi ma’lum sharoitlari va elementlari majmui. Ekologik omillar 2 katta guruh - abiotik omillar va biotik omillarga bo‘linadi. Ekologiyada „cheklovchi omillar“ tushunchasi ham mavjud, ular tarkibiga organizmlar mavjudligi va rivojlanishini cheklovchi har qanday omilni kiritish mumkin.

Abiotik omillar - anorganik tabiat sharoitining yoki o‘lik tabiatning yig‘indisi. Bularga harorat, yorug‘lik, namlik, suv, tuproq, relyef kiradi.

Biotik omillar - Bunga tirik tabiat elementlari (tirik organizmlarning bir-biriga va yashash muhitiga ta’siri) kiradi. Biotik omillar fitogen va zoogen omillarga bo‘linadi. Fitogen omillar deganda yuksak va tuban o‘simgilarning organizmga ta’siri e’tiborga olinsa, zoogen omillar deganda esa organizmga barcha hayvonlarning ta’siri nazarda tutiladi.

Antropogen omillar - bu inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan omillar, ya’ni odamlarning o‘simgilik va hayvon turlari yoki ular guruhlarining tuzilishiga ko‘rsatgan ta’siridir. Tirik organizmlarga juda ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Epidemiya (epi... va yun. yeto8 — xalq) — infektion kasalliklarnshp ma’lum hududda, odatdagidan ko‘p tarqalishi.

Epizootiya (epi — da va yun. — hayvon) — hayvonlarda biror yuqumli kasallikning keng tarqalishi; kasallikning ma'lum vaqt ichida katta hududga (xo'jalik, tuman, viloyat va boshqalar) yoyilib ketishi.

Mehnat havfsizligi – mehnat sharoitining shunday holatiki, unda ishlovchilarga xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siri istisno qilingan.

Tormozlash qurilmalari - mashina va uskunalarning harakatlanayotgan (aylanayotgan) elementlarini tez va asta-sekin to'xtatish uchun tormozlash qurilmalari ishlatiladi.

Blokirovka qurilmalari – bu mexanizmlarni yoki ularning qismlarini muayyan holatda ishonchli mahkamlashni ta'minlaydigan vositalardir

To'siq qurilmalar - insonni xavfdan himoyalash uchun xizmat qiladi. Xavfli zonalarni himoyalash uchun oddiy, ishonchli va arzon to'siq qurilmalar keng ko'lamda ishlatilada.

Himoya qurilmalari - mashina va uskunalarga qo'yiladigan mavjud talablarga muvofiq har bir mashina, traktor yoki agregatda avariya holatidagi ish rejimiga mo'ljallangan himoya qurilmalari bo'lmasa, bunday mashina ishga yaroqli emas deb hisoblanadi.

Baxtsiz hodisa (jarohatlanish) - inson tanasining teri yoki ayrim qismlari tashqi mexanik, kimyoviy, issiqlik va elektr ta'siri natijasida shikastlansa, buni baxtsiz hodisa (jarohatlanish) deb ataladi.

Kasbiy kasalliklar – ishchi - xodimlarga zararli ish sharoitlarining salbiy ta'siri natijasida hosil buladigan kasalliklar kiradi.

Zararli ish sharoitlariga - yomon (nobob) iqlim sharoitllari, zaharli changlar, me'yordidan ortiq shovqin va titrash, bosimning me'yordidan oshishi, yorug'likning etarli bulmasligi va boshqalar kiradi.

Tashkiliy sabablar - Xavfsizlik texnikasi buyicha yo'l-yo'riqlar o'tmagan, ish joylarini noto'g'ri tashkil etilgan, ish joylari yo'laklarning to'silishi, dastgohlar vaqtida sozlanmaganligi, yaroqsiz asbob uskunalarni ishda qo'llash, asosiy ish vaqtidan tashqari ishslash.

Gigienik sabablar - Oqova suvlarda va havodagi zararli moddalarning yuqori

kontsentratsiyasi mavjudligi, nobob iqlim sha-roitlari, yorug'likni etarli emasligi, shovqinning yuqoriligi, sanitariya-maishiy xonalarning etishmasligi va tibbiy ko'rikdan o'tmaganligi.

Texnik sabablar - Mashina, uskunalarning kamchiliklari va nosozligi, og'ir ishlarni mexanizatsiyalashtirilmaganligi, xavfsizlik to'siqlar yo'qligi, uskunalarning noto'g'ri joylashtirilishi va ularning nosozligi.

Ruhiy-fiziologik sabablar - Ishlarning og'irligi, me'yordidan ortiq charchash, ishning monotonligi (bir xilligi), ziyraklikning pasayishi, xavfsizlik qoidalarini buzilishi, mehnat intizomining buzilishi, ishchilarning psixofiziologik sifatlarini bajarayotgan ishga mos kelmasligi yoki uning nosog'lomligi.

Sanitar-maishiy xona - bu shaxsiy va maxsus kiyimlar uchun shkaflı echinadigan, yuvinadigan va ovqat eydigan xona hisoblanadi.

Tabiiy changlar - inson ta'sirisiz hosil buladi. Bunday changlar turkumiga shamol va buronlar ta'sirida qum hamda tuproqning erroziyalangan qatlamlari ko'chishi, o'simlik va hayvon olamida, vulqonlar otilishi boshqa hollarda paydo bo'ladigan changlarni kiritish mumkin.

Sun'iy changlar - sanoat korxonalarida va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida hosil bo'ladi.

Yirik changlar - kattaligi 10 mkm dan katta bo'lgan changlar. Odatda bunday changlar o'z og'irligi ta'sirida erga qo'nadi;

Mayda changlar yoki mikroskopik changlar - katgaligi 10 mkm dan 0,25 mkm gacha bo'lgan changlar. Ular erga ma'lum ijobiy sharoitlar bo'lganda, masalan, yomg'ir, qor va shabnam kabi erga yog'ilayotgan og'ir zarralarga ilashib qo'nishi mumkin;

Ul'tra mikroskopik changlar kattaligi 0,25 mkm dan kichik bulgan changlar va bu changlar hech qachon erga qo'nmay, betartib harakat qilib, uchib yuradi.

Ishchi zona - Davlat standartiga ko'ra ishchining doimiy yoki vaqtinchalik bo'ladigan ish joyidagi pol sathidan 2 m balandlik hisoblanadi.

Umumiyl shamollatish. Ishlab chiqarish binolarida ajralib chiqayotgan har xil zararli moddalarni chiqarib yuborishning imkoniyati bulmasa yoki ajralib

chiqayotgan moddalar, texnologik jarayonning maydonlaridan ajralib chiqayotgan bulsa, unda yakka tartibda shamollatish vositalarini qo'llash imkoniyati yo'qoladi. Bunday hollarda umumiy shamollatish usulidan foydalaniladi. Umumiy shamollatish vositasini zararli moddalar yoki issiqlik eng ko'p ajralib chiqayotan joyga o'rnatish kerak

Ishlab chiqarishda shamollatish - bu davlat standarti talabiga mos holda, xonalardan ortiqcha issiqlikni, namlikni, changlarni, zararli gazlar va bug'larni chiqarish va mikroiqlimni yaratish uchun qurilmalar sistemasidir.

Tabiiy shamollatish. Xonada havoning tabiiy harakatlanishi havodagi zichliklarning farqiga ko'ra va tashqi havo bilan ichki havo bosimi farqlari hisobiga yuz beradi

Yorug'lik-inson ko'zi sezadigan (tebranish chastotasi 4,0YU14—7,5YU14 Gs) elektromagnit to'lqinlar. Bu vakuumdz. to'lqin uzunligi ~ 400 Nm dan ~ 760 Nm gacha bo'lgan to'lqinlar uzunligiga moye keladi. Spektrning infrakizil nurlanish va ultrabinafsha nurlanish sohalari ham Yorug'lik deb ataladi.

Spektr (lot. *spectrum* — „,ko'rinish“) kontinuum ichida o'zgaruvchi xususiyatlar to'plamidir. Optikadan bir misol qilib kamalakni olish mumkin: undagi ranglar (yorug'lik xususiyatlari) uzluksiz o'zgarib boradi. Yorug'lik spektrini spektroskopiya fani o'rganadi.

Yoritish — ob'yektlarning ko'rinish sezgirligini yaxshilash yoki ularni yorug'lik sezgir materiallarga tushirishni ta'minlash maqsadida ma'lum miqsorda yoritilganlik yaratish.

Shovqin- keng ma'noda-nutq va musiqani to'g'ri qabul qilishga, xordiq chiqarishga va aqliy mehnatga xalaqit beruvchi begona tovushlar. Sh. detsibel bilan o'lchanadi. Mas, nafas olish, barglarning shitirlashi 10, qattiq gapirish 60—70, transportning shovqini 80-100, reaktiv samolyot ovozi 140-175 detsibelga teng va h.k. Qattiq, suyuq, gazsimon muhitlardagi har qanday tebranishlar, turli dvigatel va mexanizmlar Sh.larning asosiy manbaidir.

Baxtsiz hodisalar-turli tabiiy ofat, avariya va boshqa ko'ngilsiz hodisalar oqibatida badanga shikast yetish, mayib bo'lish yoki o'lish hollari.

Kasbiy kasalliklar-yomon mehnat sharoitlari va kasbga aloqador ararlarning organizmga ta'siri natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar.

Yong'in- bir zumda shiddat bilan ro'y beradigan va tez tarqaladigan yonish jarayoni

Portlash-oniy vaqtida chegaralangan hajmda katta miqdorda energiya ajralib chiqish jarayoni. Ma'lum xajmni egallab turgan modda P. natijasida energiya ajratib, atrofdagi muhitni juda katta kuch bilan harakatga kelti-ruvchi yuqori bosimdagি qizigan gazga aylanadi. P. qattiq jismda uning yemirilishi va parchalanishi bilan kuzatiladi.

Elektr toki - elektr zaryadlarining tartibli harakati.

Elektr kuchlanish - elektr va tashqi kuchlarning birlik musbat zaryadni zanjirning aniq bir qismida ko'chirishida bajargan ishiga teng bo'lgan fizik kattalik.

Jarohat - gavda to'qimalarining mexanik shikastlangan joyi (teri, shilliq parda, ko'pincha muskul, nerv, yirik tomir, suyak, bo'g'im, ichki a'zo va gavda bo'shliklarining butunligiga putur yetishi).

Elektr jarohat - elektr tok ta'siri natijasida inson tanasini shikastlanishi

Termik ta'siri - teri to'qimasining hujayrasini qizishidan kuydirishigacha olib kelishi mumkin.

Elektrolitik ta'siri - organizmnning suyuqliklari parchalanishi natijasida qonning va hujayralarning kimyoviy va fizik hususiyatlari o'zgarilishi kuzatiladi.

Biologik ta'siri - tanani bioenergetik jarayonini buzilishi, ya'ni tirik hujayralarni to'lqinlanishi va mushaklarni keskin qisqarishiga olib keladigan holat.

Elektr jarohatlanishi - insonni tanasini ayrim joylarini shikastlanishi, elektr kuyishi, elektr belgilari va terini metallanishini ko'rinishlariga ega.

Klinik o'lim-bu odamni tirik va o'lim orasidagi holat, shu holatida yurakni faoliyati va nafas olishi to'xtaydi, insonda hech qanday hayot alomatlari sezilmaydi. Klinik holati 6-8 minut davom etadi. Shu davrida hech qanday yordam bermagan taqdirda miyani hujayralari parchalanib qaytarilmas biologik o'limiga o'tib ketadi.

Favqulodda vaziyat- Favqulodda holat (FH) – bu qisqa muddatda sodir bo‘ladigan, insonlarga, tabiiy muhitga va moddiy boyliklarga katta darajadagi zarar yetkazadigan voqealardir. Hayot faoliyat xavfsizligi nuqtai nazaridan favqulodda holatlarni keng ma’noda, ya’ni xavfning amalda sodir bo‘lishi va insonlar sog‘ligi hamda hayotiga tahdid solishi deb tushunish mumkin.

Avariyyaga – texnik sistemada sodir bo‘lib insonlar halok bo‘lmagan, texnik vositalarni tiklash mumkin yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan voqealarni misol qilib keltirish mumkin.

Katastrofalar – texnik sistemalarda sodir bo‘lib, insonlarning halok bo‘lishiga yoki izesiz yo‘qolishiga sabab bo‘ladigan hodisalardir.

Baxtsiz hodisalar – yerdagi yuz beradigan FV lar bilan bog‘liq bo‘lib biosferani, texnosferalarni buzilishiga, insonlarni halok bo‘lishi yoki sog‘ligini yo‘qolishiga sabab bo‘ladigan holatlardir.

Patentsial xavf - bu yashirin kuchdir. Bu kuch amalga oshishi uchun, qandaydir sharoit yuzaga kelishi lozim. Patentsial xavfni reallikka olib keluvchi sharoit, baxtsiz hodisalarning sabablari deb tushuniladi.

Tabiiy ofatlar - xavfli tabiiy hodisalar va jarayonlar bo‘lib, ular favqulodda yuz berib, insonlarning kundalik hayot tarzini buzilishiga, qurbanlar sodir bo‘lishiga, moddiy boyliklarni yo‘qotilishiga olib keladi.

Xavfsizlik – bu ob’ektning shunday himoyaki, bunda unga ta’sir etuvchi barcha moddalar oqimlari, energiyalari va informatsiyalari maksimal ruxsat etiladigan miqdordan oshmaydi.

Lokal favqulodda holatlar xalq xo‘jaligining ma’lum bir ob’ekti chegarasida yuzaga kelib ushbu ob’ektlarning kuchi va resurslari yordamida bartaraf etilishi mumkin.

Mahalliy favqulodda holatlar aholi yashash punktlari, shaharlar, ma’muriy rayonlar, bir necha rayonlar va viloyat hududida tarqalib, ushbu viloyatning kuchlari va resurslari asosida bartaraf etiladi.

Hududiy favqulodda holatlar bir necha viloyatlar yoki iqtisodiy rayonlar chegarasida tarqalib, ushbu respublikaning kuchlari va resurslari yordamida bartaraf etiladi.

Milliy favqulodda holatlar bir necha iqtisodiy rayonlar yoki davlat chegarasidagi muxtor respublikalar chegarasida tarqalib ushbu davlatning kuchlari hamda resurslari, ayrim hollarda chet davlatlarining yordami asosida bartaraf etiladi.

Global favqulodda holatlar davlat chegarasidan chiqib boshqa davlatlarga ham tarqaladi. Bunday favqulodda holatlar ushbu davlat chegarasida o‘z kuchlari va resurslari hamda xalqaro jamiyatlar ko‘magida bartaraf etilishi mumkin.

Texnogen halokatlar. Katta hududlarda portlash, yong‘in, radioaktiv, ximiyaviy va biologik zararlanishlarni hamda insonlar hayotiga xavf solib, guruqli o‘limlarga olib keluvchi, ishlab chiqarish jarayonining keskin ishdan chiqishi bilan kechadigan hodisalar, ya’ni mashina va mexanizmlarni qo‘qqisdan, ko‘tilmaganda foydalanish davrida ishdan chiqib avariya hamda halokatlarga olib kelishi texnogen halokatlar deb ataladi

Antropogen halokatlar - insoniyatning xo‘jalik faoliyati tufayli yuzaga keluvchi antropogen omillar ta’sirida biosferaning sifat jihatidan o‘zgarishi va natijada insonlar hayotiga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga hamda atrof-muhitga tahdid soluvchi va katta xavf tug‘diruvchi hodisalardir.

Biologik qurol — odamlar, hayvonlar va o‘simliklarda kasalliliklar qo‘zg‘atuvchi, sun’iy ko‘paytirilgan mikroorganizmlar, hasharotlardan iborat ommaviy qirg‘in vositasi.

